

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G.O. OCHILOVA

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

(O`quv qo`llanma)

TOSHKENT – 2019

UO`K: 00000000

KBK:0000000000

Ochilova G.O. Ta'lim texnologiyalari: O`quv qo`llanma – T.: IQTODIYOT, 2019 – 174 b.

Ushbu o`quv qo`llanma bakalavriat ta'lim standartlariga kiritilgan «Ta'lim texnologiyalari» fanini ixtisosligi pedagogika bo`lgan oliygoxlarda o`qitishga mo`ljallangan. O`quv qo`llanmada pedagogik bilim asoslari muxtasar tarzda bayon etilgan bo`lib, undagi ma'lumotlar yoshlarni o`z-o`zini, o`zgalarni bilish, turli vaziyatlar va guruhlarda muomala qilish sirlari, ta'lim va tarbiyaning turlari, qonuniyatlari, pedagogik texnologiyalarning ko`llash shartlari, erkin, mustaqil fikrlash omillari, psixik hodisalar, qonuniyatlarni bilgan tarzda ularni boshqarish to`g`risidagi ma'lumot bilan tanishtiradi. O`quv qo`llanmadagi har bir bob uchun reja, qisqacha uning mazmuni, mustahkamlash uchun savollar va adabiyotlar ro`yxati berilgan.

Данное учебное пособие по предмету «Образовательная технология» подготовлено в соответствии с программой по педагогические для бакалавров, обучающихся по специальностям педагогики. В учебном пособии раскрыты общие основы педагогических знаний, знания в области психологии личности, психологии человеческой деятельности, познавательных процессов, межличностных отношений, методов и средств образования и обучения личности. В учебном пособии в каждой главе дан план, краткое резюме, вопросы для самостоятельной работы, список использованной и рекомендуемой литературы.

The given manual in a subject it is prepared according to the program on Pedagogics. Psychology for the bachelors trained on specialists outside of psychology and pedagogics. In the manual the general{common} bases of pedagogical and psychological knowledge, knowledge in the field of psychology of the person, psychology of human activity, cognitive processes, interpersonal attitudes{relations}, methods and means of formation{education} and training of the person are opened. In the manual in each chapter{head} the plan, the brief resume, questions for independent work, the list of the used and recommended literature is given.

Taqrizchilar:

1. M.T.Mirsoliyeva – TDPY Maktabgacha talim fakulteti dekanii, pedagogika fanlari doktori.
2. R.Abdullayeva – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, pedagogika fanlari doktori.

TDIU Ilmiy kengashi tomonidan (2019-yil 30-maydagi 11-sonli qaror) bakalavriatning barcha talim yonalishlari talabalari uchun oquv qollanma sifatida tavsiya etilgan.

ISBN-000000000

UO`K: 00000000

KBK:0000000000

© Ochilova G.O., 2019
© “IQTISODIYOT”, 2019.

M U N D A R I J A

1-bob	“TA’LIM TEXNOLOGIYALARI” FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	5
1.1.	Ta’lim texnologiyasi haqida tushuncha.	5
1.2.	Bo`lajak iqtisodchi – o`qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashga o`rgatish.....	10
1.3.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o`quv jarayonini loyihalashtirish.	16
1.4.	Didaktik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.....	17
1.5.	Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o`tkazish texnologiyasi...	21
2-bob	INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH OMILI SIFATIDA.....	23
2.1.	Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifalari.....	23
2.2.	Ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar	26
2.3.	“Pedagogika tizimi”, “ta’lim texnologiyasi”, “o`qitish texnologiyasi”, “fan uslubiyoti”ning tizimli tashkil etuvchilari va elementlari.....	28
3-bob	ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	30
3.1.	Zamonaviy ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari	30
3.2.	Psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo`nalishidagi tamoyillar	31
3.3.	Shaxsga yo`naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim	34
4- bob	PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH VA REJALASHTIRISH YO`LLARI.....	38
4.1.	O`quv fani bo`yicha ta’lim texnologiyasi tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari.....	38
4.2.	O`quv mashg`ulotida ta’lim texnologiyasi bo`yicha o`qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi.....	41
4.3.	Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari.	42
5- bob	TA’LIM USULI – TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBIY TASHKIL ETUVCHISI.....	46
5.1.	O`qitish metodlari: mohiyati va tasniflari.	46
5.2.	O`qitish metodlarining xususiyatlari.	47
5.3.	O`qitish metodlarining tanlash omillari. Reprodukativ o`qitish metodlari. Produktiv o`qitish metodlari.	51
5.4.	O`quv mashg`ulotini o`tkazishda faol va interfaol o`qitish modeli.	51
6- bob	TA’LIMNI TASHKILLASHTIRISH SHAKLLARI – TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI.....	61
6.1.	1. O`qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O`qitishning psixologik asoslari.....	61
6.2.	Talabalarlarning o`quv faoliyatini shakllantirish.	64
6.3.	Ta’limni tashkil etish shakllari.	66
7- bob	MA’RUZA – TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI.....	70
7.1.	Ma’ruzaning o`quv jarayonida tutgan o`rni va unga qo`yiladigan talablar. ..	70
7.2.	Oliy ta’lim tizimida qo`llaniladigan ma’ruza turlari.	71
7.3.	Ma’ruza shaklida ta’lim berishning o`ziga xos xususiyatlari.....	73
8- bob	SEMINAR – TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI.....	75

8.1.	Seminar darsi va uning o`quv jarayonida tutgan o`rni.	75
8.2.	Seminar darsining turlari va funksiyalari.....	79
8.3.	Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil qilish.....	80
8.4.	O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi mazmuni va uning tuzilishi.....	83
9- bob	INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI ILG`OR XORIJIY TAJRIBALAR. KEYS-STADI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	85
9.1.	Ta`lim jarayonida keys-stadi uslubini keng tatbiq qilishning ijtimoiy- pedagogik shart-sharoitlari.....	85
9.2.	Keys texnologiyasining umumiy tavsifi.	88
9.3.	Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari.....	91
9.4.	Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi.....	92
9.5.	Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart- sharoitlari	96
9.6.	Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari.....	103
9.7.	Keyslar tipologiyasi.....	107
10-bob	MODULLI TA`LIMNING AHAMIYATI VA MOHIYATI.....	115
10.1.	Modulli ta`limning mazmuni va mohiyati	115
10.2.	Modulli ta`limni tashkil etish tamoyillari	116
10.3.	Modulli-kredit tizimi	120
10.4.	Modulli-kredit tizimning ahamiyati va mohiyati.....	120
10.5.	ESTSning asosiy tamoyillari.....	121
10.6.	ESTSning xususiyatlari.....	122
11-bob	ZAMONAVIY TA`LIM SHAKLLARI: BLENDED LEARNING (ARALASH O`QITISH), MASOFALI O`QITISH, MAHORAT DARSLARI, VEBINAR, EVRISTIK METODLAR.....	125
11.1.	Masofali o`qitish metodi haqida tushuncha.....	125
11.2.	Masofali o`qitish metodining kamchiliklari va afzalliklari.....	128
11.3.	Evristik o`qitish metodi.....	131
11.4.	Xorijiy ta`limda tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati.....	132
12-bob	IQTISODIY FANLARNI O`QITISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	133
12.1.	Loyiha metodi haqida tushuncha.....	133
12.2.	Loyihaviy ta`lim turlari.....	136
12.3.	O`quv loyihaviy faoliyatni tashkillashtirish.....	138
13-bob	IQTISODIY TA`LIM TIZIMIDA MUAMMOLI TA`LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	139
13.1.	Muammoli ta`lim texnologiyalari asosida zamonaviy darslarni tashkil etish uslubiyati.....	139
13.2.	Muammoli ta`lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi.....	146
13.3.	Muammoli ta`lim texnologiyasini qo`llashda muammoli vaziyatlar usulidan foydalanish.....	151
	Fan bo`yicha testlar	154
	Fanga doir videoma`ruzalar, video roliklar	164
	Mustaqil ta`limga oid topshiriqlar	165
	Glossariylar	166
	Tavsiya etiladigan elektron jurnallar va Internet saytlar	169
	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	171

1 - bob. “TA’LIM TEXNOLOGIYALARI” FANINING MAZMUN, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja

- 1. Ta’lim texnologiyasi haqida tushuncha.*
- 2. Bo`lajak iqtisodchi – o`qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashga o`rgatish.*
- 3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o`quv jarayonini loyihalashtirish.*
- 4. Didaktik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.*
- 5. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o`tkazish texnologiyasi.*

1.1. Ta’lim texnologiyasi haqida tushuncha

Hozirgi vaqtda O`zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirishga yo`naltirilgan yangi ta’lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o`quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi o`zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o`rnatilmoqda.

Ta’lim tarkibi yangi prosessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta’lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an’anaviy usullari – og`zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo`lib talaba bilan pedagogning shaxsga yo`naltirilgan o`zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo`lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishda fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik ta’lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo`nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1) Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o`tish, ya’ni o`zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o`tish.

2) Bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o`tish.

3) O`rtacha talabaga yo`naltirilganlikdan o`qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o`tish.

4) Talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma’naviy irodali tartibga solinishga o`tish.

Bugungi kunda savodli mutaxassis bulish uchun ta’lim texnologiyalarning barchasini o`rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug`atda pedagogik texnologiya tushunchasi mustahkam o`rnashgan. Lekin uni tushunish va ishlatishda turli xil yondashish mumkin.

Texnologiya bir ishda, mahorat va san’at qo`llaniladigan usullar yig`indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya o'quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir (G. Bepalko).

Pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Texnologiya san'at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarning majmuidir. (Shepel).

Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha tafsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U talaba va pedagoglarga qulay sharoitlar yaratishi shart (Monaxov).

Pedagogik texnologiya ta'lim shakllari optimizasiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlash hamda bilimlarni o'zlashtirish uslublardir (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin).

Pedagogik texnologiya aspektlari.

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Ilmiy aspekt pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2. Prosessual-tavsifiy aspekt - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3. Prosessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarning amal qilish.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya fan sifatida amal qilib, ta'limning yanada oqilona yo'llarini tadqiq etadi.

Bu esa ta'limda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va regulativlar tizimi sifatida hamda ta'limning real jarayoni sifatida bajaradi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi ta'lim tajribasida 3 darajada qo'llaniladi:¹

1. Umumiy pedagogik daraja:

Umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiya) texnologiya berilgan hududdagi ta'lim maskanida ta'limning ma'lum darajasidagi to'liq umumta'lim jarayonini tavsiflaydi.

Bunda pedagogik texnologiyaning pedagogik tizimida farqlar mavjud: unga ta'lim maqsadlari, tarkibi, vositalari va uslublarning majmui, jarayonda subyekt va obyektlarning faoliyat algoritmi kiradi.

2. Qisman pedagogik daraja:

Qisman predmetli pedagogik texnologiya «qisman metodika» tushunchasini beradi, ya'ni bir fan doirasida tarbiya va ta'lim, uslub va vositalar majmuidir.

3. Chegaralangan daraja:

Chegaralangan texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonning alohida qismlarini ifodalab, xususiyl didaktik va tarbiya masalalarini yechadi (faoliyatning alohida turlarini texnologiyasi, tushunchalar shakllanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, materialni nazorat qilish va qaytarish texnologiyasi).

Shuningdek texnologik tarkiblar farqlanadi: Usullar texnologik zanjirga birikib yaxlit pedagogik texnologiya (texnik jarayon)ni tashkil etadi.

Texnologik jadval- texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional elementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

Texnologik xarita- jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Texnologik nuanslar- adabiyotda odatda pedagogik tizim tushunchasi pedagogik texnologiya sifatida ko'rsatiladi. Lekin pedagogik texnologiya kengroq ma'nodagi tushuncha bo'lib, uziga xos pedagogik faoliyatning obyekt va subyektlarini oladi.

Qo'llanilishiga ko'ra texnologiyalarni 3 sinfga ajratish mumkin:

- a) umumiy pedagogik texnologiyalar;
- b) xususiyl pedagogik texnologiyalar;
- v) kichik pedagogik texnologiyalar, modellar;

Falsafiy jihatdan texnologiyalar:

- a) materialistik;
- b) idealistik;
- v) ilmiyl;
- g) diniyl;
- d) gumanistik;
- e) majburiyl.

Psixik rivojlanish omili bo'yicha:

a) biogen, ya'ni insonning jipslangan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bu texnologiya asosan jismoniy tarbiya kabi fanlarda qo'llaniladi.

b)sotsiogen, ya'ni shaxsning sosiologik ongini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya, bular qatorida jamiyatshunoslik, huquqshunoslik, sosiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarni sanab o'tish mumkin.

v) psixogen, ya'ni insoning psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bular jumlasiga psixologiya, etika, estetika, ma'naviyat, ruhiyat, dinshunoslik kabi fanlarni kiritishimiz mumkin².

Ilmiyl tajribani o'rganish bo'yicha:

a) refleksiv, ya'ni ayrim tajribalarning shartli refleks tarzida yoki odatiy holda bir avloddan ikkinchisiga o'tishi;

²Ишмухамедов Р. Таълимда инновацион технологиялар. -Т.: Истеъдод, 2014. 24-б.

b) rivojlantiruvchi, ya'ni oldingilar tajribalarini umumlashtirib, uz tajribalaridan kelib chiqqan holda mavjud texnologiya bilan uygunlashtirish;

v) geshtalt, ya'ni ushbu texnologiya talabaning his-tuyg'ularini qamrab oladi;

g) bixevioristik, bu texnologiya talabalarning tashqi xatti-harakatlariga asoslangan bo'ladi.

a) axborot texnologiyalar (bilim, malaka, ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

b) operatsion texnologiya (fikrlash malakasini shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

v) estetik-axlokiy texnologiya.

g) boshqaruvchilik xususiyatini shakllantiruvchi texnologiya;

d) evristik texnologiya (ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi texnologiya);

y) amaliy xatti-harakatlarni shakllantiruvchi texnologiya.

Pedagogik texnologiyalar pedagogning talabaga nisbatan munosabatiga qarab bir qancha turlarga bo'linadi:

1) avtoritar texnologiya; bunda pedagog asosiy subyekt sifatida boshqaruvchi, tekshiruvchi, talab qiluvchi bo'lib maydonga chiqadi, talaba esa tobe sifatida tan olinadi;

2) didaktik texnologiya, bunda pedagogning o'rni ma'lum Yuqori bo'lib, bu texnologiya markazida ta'lim jarayoni turadi va tarbiyadan ustunlik kuladi;

3) shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, bunda tizimning markazida talaba shaxsi turadi, talabaning rivojlanishida soglom psixologik xususiyatni tashkil qilish, imkoniyat va qobiliyatlarni ustirish asosiy bo'lib hisoblanadi. Bu yo'nalish xam uz navbatida 3 guruhga bo'linadi:

a) insoniy (shaxsiy) texnologiya, bu texnologiya uzining psixoteraptik xususiyati bilan ajralib turadi.

b) hamkorlik, bu o'zaro tenglik, demokratizmga asoslangan texnologiya;


v) erkin tarbiya, talabaga bunda tanlash, erkinlik, mustaqillik beriladi;

g) ekzoterik, ongdan tashkari bilimlarni o'rganishga qaratilgan texnologiyadir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'limni zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Pedagogik texnologiya markazida ta'lim jarayoni, uning ham subyekti, ham obyekti hisoblangan o'qituvchi va o'quvchi turadi. Bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri zamon va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, uning faoliyatini to'g'ri tashkil etish, o'quv muassasasida ijodiy muhitni yaratish, talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz — yuksak madaniyat sarchashmasi hisoblanadi. Bugungi kunda yosh avlodni sharqona odob-axloq, milliy qadriyat, urf-odat va an'analарimiz asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yurtimizga xorijiy mamlakatlardan sarmoyalar bilan birga zamonaviy texnologiya va boshqaruv usullari ham kirib kelmoqda. Ayniqsa,

zamonaviy pedagogika texnologiyalari ta'lim tizimi mazmuni va sifatini oshirishda muhim o'rin tutayotgani sir emas (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim texnologiyalari³

“Texnologiya”⁴ atamasi yunoncha **“teshno”** va **“logos”** soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, “Hunar yoki fanni oʻrganish” degan maʼnoni anglatadi. Atama texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk bor 1872-yilda muomalaga kiritilgan. Mazkur tushuncha bugungi kunda mazmun va mohiyatiga koʻra turli fan va sohalarida ham keng qoʻllanilmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga dastlab oʻquv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish sifatida qaralgan. Oʻtgan asrning 70-yillariga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha mohiyati tamoman yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi Sakamoto pedagogik texnologiya tushunchasiga “oʻquv texnologiyalari — oʻquv jarayonining samaradorligini taʼminlovchi yoʻl-yoʻriqlar bilan bogʻliq bilimlar majmuasidir” deya yangi taʼrif berdi.

Aytish joizki, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadallashuvi jarayonida pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan oʻz mohiyatiga koʻra, uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi tamoyillarga ega boʻladi. Pedagogik texnologiya maqsadi, vazifasi, tarkibi va mazmuniga koʻra, ilmiylik, loyihalash, tizimlilik, yoʻnaltirilganlik, faoliyatli yondashuv, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik kabi tamoyillarga asoslanadi.

³ Давыдова Т.И., Давыденко Т.М., Шибанова Г.Н. Управление образовательными системами. -М.: Изд.центр Академия, 2006

⁴ Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: Fan. 2009. 45-bet.

1.2.Bo`lajak iqtisodchi – o`qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashga o`rgatish

Darhaqiqat, O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, ta`lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, ilg`or metodikalarini qo`llagan holda tashkil qilish va o`tkazish shu kunning muhim muammolaridan hisoblanadi. Hammamizga ma`lumki, ta`lim jarayonida o`qituvchi bosh omil. U rejalashtirilgan ma`lumotlarni talabaga tezroq berishga harakat qiladi, lekin ta`limning asosiy ikki jihatiga e`tibor beradimi?

Ilmiy manba. Uslubning ommabopligi deganda o`quvchi – talabavlarning rivojlanishiga va ruhiy-pedagogik imkoniyatlariga ushbu uslubning muvofiq kelishi tushuniladi. Bu uslub quyidagi qoidalarini o`z ichiga oladi:

1. Yangi ma`lumotlarni ilgari o`rganilgan ma`lumotlar bilan boshlash. Bu yerda, ya`ni talabaning mustaqil ravishda ishlashi, o`tilgan ma`lumotlarni mustaqil takrorlashi, mustaqil ravishda fikrlardan xulosalar chiqarilishi talab qilinadi.

2. Rivojlanishning erishilgan darajasiga, bilishning shakllangan jihatlariga va talabaning xususiyatlariga tayanish reyting asosida joriy nazorat yo`li bilan aniqlanadi.

3. O`quv materialni chuqurroq o`zlashtirilishi va talabaning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish asosan ularga mustaqil o`rganish uchun mavzular berish, mavzular asosida referatlar yozdirish va o`qituvchining ishchi dasturi asosida keyingi darslarda tayyorgarlik ko`rishlar orqali amalga oshirilishi kerak.

4. Ta`lim metodining samaradorligi uning o`quv materialini mustahkam egallashga qaratilganligi. Bu yerda ham o`zlashtirilishi kerak bo`lgan ta`lim metodining samarasi talabaning mustaqil harakati, uning oldindan ushbu metod haqida ma`lumotga ega bo`lishiga bog`liq.

5. Ilg`or metodlarni muntazam o`rganib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyihalash, tanlash va amalda qo`llash.

6. Ta`lim metodining ilmiyligi qoidasiga amal qilishda G`arb va Sharq allomalari, o`zbek mutafakkirlari, pedagog - olimlari durdonalaridan foydalanilgan holda ma`lumotlarni boyitib borish.

Ta`lim metodlariga qo`yilgan talablar bilan bir qatorda ta`lim metodlari bilan bo`lajak o`qituvchilarni qurollantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar elementlarini qo`llash shu kunning asosiy zaruriyatiga aylandi. Har bir metodning muhimligi, muammoliligi, maksa dva vazifalari, amaliy ahamiyati haqida zarur ma`lumotlarga ega bo`lishligi davr taqazosidir.

Har bir o`tiladigan darsning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi bo`ladi. Bu maqsadga erishish uchun o`qituvchi rahbarligida talabalar birgalikda harakat qiladilar. Bu harakat asosan uch tarkibiy qismdan iborat o`lishi kerak:⁵

1. Motivatsiya qismi.
2. Boshqarish qismi.

⁵Germany's Vocational Education at a glance.. E-Mail: books@bmbf.bund.deInternet: <http://www.bmbf.de>. National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.-15 p

3. Bilish faoliyati.

Motivatsiya qismining asosiy maqsadi talabalarda ta'lim metodlari haqida bilim olishga qiziqish, istak, xohish va zarurat uyg'otish. Agar talabada u yoki bu mavzuni o'zlashtirish bo'yicha qiziqish, xohish va zarurat bo'lmasa ta'lim jarayoni samarasiz bo'ladi. Talaba ushbu metodlar va metodlarga qo'yiladigan talablar, ma'lumotlar ularga qanday imkoniyatlar yaratilinishi tushunib yetishi kerak. Umuman olganda, talabaning ongida «men shu mavzu bo'yicha bilimli bo'lmasam, hayotda o'z o'rnimni topa olmayman», degan fikr doimo bo'lishi kerak. Ushbu motiv ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi shart.

“O'qituvchining sifatlari – yagona va eng katta omil talabalarning yutuqlarini tushuntirishda, auditoriya bog'lagan muammolardan ham ortiqroq, shu kabi resurslar, o'quv rejani boshqaradigan prinsiplar va baholash usullari, yoki keng maktab ta'lim atrof-muhiti, shu kabi maktab madaniyati va tashkil etilishida” (Lovat, ACDE, p2)⁶.



**2-rasm⁷. Robert E. Glenn
(1933-2015)**

*O'qituvchilar nima qilish kerak”
asari muallifi*

Mahoratli o'qituvchi bo'lishi uchun Robert E. Glenn o'zining “O'qituvchilar nima qilish kerak”⁸ (2001) asarida o'qituvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini namoyish qilishga da'vat qiladi:

– **Ilovalar ishtiyoqi.** Ta'lim qiziqarli bo'lishini ko'rsating, va shunda o'qishga bu g'ayrat talabalarning istaqlariga ta'sir etadi.

– **O'zining mazmunini bilish.** O'z sohangiz sifatlari va mazmunidan orqada qolmang. Bu faoliyatingizning birinchi yoki o'ttizinchi yilidan qat'iy nazar o'z sohada o'zgaruvchan innovatsiyalardan orqada qolmang.

– **Tashkilotchi bo'lish⁹.** Samarali tashkil etish sizga talabalar bilan o'rganish uchun ko'proq vaqt ajratishga imkoniyat beradi. Kundalik ishlar bilan ishlash usullar toping; talabalar ishlarini tahlili, materiallarni tarqatish.

– **Faol o'qitish.** Samarali o'qituvchilar doimo jalb qilingan. Ular harakatda. Ular bekor turmaydilar, har doim ish bilan bandlar. Ular talabalar va boshqa shtat bilan faol bog'langanlar.

– **Yaxshi munosabatni ko'rsatish.** Voltaire dedi: “Eng jasur qaror, har qaysi odam har kuni qabul qiladigan bu yaxshi kayfiyatda bo'lish hisoblanadi.” Bolalar yomon kayfiyatda bo'ladigan o'qituvchilarga muhtoj emaslar. Ular ijobiy

⁶Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p

⁷www.ziyounet.uz

⁸Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10p

⁹Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-6p.

munosabatlarda bo'lgan modellarda muhtoj. Boshqalarga nima gapirganiz va o'z tovushingizni eshiting. Siz emotsiya, g'amxo'rlik va ehtiromni ko'rsatishingiz shart.

– **Auditoriyani muvaffaqiyatli boshqarishni ko'rsatish.**

– ... birinchi kundan boshlab! Aqlli tuzilish va intizom talabalar uchun muhim deb hisoblanadilar, haqiqatdan ham auditoriyada tartibli atrof-muhitni yaratish uchun. Uzviylik va xolislik bo'lishi lozim.

– **Temp qo'llanmasi.** O'rganilgan miqdor o'qish imkoniyatlari bilan bog'liq. Talabalar har doim o'qiydilar, navbatda turib, eshitib, kuzatib.

– **Tajribali mutaxassislar malakalarini qo'llab-quvvatlash.** O'qituvchilar boshqalar bilan yaxshi ishlash shart. Agar odamlarga sizning o'qituvchi sifatida axloqingiz yoqmasa, ular sizning atrofingizda bo'lishni istamaydi. Ta'lim – odamlarning biznesi. Munosabatlarning yaxshi insoniy malakalari majburiy.

– **Aniq muloqot qilish.** Samarali o'qituvchilar ma'lumotni aniq berishadi. Qisqa bo'ling. Qanday tushuntirish bo'lsa, shunday namoyish qiling. Yangi ma'lumotlarni taqdimotida o'qituvchilar aniq ko'rsatmalar berishi kerak. Bu jarayon o'z ichiga oladi tushuntirishni, ajratish, xulosa chiqarish va muhokama qilish. Ko'pincha bolalar nimalarni o'rganishlari va nimaga tushunchalarga egamasdirlar.

– **Samarali so'rov o'tkazish.** So'rash – kuchli o'rgatuvchi asbob, uning orqali produktiv o'ylash bo'lishi mumkin. Keng kleteks so'rashni o'tkazing – o'shanda butun sinf yoki odamlarga bir qancha muammolar ochiladi-yopiladi to'g'ri keladigan vaqtda.

– **Qo'llanmalarni farqlash.** O'qitishni samarasini beradigan eng katta sinovlardan biri – talabalar o'rganilayotgan usullarni o'zgartirishdir. O'qituvchilar eshittirish, vizual va amaliy usullarni aralashtirish lozim. Ayrim darslar uchun, talabalarning xususiy imkoniyatlar va qobiliyatlarini inobatga olgan holda.

– **Auditoriyaga muvaffaqiyat keltiradi.** Muvaffaqiyatni me'yori muhim. Qaysi talaba uchun ish haddan tashqari murakkab bo'lsa, faoliyati tartibsiz holga kelishi mumkin, axloq va harakatlar muammolariga keltirishi mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, muvaffaqiyat borligi 80 %gacha o'qishni optimal holatga keltiradi. Qachon talabalar muvaffaqiyatga ega bo'lmasalar, keyingi qo'llanmani ta'minlang yoki osonlashtirish, chunki hozircha talaba buni uddalashga kuchi yo'q.

– **Yuqori natijani ko'tish**¹⁰. Yaxshi ish uchun yuqori natijalar e'lon qilinishi kerak. Samarali o'qituvchilar nafaqat buni qabul qiladilar – ular buni talab qilishi shart. Talabchan bo'lishi mumkin, bir vaqtda yoqimsiz yoki bahl bo'lmasdan. Talabalar o'qituvchilarni hurmat qiladilar, qaysilar talabalarning o'qishga nisbatan faolligini rag'batlantiradiganlar.

– **Yoqimli atmosferani yaratish.** Qorong'u, kulrang va g'amgin auditoriya o'qishning muvaffaqiyat foizini kamaytiradi. Quvnoq va ochiq auditoriya o'qishni rag'batlantiradi.

– **Egiluvchan bo'lish.** Ta'lim egiluvchanlikni talab qiladi. Siz moslasha olasizmi, qachonki kunlik mavzularingiz yangi ochilgan vaziyatlarga to'g'ri kelmasa?

¹⁰Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-8p.

Bu degani: erisha oladigan vaqtni toping! Haqiqatdan ham siz talabalar ehtiyojlariga yetarlicha sezgir va qoidalardan voz kechasizmi, qachonki talabaga zarur yordam kerak bo'lsa?

Rossiyalik olim O.B. Epeshivaning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiyani uch manbai mavjud.

O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim(3-rasm)

Иерархическая модель педагогических компетентностей



3-rasm. Pedagogik mahorat iyerarxiyasi¹¹

Birinchi manba – psixologiya, o'zlashtirish va o'rganishning psixologik konsepsiyalari – bixevorizm, aqliy qobiliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi: bu nuqtai nazarda pedagogik texnologiya bir qancha amallardan iborat tadbirlar yordamida o'quvchi-talabalar ongi holatini bevosita o'zgartirish jarayonini boshqarish tarzida talqin etiladi.

Ikkinchi manba – ishlab chiqarish jarayonlari va fan: bu ma'noda texnologiya mahsulot ishlab chiqarishda material, xomashyoning shakli, xossasi, holatini o'zgartirish, uni tayyorlash, qayta ishlash usullari yig'indisi tarzida tushuniladi. Bu tushunchaning boshqa ta'riflarini ham keltirib o'tish mumkin: texnologiya – bu protsessual kategoriya bo'lib, obyektini o'zgartirish metodlari majmuasi tarzida tasavvur etiladi; texnologiya samarali iqtisodiy jarayonlarni loyihalashtirish va ulardan foydalanishga yo'naltiriladi.

Uchinchi manba – pedagogika fanining o'zi (bu borada mashxur pedagog A.S.Makarenko ham o'z fikrini bildirgan). Uning e'tirof etishicha, «pedagogik ishlab chiqarish» pedagogik texnikaga mos kelishi kerak. Bundan tashqari, u quyidagi mulohazalarni ta'kidlab o'tadi: «Bizning pedagogik ishlab chiqarish hech qachon texnologik mantik bo'yicha tuzilmagan, hamma vaqt axloqiy tashviqot mantiqiga asoslangan».

¹¹ Петрова Л.И. Основы управления педагогическими системами. -Ростов –на- Дону.: Изд. Феникс, 2008.- 349 с.

Dastlabki vaqtlarda pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirish sifatida tushunilgan. Lekin dasturli o'qitish tizimining kiritilishi uchu asos bo'ldi. V.P.Bespalko, V.I.Juravlyov, M.V.Klarina, V.M.Manoxovning fikrlariga ko'ra, o'qitish texnologiyasi – ta'lim jarayonlari, o'qitishning tashkiliy shakli va vositalari bilan bog'liq bo'lgan o'qitish tizimining tarkibiy qismi. Aynan o'qitishning xuddi ana shu qismida «Qanday qilib samarali o'qitish mumkin?» degan savolga javob topish muhim.

«Pedagogik texnologiya» atamasi bilan «o'qitishga texnologik yondashuv» tushunchasi uzviy bog'liq. O'qitishga texnologik yondashuvda uch bosqich alohida ko'rsatib o'tiladi: maqsad qo'yish va natijaga erishish uchun uni maksimal darajada aniqlashtirish (bu bosqichga eng birinchi navbatda e'tibor beriladi); o'quv materiallarini tayyorlash va o'quv maqsadlariga muvofiq holda o'quv jarayonini tashkil etish; joriy natijani baholash, qo'yilgan maqsadga erishish uchun ta'limga o'zgartirishlar kiritish, natijalarni yakuniy baholash.

V.V.Guziyev ta'lim texnologiyalari sohasida olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilib, to'rtta asosiy g'oyani alohida ajratib ko'rsatadi: «didaktik birliklarni yiriklashtirish; o'qitish natijalarini rejalashtirish va ta'limni tabaqallashtirish; ta'lim jarayonini psixologiyalashtirish; kompyuterlashtirish». Biz o'qitish texnologiyasiga nazariy yondashuvlarni faoliyatli nuqtai nazaridan tahlil qilib, o'qitishning mavjud texnologiyalariga xos bo'lgan belgilarni alohida ajratib ko'rsatishni ma'qul topdik va bunda asosan O.B. Epishevaning mulohazalariga tayanib ish ko'rdik. Olimaning fikriga ko'ra, o'qitishning mavjud texnologiyalarini quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

1. O'quv faoliyati nazariyasi. O'qitish texnologiyasining psixologik asosi o'rganiladi. O'qituvchi va talaba faoliyati turlari aniqlanadi. Ularni ketma-ket amalga oshirish qo'yilgan maqsadga erishishga olib keladi. Asosiy g'oya shundan iboratki, bunda o'quvchi-talabaning o'zi mustaqil o'qishi kerak. Buning uchun esa, ta'lim muassasasida zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

2. Diagnostik maqsad. Ma'lum tadbirlar asosida o'qitish texnologiyasi loyihalalanadi. Pedagogik texnologiyada taklif etiladigan o'qitish maqsadini loyihalash usulini belgilash ta'limga faoliyatli yondashuvga tayaniladi. Maqsad o'qitish natijalariga asoslanib ta'riflanadi. Natijalar o'quvchi-talabaning faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Ushbu holda ularni o'qitish maqsadlari emas, balki o'z maqsadlari yoki o'quvchi-talabalar o'quv faoliyatining maqsadi deb atash mumkin.

3. O'quvchi – talabalarning o'quv-bilish faoliyati davri. O'quv-bilish faoliyatida o'quv materiallari o'zlashtiriladi. U o'z ichiga har qanday axborotni qabul qilish, anglash, eslab qolish, amalda qo'llash, umumlashtirish va tizimlashtirishni qamrab oladi. Biroq o'quvchi-talabalarning barchasi bu ishni uddalay olmaydi. O'qitish texnologiyasi ularning potensial imkoniyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

4. O'qitish texnologiyasining o'quvchi-talabalar shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi. Bu hol nafaqat o'quv jarayonini, balki o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarini loyihalashni ham taqozo etadi. Bunday maqsadlarga turli bosqichli (tabaqallashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan) ta'lim sharoitlarida erishish mumkin.

5. O`quvchi-talabalarning mustaqil faoliyat ko`rsatish uchun o`quv-materiallarini eng maqbul darajada taqdim etish. O`quvchi-talabalar uchun maxsus o`quv materiallari va darsliklarda quyidagilar aks etadi: o`quv maqsadlari tizimi, o`rganiladigan o`quv materiallari mazmunini qamrab oluvchi didaktik modullar, bloklar yoki sikllar, ularni o`rganish tartiblari, o`quvchi-talabalarning bilimlarni o`zlashtirishini baholash mezonlari va boshqalar.

O`quvchi – talabalar uchun tayyorlangan didaktik materiallar texnologik xaritalar ko`rinishida rasmiylashtiriladi.

6. O`quvchi-talabalarning o`quv faoliyatini yo`naltirish. Bunda o`quvchi-talabalarga o`quv faoliyatining asosiy tamoyillari va o`quv faoliyati usullari, uning natijalarini nazorat qilish va baholash, o`quv faoliyati motivatsiyasi tushuntiriladi.

7. O`quv jarayonini tashkil etish. O`quv jarayoni o`quv maqsadlariga muvofiq tashkil etiladi. Bunda tayyorlangan o`quv materialllariga tayaniladi. O`quvchi-talabalarning mustaqil faoliyati tabaqalashtiriladi. An`anaviy sinf-dars tizimi vao`qitishning frontal usulidan voz kechiladi. o`qitish tartibi o`zgaradi, barcha o`quv muloqot turlaridan foydalaniladi, o`quvchi-talabalarning o`quv faoliyati shakllari (frontal, guruh, jamoa va individual) turli tarzda qo`sxiladi.

8. Bilim va faoliyat usullarini o`zlashtirishni nazorat qilish. O`quvchi-talabalar bilim va faoliyat usullarini o`zlashtirishi uch darajada nazorat qilinadi: kirish nazorati, joriy (yoki oralik) nazorat, yakuniy nazorat. Kirish nazoratida o`quvchi-talabalarning ishni bajarishga tayyorgarligi haqida axborot olinadi va zarur holda bu darajaga o`zgartirishlar kiritiladi.

O`quvchi-talabalarning o`quv materialini o`zlashtirishi va rivojlanishini o`rganish maqsadida har bir o`quv elementidan keyin nazorat o`tkaziladi (nazorat, bir-birlarini o`zaro nazorat qilish, o`z-o`zini nazorat qilish tizimiga amal qilinadi). Shundan so`ng sinov o`tkaziladi. O`zlashtirish usullariga o`zgartirishlar kiritiladi. Yakuniy nazoratda o`quvchi-talabalarning bilimlarni o`zlashtirish darajasi baholanadi.

9. Joriy nazorat natijalariga ko`ra o`quvchi-talabalarning o`quv faoliyatiga (ularning bilim va malakalarini o`zlashtirish usullariga) o`zgartirish kiritish. Nazorat natijalariga asoslanib o`quvchi-talabalar faoliyatidagi o`zlashtirish usullariga o`zgartirishlar kiritiladi. O`zgartirish kiritish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1) o`quvchi-talabalar duch kelgan qiyinchiliklarni tizimlashtirish; 2) o`quvchi – talabalar yo`l qo`ygan tipik xatolar va ularning sabablarini tizimlashtirish; 3) o`quvchi-talabalarni oliy ta`lim va umumta`lim davlat standartlari darajasiga olib chiquvchi pedagogik va uslubiy tadbirlar tizimi.

10. Bilim va faoliyat usullarini o`zlashtirish darajasini baholash. O`quvchi – talabalarning bilim va faoliyat usullarini o`zlashtirish darajasini baholashda testlar va reyting shkalalaridan foydalaniladi.

11. Standartlashtirish. O`quv jarayonlarida ta`lim texnologiyalarini qo`llash orqali ma`lum sharoitlarda ko`zlangan natijalarga erishishni kafolatlash.

O`qitish texnologiyasida ham an`anaviy didaktikaga xos bo`lgan ayrim kamchiliklar uchraydi. Masalan:

➤ o`qitishning ayrim masalalarni hal etish uchun faoliyatli yondashuv elementlaridan foydalanish;

➤ texnologiyani loyihalashtirishda yuqori sanab o`tilgan ko`rsatkichlarning faqat bir-ikkitasidan foydalanish va ularni rivojlantirish;

➤ o`quvchi-talabalarning mustaqil ta`lim olish malakasiga “tayanish”, ammo ularni o`qitishga o`rgatish borasida maxsus maqsadlarning yo`qligi.

V.M.Monaxovning pedagogik texnologiya nazariyasi yuqorida sanab o`tilgan ko`rsatkichlarga to`la javob beradi. Undan turli pedagogik obyektlar – o`quv jarayonini, o`qitishning uslubiy tizimini, o`qituvchining kasbiy shakllanishi va boshqalarni loyihalashtirishda foydalanish mumkin.

O`quv jarayonining loyihalashtirish texnologik xarita ko`rinishida birlashtiriladigan beshta blokdan iborat (maqsad qo`yish, tashhis qilish, o`quv jarayonining mantiqiy tuzilmasi, o`zlashtirishlar kiritish, o`quvchi-talabalarning mustaqil o`quv faoliyatini qismlarga ajratish). O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish iqtisodiy ta`lim tizimida talabalarni chuqur bilim olishiga, iqtisodiyot qonunlarini puxta o`rganishga, kasbiy mutaxassislik fanlarini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga yangi talablar qo`ymoqda.

Interfaol metodlardan foydalanib dars o`tganda, o`quvchi – talabalarning alohida va o`ziga xos xususiyatlari to`liq namoyon bo`ladi. Ular ijodiy ishlaydilar, berilgan muammo ustida qo`shimcha manbalar hamda o`z kuzatishlari asosida xulosalar chiqaradilar, yangi g`oya va fikrlar asosida o`zlariga ishonch, o`rtoqlari fikriga hurmat bilan qarash sifatlari tarkib topadi. Bunday darslarda belgilangan maqsad va vazifalar to`liq amalga oshiriladi va yakuniy natija kafolatnadi.

1.3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o`quv jarayonini loyihalashtirish

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o`rganishga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`quvchi faoliyati bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, ilm olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchi, yo`naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o`quvchi – talabaning dars davomida befarq bo`lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanish majbur etishi;

- o`quvchi – talabani o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlashi;

- o`quvchi – talabaning bilimga bo`lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o`quvchi – talabanning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;

Maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o`qituvchi, ham o`quvchi – talabanning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita, ya`ni texnologiyaga bog`liq.

Zamonaviy ta`lim texnologiyasi quyidagi elementlardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi;
2. Ta`lim oluvchi;
3. Ta`lim shakllari;
4. Ta`lim maqsadi;
5. Kutilayotgan natija;
6. Ta`lim metodlari;
7. Ta`lim vositalari;
8. Nazorat va baholash.

Elementlardan eng asosiysi maqsad va kutilayotgan natijalar.

O`quv maqsadi muayyan ta`lim jarayonini yakunida ta`lim oluvchi tomonidan o`zlashtirilishi, ya`ni hosil qilinishi lozim bo`lgan bilim, xatti-harakat bilan bog`liq bo`lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlari va xulqini belgilaydi.

Demak, o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o`qitishning texnik vositalari (O`TV)ni asosiysi, o`quvchi – talabanning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina keraqli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Natija esa baholanmog`i zarur, o`quvchi – talabanning bilimni baholash doimo “Nimani baholamoq kerak?” degan savol bilan bog`liq.

Ta`limni texnologiyalashtirishning asosini, ta`lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida ta`lim oluvchilarni berilgan sharoitda va ajratilgan vaqt oralig`ida loyihalashtirilayotgan o`quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to`liq boshqarish g`oyasini tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta`lim jarayonini tizimlashtirishdan - uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo`yicha aniq elementlarga bo`lib, tanlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

1.4.Didaktik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish

Kadrlar tayyorlash Milliy modelida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o`rganib, ularni o`quv muassasalarida joriy qilish zarurligi qat`iy uqtirilgan. Shunday ekan, pedagogik jamoatchilikning birdan-bir muhim vazifasi rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo`llanib kelinayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshilab o`rganib, o`zining kundalik pedagogik faoliyati va dars amaliyotida qo`llashdir.

O`quv maqsadlariga yetishda qo`llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tom ma`no va mazmunini bilish, uning asosida har bir fanning, har bir darsning loyihasini tuzib chiqish uchun har bir pedagog- o`qituvchi majmular

nazariyasini to'la egallab olishlari zarur. Bizning nazarimizda bu o'rinda "majmua" tushunchasining mohiyatini batafsil yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir. "Majmua" deganda, o'zaro funksional bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topib, bir butunlikni tashkil qiluvchi narsa yoki hodisalarga aytiladi. Obyektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarga majmu deb qarasa bo'ladi. Uyg'unlik nazariyasidan kelib chiqadigan majmuiy yondashuv tamoyilining o'ziga xos, ancha murakkab qonun va qoidalari mavjud.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning an'anaviy dars berish uslublaridan asosiy farqi ham darsni bir-biri bilan funksional aloqadorlikda bo'lgan bir necha qismlardan iborat bir butunlik - majmua deb qarashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud vaziyatlarning uch ko'rinishini keltirish mumkin.:

1. Vaziyat ma'lum. Uni hal etish uchun shunga o'xshash aniq namunalar mavjud bo'ladi. Bunday holatda yechish metodi standartli bo'lishi mumkin.

2. Vaziyat o'xshash. Bunday holatda ana shunga o'xshash vaziyatlar bilan taqqoslash zarur. Ular bir-biriga aynan o'xshash bo'lmasligi mumkin, biroq yaxlit asosga ega bo'lganligi uchun uning ko'rinishini o'zgartirib, qaralayotgan vaziyatga yaqinlashtirib, maqbullashtiriladi va oqilona yechish yo'li topiladi.

3. Noma'lum vaziyat. Bunday vaziyat amaliy faoliyatda uchramaydi. Uni boshqa qandaydir namuna bilan solishtirish imkoni yo'q. Shu boisdan yechimning yangi metodini izlab topish zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishning didaktik maqsadi va istiqbollari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik jamoani zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish - ma'ruza. Adabiyotlar tavsiya etish.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Bu orqali o'qituvchilarga zamonaviy-pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zda to'tilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish:¹²

- seminar;
- trening;
- individual maslahat berish;
- ko'rgazmali darslar tashkil egish.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.

5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodika kengashida, pedagogika kengashlarida chiqishlarini tashkil etish.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materiallar, vositalar xonasini tashkil qilish.

¹²Comparative Education Review. By the Comparative and International Education Society. 1994

7. Zamonaviy texnologiya bo'yicha ishlashning afzalliklarini, o'quvchi-talabalar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanishini oshkor etib borish.

8. Ilg'or, innovator pedagogdan innovator pedagogik jamoani shakllantirish.

9. Yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Didaktika (*didaktikos* – o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi. **“Didaktika”** atamasi ilk bor nemis pedagogi **Volfgang Ratket** tomonidan “Didaktika, yoki ta'lim san'ati” (1613-y.) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy**ning “Buyuk didaktika” (1657-y.) asarida ochib berilgan.

Didaktikaning o'rganish obyekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi (4-rasm).

NIMA UCHUN O'QITISH? KIMNI O'QITISH?	QANDAY ASOSDA O'QITISH?
TA'LIMNING MAQSADI	TA'LIMNING QONUN, QONUNIYAT, TAMOYIL, QOIDALARI
NIMANI O'QITISH?	QANDAY O'QITISH?
TA'LIM MAZMUNI	TA'LIM METODLARI TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI TA'LIM VOSITALARI

4-rasm. Didaktikaning bahs doirasi¹³

Didaktikaning asosiy kategoriyalari

O'rgatish – ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi.

Bilim – biror fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi.

Ko'nikma – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

¹³ <http://www.gks.ru> (I-6).

Malaka – avtomatlashgan holatga o'tgan ko'nikma, takomillashganlikning yuqori darajasi.

Maqsad(o'quv, ta'limiy) – o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

Mazmun (o'qitish, ta'lim) – talabalar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonini predmetli qo'llab-quvvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, jihozlar va boshqalar kiradi.

Natijalar (mahsullar) – o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.


Didaktik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **ta'limning**

ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi:

- **ta'limning**

demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlari mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi; (5-rasm)



5-rasm. Ta'lim jarayonining klasteri¹⁴

Har bir ta'lim muassasa o'z pedagogik jamoasining umumpedagogik tayyorligi, istak va xohishlariga muvofiq zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish strategiyasi va taktikasini o'ziga moslab rejalashtirish mumkin.

¹⁴ http://www.londonexternal.ac.uk/current_students/programme_resources/lse/index.shtml (I-4)

Faol o`qitish metodlari va ularni tashkil etish

Bahsning samarali bo`lishi, eng avvalo, bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog`liq. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati muhim bo`lganligi bois biz ushbu holatlarni keltiramiz:

- Sinf sharoiti. Bu - an'anaviy dars o`tkazish shakli bo`lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko`rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o`qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas'uliyati turlicha. Bu sharoitda bahs o`tkazish mumkin emas. Chunki sinfda oxirgi qatorda o`tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqe - **«Men» - o`yindan tashqarida»**.

- **«Men» - o`yinda»** deb ataluvchi holat: tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o`rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo`ladi, hatto boshlovchi ham «qatorda» o`tiradi. «Ishchanlik o`yinlar» va boshqa rolli o`yinlar ana shunday sharoitda o`tkazilishi mumkin.

- **«Men»- munozarada»** deb ataluvchi bu holat ayni bahs - munozaralar o`tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o`z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to`rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

- **«Men» - hamkorlikdaman»** degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a`zolari to`rt-besh kishidan bo`lib alohida stollar atrofida o`tirib, har bir guruh o`z qarorini chiqaradi. «Munozara» klublari faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Bu keltirilgan har bir holat bahs qatnashuvchilarida o`ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

Agar bahslashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo`lsa, unda munozarani uyushtirishning o`ziga xos tomoni bor. Bu holda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo`linadi. Birinchi guruh - **«fikrlarni jamlovchilar» - generatorlar** guruhi deyiladi; ikkinchisi - **«tanqidchilar»** va uchinchi guruh - **«fikrlarni tezlatuvchilar» - katalizatorlar»** deb ataladi. Har bir ajralgan guruhning o`ziga xos funksiyalari bor: «generatorlar» o`rtaga tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo`yicha o`zlaridagi barcha fikrlarni o`rtaga xolis tashlaydilar.

1.5.Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o`tkazish texnologiyasi

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka», inglizchasiga «brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimasi yo`q, lekin uni «miyaga xujum» yoki «fikrlar to`qnashuvi», «fikrlar jangi maydoni» deb atash mumkin. Bu usulni birinchi marta amerikalik olim **A.Osborn** 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum

yutuqlarni qo`lga kiritgan edi.<sup>15</sup> Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o`ziga xos yechimi bo`lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo`llash mumkin, degan fikrni bildirib boshladilar. Birok to`g`ri tashkil etilgan breyshtormingning amaliy afzalliklari ko`p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Jummlar juda qisqa bo`lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
2. Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir.
3. Mantiqiy fikrlardan ko`ra, fantastik yoki qo`qqisdan, tasodifan miyada paydo bo`lgan fikr muhimroq.
4. Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.
5. Bildirilgan fikr yoki g`oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir.
6. Fikr yoki yaxshi g`oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhnnig norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

¹⁵¹⁵Comparative Education Review. By the Comparative and International Education Society. 1994

2-bob. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH OMILI SIFATIDA

Reja

- 1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifalari.*
- 2. Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar.*
- 3. "Pedagogika tizimi", "ta'lim texnologiyasi", "o'qitish texnologiyasi", "fan uslubiyoti"ning tizimli tashkil etuvchilari va elementlari*

2.1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifalari

YuNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQShda paydo bo'ldi va 70-80-yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmualiy texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi. Hozirgi vaqtda "pedagogik texnologiya ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir" (Mejdunarodniy ejegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya, 1978/79. London, Nyu-York, 1978). Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

- *tushunchaga oid qism* - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yo'l;
- *ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi va harakatlanuvchi tuzilma* - ta'lim jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha;
- *ta'limiy texnologiyalarning konseptual asoslari* - har qanday ta'lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi;
- *maqsadni belgilash* - pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lim jarayonini loyihlashtirish mumkin;
- *ta'lim berish modeli* – maqbul yo'l (usul va shakl)lar va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda obyektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;
- *boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi* - bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

Har bir yo'l va vosita o'qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissasi tomoni bilan baholanishi zarur. Qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e'tiborni nafaqat unga, uni qo'llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, qoidalar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatga ega bo'ladi, madomiki ularni qo'llash mumkin bo'lgan, ta'lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtda ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.¹⁶

Mashhur marketolog Dj. O'Shonessining "...kitoblar hech qachon tajriba o'rnini bosa olmaydi" degan fikriga qo'shilish mumkin. Mahoratli oshpaz oshpazlik to'g'risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo'lga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo'lmaydi - berilgan qoidani ishlatib muhim ko'nikma va malakalar ega bo'lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va "qo'llaniladigan donishmandlik" deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya'ni vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlik" (Dj. O'Shonessi, 2000). Ushbu qo'llanma bilan tanishganingizdan so'ng shu zahoti umidsizlikka tushmang, siz shu zahoti ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtira olmaysiz. Shuni esda saqlangki, qo'llaniladigan donishmandlik kitob bo'yicha formulalarni o'rganishda emas, balki haqiqiy ishni bajarganda hosil bo'ladi (Dj. O'Shonessi, 2000).

"Ta'lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashhislashga yo'naltirilgan"ga o'tish uchun asos zarur (V. Bospalko, 1989). Agarda siz ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga o'tish muhimligini anglamas ekansiz, unda "biz yangi texnologiyalarning yutug'larini bermaylik, paydo bo'lgan muntazamlik mexanizmini chiqarib tashlay olmaydi, yo bo'lmasa majbur qilingan texnologiyalar ziyonli natijalarni ko'paytirishi mumkin".

Nihoyat, shaxsiy ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va mavjud ta'lim berish texnologiyasini qo'llash "o'qituvchi, vaziyat madaniyati, shuningdek shaxsiy yoki talabalarning shaxsiy xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish yo'nalishi bilan ish tutmog'i kerak" (E.S. Polat, 2000). Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari so'rgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan. Bunday didaktik

¹⁶ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

mashina uchun aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun majmualar texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda "pedagogik texnologiya o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir". Barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'lga o'tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

- uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta'lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma'lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini bo'lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

- yakuniy natijani haqqoniy tashhis qila olishga yo'naltirilganligi;

- ta'lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan ta'limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologik jarayonining mukammal, aniq yo'lga qo'yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

- uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta'lim jarayonini boshqaruvchanligi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari mujassamlashgan. Pedagogik texnologiya ko'rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi o'zining aniqligi, isbot talab qilmasligi, amaliyligi tufayli yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi. Uning samarasi zamonaviy rahbar va kadrlar o'rtasidagi muloqotda yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Zero, mutaxassislar bilan teng yoki baravar munosabatda bo'lishni istagan rahbar gumanitar bilimlar, huquq, himoya, yuridik normalar, psixologiya so'nggi yutuqlari va boshqa zarur ma'lumotlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki

ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin¹⁷:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli);
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lam asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsa innovatsiya degan tushuncha shakllanadi.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya mavjud nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo'nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb, innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Innovatsion jarayon pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yori yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2.2. Ta'limni texnologialashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar

“Texnologiya” atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o'zlashtirilganki, bunda “yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o'zgaradi” (A.M. Kushnir, 2004-y.). Texnologiya mohiyati va vazifasi

¹⁷ Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: Fan, 2009. 55-bet.

bo'yicha insonshunosiylik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo'lishidek qabul qilish kerak" (A.M. Kushnir, 2004-y.).

Ta'limga texnologik yondashuv va "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi ma'nosining uzluksiz o'zgarishi

1. "Didaktik mashina" - XVII asrlarda "Ta'lim texnologiyalari" tushunchasi ma'nosi - XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta'lim mexanizmi, ya'ni uni "didaktik mashina" deb nomlab, uning ustida izlanish olib borgan.

2. "Ta'limda texnologiyalar" - "... ma'lumotga ega bo'lish sohasida zamonamizning bo'lagi bo'lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayonlarini qo'llash" (M. Klark). 30-yilning o'rtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946-y. shu yerning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarni ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. 1954-y. - professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo'yicha o'rgatishning muntazamli texnologiyasini o'zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta'lim modeli (DT) asoslandi. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to'g'riligini tezkor baholash va agar keyingi qadamga xatolik bo'lsa qaytarish deb ta'kidlagan pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko'rish (audiovizual) vositalarini qo'llash.

3. "Ta'limiy texnologiya"- TT - "ta'lim texnik vositalari yoki kompyuter sohasidagi" izlanishlar emas; bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li bilan, tuzilmaga keltirish hamda yo'l va materiallarni qo'llash yo'li bilan, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayonini eng maqbullashtirish tamoyillarini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir". (Mejdunarodniy ejegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya – London – Nyu - York, 1978 g. "TTning dastlabki mohiyati pedagogik maqsadlarda muloqot qilishning eshitish va ko'rish vositalari, ko'rsatuv, kompyuter va boshqa turdagi "yumshoq" va "qattiq" vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma'noda esa, ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, butun ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir" (YuNESKO, 1986-y.).

Ta'lim texnologiyasining ilmiy asosi axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, ta'lim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar. Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproyektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi.

Ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha Xalqaro anjumanlarda ta'lim texnologiyasiga umumiy mohiyat taklif etildi. TT qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammolariga tizimli yondashishi. "Birinci soha o'qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirilishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, ya'ni ta'lim muammolariga

tizimli yondashishdir”.

P.D. Mitchel (1970-y.) TT bo'yicha 102 manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma'nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: “Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash”. “TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodi paydo bo'ldi” (M. Eraut).

4. “Pedagogik texnologiya” – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi. 80-yillarda TT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi: “... xorijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti” (Klarin, 1989). TT muammolarini: V.P.Bespalko, V.Guzeev, V. Klarin, V. Monaxov, G. Selevko, S. Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M. Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar.

2.3. “Pedagogika tizimi”, “ta'lim texnologiyasi”, “o'qitish texnologiyasi”, “fan uslubiyoti”ning tizimli tashkil etuvchilari va elementlari

“Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasi o'rtasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi”. Bir qancha uslubiyotlardan “tanlash huquqi” o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki inson to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika “tajribani umumlashtirish” va “omma ijodkorligi” botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya – pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir. Berilgan sharoitda maqbullik – texnologiyani hammabop tizimli belgisi.

“Pedagogika uchun texnologiya ma'nosiga alohida, hech nimaga o'xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma'nosini o'ylab topishga hech qanday sabab yo'q. Mohiyati bo'yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishidek qabul qilish kerak” (A.M. Kushnir, 2004 y.).

TA'LIM – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli xildagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, balki oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi.

TA'LIMNING MAQSADI - mutaxassislikning modeli va davlat ta'lim standartlari talabiga mos shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan iborat. Maqsad asosida ta'lim va tarbiyaning mazmuni belgilanadi. O'qituvchi o'quvchi-talabanning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani hal qilishni unutmazligi kerak.



**TA'LIM - INSON KAPITALINI
TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONI
SIFATIDA QARALISHI MUMKIN. "INSON KAPITALI"
TUSHUNCHASINI BIRINCHILARDAN BO`LIB A.SMIT
ILMIY MUOMALAGA KIRITGAN. BUNDA U "JAMIYAT
A'ZOLARINING DAROMAD OLISH HUQUQINI
BERUVCHI TO`PLAGAN BILIMLARI VA
KO`NIKMALARI"NI TUSHUNGAN.(29-RASM)**

6-rasm. ADAM SMIT.¹⁸

Ta'limga *ehtiyoj* muayyan kasbni o'zlashtirish, ma'lum lavozimni egallash, ma'lum darajada ma'lumot olish, qo'shimcha malakani o'zlashtirish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish istagi bilan belgilanadi. Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi.

Fanni o'qitish uslubiyotidan farqli texnologiya:

- "qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo'shimcha bo'lgan *"natijaviy qanday o'qitish va o'quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?"* degan savolga javob beradi;

- *aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma'lum natijaga yo'nalgan, aniq pedagogik g'oyaga* loyihalanadi;

- o'z natijalarini *qayta ishlab chiqarishi* bilan farqlanadi;

- ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchiga yo'naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o'laroq, ta'lim olishda ularning o'z faoliyatlari hisobiga yutuq ta'minlanishiga yo'naltiriladi.

Uslubiyotchidan farqli o'laroq pedagog-texnolog:

- *tajriba o'tkazmaydi*: u aniq belgilangan natija bilan ish olib boradi;

- ajratilgan vaqt va mavjud sharoitlarda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda gumon hosil qilmaydigan *asoslangan o'qitish modeliga* tayanadi;

- u harakat qiladi, *ta'limiy maqsadlar qo'yilganda, aniq pedagogik vazifalar belgilanganda va ko'zlanayotgan natijalar shakllantirilganda, ta'lim berish jarayonining borish sharoitlari aniqlangandan so'ng harakat qilishni boshlaydi.*

Pedagogik ilm va amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya" va "ta'lim berish texnologiyasi" kabi atamalar keng qo'llanilmoqda. Ularni tushunishda alohida bo'lgan o'qish turlari mavjud. Avvalo, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi va ajratib turishini tushunish uchun "texnologiya" va uning kelib chiquvchilari: "texnologik jarayon", "texnologik harakat", "texnologik xarita", "texnologik tartib" tushunchalarini aniqlash lozim.¹⁹

¹⁸ http://www.londonexternal.ac.uk/current_students/programme_resources/lse/index.shtml (I-4)

¹⁹ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

3- bob. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Reja

1. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.
2. Psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar.
3. Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

3.1. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari

Konsepsiya – umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Ta'lim texnologiyasi aniq pedagogik g'oya asosida ishlab chiqilib, uning negizini quyidagilar tashkil etadi: (1) muallifning aniqlangan metodologik, falsafiy yo'nalishi; (2) pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar hamda pedagogik amaliyot-konseptual asoslari.

O'qituvchilarni o'rgatuvchi ko'p strategiyalar mavjud, ulardan foydalanish auditoriya doirasida harakatlarni rejalashtirish, yuqorida ko'rsatilgan tizimlarni ta'riflaydi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- O'ylash malakalar strategiyalari (De Bono's Six Thinking Hats and Mind Mapping);
- Ko'p marotabali aqliy qobiliyatlar Gardners;
- Blum Taksonomiyasi - Bloom's Taxonomy²⁰ – bilish va emotsional sohalari;
- Tafakkur odatlari (16 qobiliyat) - Art Costa;
- Hamkorlikda o'qitish ;
- Aqliy faoliyatga asoslangan o'rganish.



Amerikalik psixolog-pedagog
Blum taksonomiyasi asoschisi. (8-rasm)
1956-yilda Bendjamin Blum ta'lim
ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni
boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim
bo'lgan aqliy darajalar ketma- ketligini tasniflash
jarayonini rivojlantirgan.

7-rasm. Benjamin Blum (1913-1999)²¹

1956-yilda Bendjamin Blum ta'lim ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim bo'lgan aqliy darajalar ketma-ketligini tasniflash jarayonini rivojlantirgan. Keyinchalik bu taksonomiya degan nom olgan va uchta bir biri bilan o'zaro qo'shilgan sohalar hisoblangan: bilim sohasi,


²⁰Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10p

²¹<http://www.journals.elsevier.com/economic-modelling/>

psixomotor va emotsional sohalar. Bilishga oid sohada asosiy toifalar quyidagi rasmda keltirilgan(9-rasm).

Tushunchalarni bilish: ma'lum faktlar, o'ziga xos xususiyatlar bilan yo'llar va vositalar aloqasi. Shu yerda bilim qanday qilib yodlab olish (eslatuvchi) ma'noga ega, yoki avval o'rganilgan ma'lumot. Aniqlaydi, ta'riflaydi, sanab beradi, identifikatsiya, ro'yxatlar, nomlar, leyblar aytadi, o'qiydi, yozuv qiladilar, qayta tiklaydilar, tanlaydilar, arz qiladilar, tasavvur qiladilar.

Analiz: turli xulosalarni rivojlantirish uchun axborotga oid materiallarni ularni tashkil etuvchi qismlarga ajratadilar, ushbu ma'lumotlarni tadqiqot qilish hamda umumlashtirishni qo'llash uchun sabablar yoki omillarni izlab topadilar, ajratadilar, tuzatadilar, diagrammalar farqlanadi, farqini ajratadilar, namoyish qiladilar, xulosalarni olib chiqadilar, chegaralaydilar, ustuvorligiga qarab ajratib oladilar.



8-rasm. Blum taksanomiyasi²²

3.2. Psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar

Tushunish: axborotga oid ahamiyatli materiallarni tushunish (anglash). Ta'riflaydilar, tasdiqlaydilar, aylantiradilar, muhokama qiladilar, baholaydilar, tushuntiradilar, umumlashtiradilar, misollar keltiradilar, mazmunga ega, xulosa qiladilar, tushunadilar.

Murojaat qilish: avval o'rgangan ma'lumotlarni yangi va aniq vaziyatlarda foydalanish, muamollarni qaysilarida yagona yoki optimal javoblar borligini yechish uchun. Qonunlarni boshqaradi, yorug' aniq ifoda qiladilar, baholaydilar, diagrammalarni hisoblaydilar, quradilar, aniqlaydilar, rivojlantiradilar, topadi, amalga oshiradilar, o'z ichiga oladilar, oldindan tashhis qo'yadilar, tayyorlanadilar, munosabatga ega bo'ladi, xabar beradilar, ko'rsatadilar, yechadilar, foydalanadilar.

Sintez: olingan natijalarni umumlashtirish uchun ijodiy yoki turli yo'nalishlarda avvalgi bilim va malakalardan foydalanib, yangi o'ziga xos original butunlikni yaratish. Moslashadilar, kutadilar, mezonlar bo'yicha tasniflaydi,

²² <http://www.journals.elsevier.com/journal-of-econometrics>

hamkorlik qiladilar, birlashadilar, xabar beradilar, tahlil qiladilar, qarama qarshi qo'yish, loyihalashtiradilar, ishlab chiqaradi, yengillashtiradilar, aniq ifoda qiladilar, amalga oshiradilar, individuallashtiradilar, boshlaydilar, birlashtiradilar, modellarni rejalashtiradilar, taraqqiyot qiladi, tuzilmalarni qayta ko'rib chiqadilar, almashtiradilar, tasdiqlaydilar.

Baholash: materialni qadriyatlar asosida baholash, shaxsiy tashkil etilgan qadriyatlar asosida, mahsulotning natijasini belgilaydi, to'g'ri yoki noto'g'ri javob berishini aniqlashdan iborat. Baholaydilar, tahlil qiladilar, qarama-qarshi qo'yadilar, tanqid qiladilar, tanqidiy tahlillar tuzadilar, hal qiladilar, himoya qiladilar, interpretatsiya, takroran rivojlantiradi, korreksiya, qo'llab-quvvatlashadi.

Ko'p marotabali qobiliyatlar (GARDNER'S)

Gardner qobiliyat tushunchasini “ muammolar bo'yicha qaror qilishga ega yoki bitta yoki ortiqroq ko'rsatkichlarga ega narsalarni sozlash madaniyati” deb belgilaydi (Gardner & Hatch, 1989). Madaniy va biologik tadqiqotlardan foydalanib u yettita qobiliyatdan iborat ro'yxatni ifodaladi. Gardner ularni quyidagicha aniqlaydi:

Govard Gardner 1943-yilda tug'ilgan,
amerikalik psixologiya va
neyropsixologiya
bo'yicha mutaxassis



9-rasm. Govard Gardner²³

1. Mantiqiy-matematik qobiliyat – namunalarni topishdan iborat bo'lib, deduktiv va mantiqan o'ylash sababi. Ushbu qobiliyat ko'pincha ilmiy va matematik tafakkur bilan bog'liq.

2. Lingvistik qobiliyat – tilga ega mahorat borligini o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyat tilni samarali boshqarishni nazarda tutadi, ritorik yoki she'riyat usulda gapirish uchun. Bu hamda tildan ma'lumotni esda to'tish vositasi sifatida foydalanish mumkinligini anglatadi.

3. Fazoviy qobiliyat – muammolarni yechish uchun bittaga boshqarish va aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyatini beradi. Ushbu qobiliyat vizual sohalar bilan cheklanmagan; Gardner belgilaydi, fazoviy qobiliyat ko'r bolalarda ham yaxshi shakllangandir.

4. Musiqali qobiliyat – musiqiy tovushlar, ritmlar va topshirishlarni tuzish va tanish qobiliyatni o'z ichiga oladi (odamda ushbu qobiliyatni o'stirish uchun eshitishga oid funksiyalar talab qilinadi, tovushni bilishga nisbatan, ritm zarur emas).

²³ <http://www.journals.elsevier.com/econometrics-and-statistics/>

5. **Jismoniy-kinestatik qobiliyat** – xususiy badan harakatlarini aqliy qobiliyat orqali moslashtirish hisoblanadi. Ushbu qobiliyat keng tarqalgan fikrga qarshi chiqadi, nimaga aqliy va jismoniy faoliyat o'zaro bog'lanmagan.

6. **Shaxsiy qobiliyatlar** – o'z ichiga o'zaro bog'langan his-tuyg'u va boshqalar maqsadlarini oladi, va chuqur shaxsiy qobiliyat – xususiy his-tuyg'ular va istaqlarni tushunishni ifodalaydi. Bu ikki qobiliyatlar bir-biridan alohida deb hisoblanadi. Biroq, ko'pchilik madaniyat va o'xshashligi tufayli ular tez-tez ulanadilar.

7. **Tabiat qobiliyati** – tabiiy mavjudodlarni tanimoq insoniy qobiliyati deb aniqlaydi (zavodlar, hayvonlar) va shu bilan boshqa o'ziga xos tabiiy dunyoning xususiyatlarga sezuvchanligi (bulutlar, tog'li konfiguratsiyalar).

Garchi ushbu qobiliyatlar anatomik bir-biridan ajratilgan bo'lsa ham, Gardner tasdiqlashicha, “qobiliyatlar juda ham kamdan-kam alohida ishlatiladi. Odamlar malakalarni rivojlantirishda yoki muammolarni hal qilishda qobiliyatlardan bir vaqtning o'zida foydalaniladi va bir- birini qo'shimchalar bilan to'ldiradilar”.

Ta'limiy ahamiyat:

Pedagoglar uni tan olish keraqligi va keng diapazon iste'dod va malakalarini ko'proq o'qitish keraqligini nazarda tutadi. Boshqa ahamiyatli tomoni, pedagoglar tomonidan berilayotgan materiallar hamma qobiliyatni talab qiladi, shuning uchun ham ularni tizimli usulda berishi shart. Qobiliyatlarning keng to'liq to'plami faollashtirib, ushbu harakat tarzida ta'lim berib, materialni chuqur tushunish jarayonini yengillashtirish mumkin.

Ko'p martali qobiliyat nazariyasi

Hamma talabalar auditoriyaga turli xildagi rivojlangan qobiliyatlar bilan keladilar. Qachonki ma'lumotlarni o'rganish uchun o'ziga xos harakat tarzida berilsa, bu materiallar talaba uchun yengil (yoki qiyin) oydinlashadi. Odatda, bu **qanday uslubda** o'rgatiladi deb eslatib o'tiladi.

Ko'p ta'limiy uslublar auditoriyada yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchi mazkur usulni amaliyotga to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashga imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Chunki, bu usullar auditoriyada yuzaga kelgan. Biroq, o'qituvchi talabalarga rivojlangan qobiliyatdan foydalanishni narsani tushunishda ular kuchsiz qobiliyatdan foydalangan holda tushuntirishi mumkin. (Lazear, 1992).

Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish

Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish (from Caine & Caine: Reinventing Schools through Brain Based Learning, Educational Leadership, 1995)(10-rasm) .



10-rasm. Tafakkurlash timsoli²⁴

²⁴ . www.ziyounet.uz

Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish nusxa ko'chirishni muhimligini ta'kidlaydi, ya'ni haqiqatdan ham miya buyumlarni mantiqqa mos emas yoki hech qanday ahamiyatga ega emasligini osonlik bilan o'rganmaydi. Modomiki, bizning tabiiy moyillik axborotni birlashtirishdan iborat bo'lsa, biz ajratib qo'yilgan ma'lumotlarni o'rganishga qarshilik ko'rsatamiz. Chunki o'ziga xos yo'riqnomalar xususiyatlari doimo katta maqsadlarga bog'lanadilar, o'qituvchilar va talabalar murakkab tarixiy mavzular va metaforalardan foydalanishlari lozim.

Ta'lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar asosida tuziladi. Pedagogikada bu yo'nalishning asosiy farq qiladigan jihati shundaki, ta'lim oluvchining o'zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo'naltirilgan, ularning xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan har bir ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga bog'liq hisoblanadi.

3.3. Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim

1-jadval

Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish shartlari
Shaxsiy yondashuv quyidagilarni anglatadi: - ta'lim berish jarayonini tuzish va amalga oshirishda shaxsga maqsad, subyekt ustunligi, natija va uning samaradorligini asosiy mezondek yo'naltirish; - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishi; - ta'lim berish jarayonini insonparvarlashtirish va tabaqalashtirish: kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha Davlat Ta'lim standartlari talablariga rioya qilgan holda ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanish yo'lga yo'naltirish; - ta'lim oluvchilarni psixologik-kasbiy va shaxsiy xususiyatlari va qobiliyat-larini hisobga olish;	Ta'lim oluvchi shaxsni har tomonlama erkin va ijodiy rivojlanishi uchun qulaylik, ziddiyatsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirish. Ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi shaxsini qabul qilish: uning maqsadlari, hayajonlari, qiziqishlari, qarashlari, munosabatlarini tushunish, ularni xuddi qimmatlidek tan olish, unga, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonish. Ta'lim berish texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ushbu bilim sohasida o'qimishlilik darajasi va shaxs madaniyatining umumiy rivojlanish darajasi; - ta'lim oluvchining psixologik-fiziologik xususiyati; - har bir ta'lim oluvchi uchun ta'lim o'quv dasturlariga nisbatan shaxsiy xususiyat va o'qitish ta'siri ostida uning rivojlanish o'zgaruvchanligi, uning imkoniyatlariga mos ravishda moslashadi; - unga o'zining bilimiga, o'zini aniqlay olishi, o'zini rivojlanishi va o'zini amalga oshirishiga yordam ko'rsatish. Ta'lim oluvchining rivojlanish va so'nish istiqbollarini aniqlash, undan so'ng esa to'g'rilash uchun, uning shaxsiy rivojlanishini obyektiv nazorat va tashhis qilish. Ta'lim oluvchini nafaqat kasbiy sifatda, balki shaxs sifatida rivojlanishining umumpedagogika malakalarini rivojlanishi texnologiyalari ishlab chiqish va amalga oshirish.

- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatining shaxsiy qiziqishlarini ta'minlash	Bu maqsadga, o'qitish va shaxsiy rivojlanish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi uchun hayotiy va kasbiy mohiyatga ega bo'lganda, ushbu faoliyatga mustahkam qiziqish uyg'onganda, o'qitish va rivojlanish shaxsining hayotiy ehtiyojiga aylangandagina erishilgan deb hisoblash mumkin.
---	--

2 -jadval

Ta'limga faoliyatli yondashuv va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Faoliyat-shaxsning rivojlanishida asos, vosita va hal qiluvchi shart. Bu ta'lim oluvchi shaxsining jarayonli sifatlarini shakllantirish, uning harakat-larini faollashtirish va jadallashtirishni, o'quv jarayonida uning barcha imkoniyati, tirishqoqligi va g'ayratini kengaytirishni yuzaga keltiradi Faoliyat – o'zlashtirish obyekti Ta'limga shaxsiy va rivojlantiruvchi yondashuv bilan o'zaro aloqada bo'lganda amalga oshadi	Ta'lim beruvchi vazifasining o'zgarishi: nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarni ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash, o'zgartirishga, hayotiy muhim vazifalarini hal etishda qo'llash, barcha hayotiy yo'li davomida bilimlarini tezkor yangilash va to'ldirishni o'rgatish. Buning uchun o'qituvchi barcha to'g'ri yechimlarning birinchi toifadagi namoyishchisi bo'lmasdan, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi va nazoratchisi bo'lishi kerak; bilimlarni kyetkazishning kam samarali og'zaki yo'llarini kamaytirishga keltirish. Ta'limning juftlik va guruhli tashkil qilish shakllarini amalga oshirish orqali jarayonda dialog va polilogda o'zgaruvchan tomonlarda ta'lim oluvchining yuqori faolligini ta'minlash; bashoratlash, rejalashtirish va o'quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha ta'lim oluvchilar mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash

3-jadval

Ta'limga suhbatli yondashuv va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Ta'lim jarayonini ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi suhbatdek tuzishni ifodalaydi hamda dasturiy faoliyatni hamkorlikda tuzishga yo'naltirilgan. Shaxsiy va faoliyati bilan birgalikda insonparvar pedagogikaning metodologiyasi mohiyatini tashkil etadi. Ularni umumiylikda qo'llash quyidagilarni yaratadi: -ta'lim jarayoni ishtirokchilari subyektlarini psixologik birligi va o'zaro harakati tufayli "obyektli" ta'sir	Ta'lim beruvchi vazifasi: - ta'lim oluvchilar bilan teng huquqli tomonni o'rnatishi; - shunchaki o'qitish emas, ta'lim oluvchilarni rivojlanishga, uning o'zi harakatlanishiga sharoit yaratishga rag'batlantirish; - ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni mustaqil rejalashtirish qobiliyatini va uni yechish yo'llarini taklif etish, olingan natijalarni baholash yoki tekshirishga olinishiga tayyorgarlikni shakllantirish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: vaziyatli loyihalash; fikr-izlanishli suhbat;

etish ijodiy o`zaro rivojlanish va o`zi rivojlanish jarayoniga o`z o`rnini beradi; -ta'lim jarayoni ishtirokchilari erkinligini oshirish; -shaxsning o`zini-o`zi faollashtirishi va o`zini-o`zi amalga oshirishi	hayotiy muammolar matniga o`quv topshiriqlarini kiritish; ta'lim oluvchilarda mustaqillik, mustaqil o`qish, o`z taqdirini o`zi belgilashga, o`zini-o`zi amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish
---	--

4-jadval

Muammoli ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol o`zaro harakatini tashkillashtirish yo`li bo`lib, bunda taqdim etilgan muammoli ta'lim mazmunini yechishda ular munozara yuritadilar, fikr yuritishni o`rganadilar, bilimlarni ijodiy o`zlashtiradilar.</p> <p>Alohida fikrlashni, bilimlarni mustahkamlash va amaliy faoliyatda ijodiy qo`llashni ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy intilishlari, bilish qiziqishlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ta'lim oluvchilarning dialektik fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishiga yordam beradi	Ta'lim oluvchilar oldiga tartibli va maqsadga yo`naltirilgan muammolarni ilgari surish, ularni ta'lim beruvchi rahbarligi ostida hal etib, yangi bilimlarni faol o`zlashtiradilar. Yo`nalish bo`yicha mustaqil ijodiy bilish faoliyatini ta'minlash: muammoli vaziyat → muammoni shakllantirish → uni hal etish yo`li → muammoni yechish → yechimni tekshirish

5-jadval

Ta'limni tashkillashtirishga tizimli yondashuv va uni amalga oshirish sharti

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Ta'lim texnologiyasi to`g`risidagi tushuncha pedagogik tizimning aniq bo`lgan butun (tuzilmaviy va mazmunli) tarkibini bildiradi.	Ta'limiy texnologiyani oldindan maqsadini belgilash va faoliyat natijalarini shakllantirishdan to pedagogik va ta'lim olish jarayon yo`lining tashhis va nazorat tizimini tuzishgacha loyihalashtirish. Bu nafaqat qo`yilgan maqsadga erishish kafolatini ta'minlaydi, balki ko`rsatilgan jarayonlarni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan kelib chiqadigan oqibatlarining oldini oladi, o`quv-tarbiya faoliyati davomida to`g`rilash ehtimolini bartaraf etadi

Hamkorlikda ta'lim berish va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Shaxsga yo'naltirilgan g'oyalarni namoyon qiladi: (1) har bir ta'lim oluvchilar tomonidan BMK, ularning shaxsiy xususiyatlarining rivojlanish darajasiga muvofiq egallashi; (2) muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: birga faoliyat olib borishni o'rgatish, ta'lim olish va yaratish, har doim bir-biriga yordamga kelishga tayyor bo'lish, omad quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik alaming bo'lish. Topshiriqni nafaqat birgalikda bajarish, balki birgalikda o'rganish; musobaqa emas, balki hamkorlikda. Hamkorlikda ta'lim olishni tashkillashtirishning asosiy tamoyillari: -bir topshiriq bir guruhga; -rag'batlantirish hamma uchun; -o'z omadi va boshqa guruh omadlari uchun har bir shaxsning mas'uliyati; -hamkorlik faoliyati; -muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar	Maqsadni belgilash jarayonida amalga oshiriladi. Mustaqil individual ish → guruhlarda hamkorlikdagi ish- hamkorlikda ta'lim berishda bilish jarayonining dialektik o'zaro bog'liqligi shundan iborat. Ta'lim beruvchi vazifasining o'zgarishi: ta'lim oluvchilar bilan (ommaviy emas!) yangi o'zaro harakatga tayyorgarligi va qodirligi. (1) shaxsiy tenglik va hurmat, to'laqonli muloqot va o'zaro tushunishga o'tish, (2) ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro harakatining yangi shakllari: ta'lim beruvchi → guruh → ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilar → ta'lim oluvchilar. -topshiriqni bajarish uchun guruhga bir topshiriq beriladi; -guruh hamma uchun yagona, hamkorlikdagi ish baholari jamlanishi, (umumiy natijaga erishish uchun guruhdagi barcha ta'lim oluvchilar harakati baholanadi), shuningdek har bir ishtirokchining shaxsiy qo'shgan hissasidan kelib chiqadigan bahoni oladi; -o'zaro harakatni tezlashtirish yo'llari, ya'ni guruhli bahs, hamkorlik, o'zaro yordam, hamkoriy faoliyat; -har bir ta'lim oluvchi shaxsiy muvaffaqiyatlarini takomillashtirishga, madomiki boshqalar bilan birga baho olsa, ta'lim olishda shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

4-bob. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH VA REJALASHTIRISH YO`LLARI

Reja

- 1. O`quv fani bo`yicha ta`lim texnologiyasi tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari*
- 2. O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi bo`yicha o`qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi*
- 3. Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari.*

4.1. O`quv fani bo`yicha ta`lim texnologiyasi tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o`rganishga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`quvchi faoliyati bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, ilm olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchi, yo`naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

Ta`lim texnologiyasi – ta`lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo`yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o`quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta`lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalashtirishni o`z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o`quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo`lishini ta`minlaydi. Innovatsion (inglizcha innovation) – yangilik, kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi-talabalar faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlaridan to`liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari ta`lim mazmunini tarkibiy qismlari bo`lib hisoblanadi. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagogik o`quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

➤ o`quvchi-talabaning dars davomida befarq bo`lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanish majbur etishi;

➤ o`quvchi-talabani o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlashi; o`quvchi-talabaning bilimga bo`lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondoshgan holda kuchaytirishi; pedagog va o`quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarining eng asosiy negizi o`qituvchi va o`quvchi-talabalarining hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog`liq

Har bir dars mavzusi, o`quv predmetining o`ziga xos texnologiyasi bor, ya`ni o`quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalar – bu yakka tartibdagi jarayon bo`lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo`naltirilgan oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ya`ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unga qo`yilgan maqsadga erishish kafolatini berishi o`quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

O`quv jarayonining loyihalashtirishda ta`lim mazmunini, maqsadini, o`tilayotgan natijani to`g`ri belgilash, ta`lim metodlari, shakllari va vositalarini to`g`ri tanlash, talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg`ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to`g`ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg`unlashuviga e`tiborini qaratish lozim. O`quv maqsadi – bu muayyan ta`lim jarayonini yakunida ta`lim oluvchi tomonidan o`zlashtirilishi, ya`ni hosil qilinishi lozim bo`lgan bilim, xatti-harakat bilan bog`liq bo`lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqini belgilaydi. O`qituvchi va o`quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyoriga, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`quvchi-talabaning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishishi uchun balki kompyuter bilan ishlashi lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular o`qituvchi va o`quvchi-talabalarga bog`liq. Demak, o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o`qitishning texnik vositalari (O`TV)ni asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina keraqli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Natija esa baholanmog`i zarur, o`quvchi-talabaning bilimni baholash doimo “Nimani baholamoq kerak?” degan savol bilan bog`liq. Bunga “o`qitish va o`rgatish maqsadi va vazifalariga erishganlik darajalarini baholash” deb javob berish zarur. Bu holda maqsad o`qituvchining faoliyatiga qaratilganligi (o`rgatish, tushuntirish, ko`rsatish, gapirib berish va hokazo), vazifalarga esa o`rgatish natijalari kiritilganligi foydaliroq. Agar vazifalar aniqlangan bo`lsa, unda o`quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Bular og`zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo`lishi mumkin.

Ta`lim oluvchilarni baholashda mezonli baholash shaklidan foydalaniladi. Ushbu baholash-baholanuvchining ta`lim jarayonida qo`lga kiritilgan natijalarini bilish, ko`nikma va malakalarini oldindan belgilangan o`quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko`ra taqqoslash va o`lchashdan iborat bo`lgan baholash shaklidir. O`qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilishi, uni tasavvur etish uchun bo`ljak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o`qituvchiga u tomonidan bo`ljak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi muhim ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Har bir darsni

rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq.

Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi. Demak, o'quv jarayonining texnologik xaritasi dars jarayonidagi faoliyatni loyihalashtirish, dars mazmunini boyitish va ta'lim samaradorligini oshirishdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitda va ajratilgan vaqt oralig'ida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasini tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib, tanlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- iqtisodiyot OO`Yu da ta'limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo'yicha o'quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o'quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta'lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

1. Kirish.

Ta'lim texnologiyasining bu qismida iqtisodiyotning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta'lim berishni texnologiyalashtirishning *dolzarbligi* asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim berish texnologiyasiga qisqa tavsiflar beriladi.

2. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.

TTning bu qismida quyidagilar yoritiladi:

- *o'quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiy hajmi* va o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq *ularning mavzular bo'yicha taqsimoti, ish turlari*;
- *o'quv fanining mazmuni*, o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o'quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;
- *o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari* - ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning asosi bo'ladigan, ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.

3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim texnologiyasi.

Har bir ta'limiy texnologiya ta'lim texnologiyasi modeli, ta'limning texnologiya xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo'ladi.

4.2. O`quv mashg`ulotida ta'lim texnologiyasi bo'yicha o`qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg`ulotning **ta'lim modeli** jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o`quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o`quv mashg`uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o`quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- *tanlangan ta'lim modeli*: *usullar, shakllar va o`qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og`zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o`quv topshiriqlari va boshq.).

O`quv mashg`ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o`quv mashg`uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O`quv jarayonining tashkiliy-didaktik vazifasini bajaradi: o`quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o`quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

7-jadval

O`quv mashg`ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni: ...</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq.), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg`ulot
<i>Ma'ruza rejasi / o`quv mashg`ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O`quv mashg`uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar

<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mavzuiy rejadani farqli o'laroq texnologik xaritada (1) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati; (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari; (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

4.3. Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari.

1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshq.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

- Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

- Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

- Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.


O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta`lim beruvchi	ta`lim oluvchilar
1-bosqich. O`quv mashg`ulot i-ga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg`ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxatini aytadi. 1.3. O`quv mashg`ulotida o`quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so`rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma`ruza/ seminar/ amaliy mashg`ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta`lim jarayonini tashkil etish bo`yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1.Mavzu bo`yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e`tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o`quv mashg`ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .	O`z-o`zini, o`zaro baholashni o`tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

Nihoyat, ko`plab texnik boshqa kichik sohalar mavjudki, ular mazkur matn bo`ylab tanishtirilib boriladi. Bir nechta pedagogik va texnik loyihalash mavjud: o`rganish uchun kognitiv qurollar, kompyuter asosida til o`rganish, kompyuter asosida baholash tizimlari, kompyuter asosida amaliyot, kompyuterga mo`ljallangan kommunikatsiyalar, kompyuter qo`llaydigan birgalikdagi o`rganish, tarqatma o`rganish muhitlari, elektron ishni qo`llovchi tizimlar, interfaol o`rganish muhitlari, interfaol multimediya tizimlari, interfaol rag`batlantiruvchi va o`yinlar, ongli internet vakillari, ongni o`qituvchi tizimlar, mikroso`zlar va o`rganish tizimlariga asoslangan virtual haqiqat. Bundan tashqari, tadqiqotchilar akademik tadqiqotni amaliyotdan o`tkazish uchun uning qanday ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatish uchun turli vositalar qo`llaydilar.

Boshiga, konseptualdan tortib, texnikkacha bo`lgan darajalar seriyasini belgilab olish zarur: (12-rasm)

1. Fundamental tadqiqot: Ko`plab soha tadqiqotchilari “multimediya animatsiyalari ko`proq qaysi sharoitda samarali bo`ladi” kabi kichik yaxshi aniqlangan muammolarga yo`naltirilgan yanada fundamental tadqiqotni qo`llashni tanlashadi.



11-rasm. Konseptualga qarshi texnik tadqiqot²⁵.

Ta'limdagi turli domenlarga qo'llanilgan texnologiya tomonidan qo'llanib turiluvchi instruksional loyiha. Katta toifalar – masofaviy o'qitish, qo'shma o'qitish, kompyuterga asoslangan sinfda o'qitish, sanoatga oid amaliyot. Boshqa ixtisosliklar fanlarga tegishli bo'lishi mumkin (misol uchun, fan yoki tilni o'qitish), yoki yondashuvlar (bevosita instruksiyaga qarshi loyihaga yo'naltirilgan o'rganish kabi).


3. **Texnologiyalar loyihasi va qo'llanilishi ustidagi tadqiqot.** Tadqiqotchilar kompyuter vositalarini ta'limda qo'llash kabi fanlarga yo'nalib, texnik nuqtai nazardan, ular uchun mualliflik va o'rganish muhitlarini qurishga ixtisoslanishlari mumkin.

O'rganilayotgan fanlar instruksional loyihaga qarshi. Masalalarni kelgusi murakkablashuvi uchun, ayrim tadqiqotchilar fundamental tadqiqotni instruksional loyihalashning ma'lum bir turi va texnologiyaning ma'lum bir turi bilan umumlashtiradilar. Bunga qarab, ushbu opsiyalar, tadqiqot qiziqishlari va tadqiqot metodologiyasi bir xil bo'lmaydi. Ehtimoliy umumlashtirishlar, biz balki ikkita yirik yo'nalishni ajratib olishimiz mumkin:

- Ta'lim texnologiyasi o'rganish fanlarining bir qismi sifatida. Tadqiqot zamonaviy o'rganish nazariyalari bilan to'ldirilib uni yaxshilaydi. Bu yo'nalish o'z ichiga kompyuterga asoslangan birgalikdagi o'rganish, ongli o'qitish tizimlari, har tomonlama hisoblash kabi tadqiqot vositalarini oladi.

²⁵ Schneider D.K. Intraduction to Educational technology. 19-p.

- Ta'lim texnologiyasi – instruksional texnologiya sifatida. U instruksional loyihalash nazariyasi va metodologiyasini to'ldiradi va uni yaxshilaydi. Bu yo'nalish o'z ichiga internet orqali o'rganish, masofaviy o'qitish, multimediya dizayni kabi tadqiqot vositalarini oladi.



12-rasm. O'rganish nazariyasi va pedagogikasidagi fundamental tadqiqotga aloqadorlik²⁶

²⁶ Schneider D.K. Intraduction to Educational technology. 18-p.

5-bob. TA'LIM USULI – TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBIY TASHKIL ETUVCHISI

Reja

1. O`qitish metodlari: mohiyati va tasniflari.
2. O`qitish metodlarining xususiyatlari.
3. O`qitish metodlarining tanlash omillari. Reproduktiv o`qitish metodlari. Produktiv o`qitish metodlari.
4. O`quv mashg`ulotni o`tkazishda faol va interfaol o`qitish modeli.

5.1.O`qitish metodlari: mohiyati va tasniflari.

O`qitish metodlari deganda, o`qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko`nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo`ladi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – **og`zaki metod** (og`zaki bayon, tushuntirish, suhbat), **kitob bilan ishlash** (instruktiv materiallar), **ko`rgazmali metod** (ko`rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), **amaliy metod** (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog`liq holda esa quyidagi metodlar qo`llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo`llash, mustahkamlash, bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish.

Ta'lim oluvchilarning o`quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O`qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari*, eng avvalo, o`quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, o`quvchilarning o`quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo`llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o`qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, u asosiy e'tiborini mustahkam o`zlashtirib olinishi zarur bo`lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o`qituvchi muayyan ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Muammoli-izlanish ta'lim deyilganda, o`quv materialini o`quvchilar ongida ilmiy izlanishga o`xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo`ladigan qilib o`rganish tushuniladi. O`quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to`g`ri, ilmiy xulosalarni izlash va o`zlashtirishga rag`batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo`layotgan muammoni hal qilish uchun, u o`rganilayotgan qoidalarni to`g`ri tushunib olishga intiladi.

Ta'lim metodlari.

Metod yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- 1) Maqsadni belgilash.
- 2) O'quv axborot mazmuni.
- 3) O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.
- 4) Yetakchi bilim manbai.

5.2. O'qitish metodlarining xususiyatlari.

Birinchi guruh ta'lim usullari- (I guruh)

Birinchi guruh ta'lim usullari: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1- darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar.

Ma'ruza – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi. Usulning asosiy vazifasi - ta'lim berish. *Belgilari:* qat'iy tuzilma, og'zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi. Ma'ruzalar muhim lahzalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Hikoya, tushuntirish - hodisa, voqea, haqiqat to'g'risida o'qituvchining monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o'rganayotgan materialga qiziqishni uyg'otish uchun qo'llaniladi. Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy yetkazib berish, san'atkorona, ta'sirchan bayon qilish.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini xona doskasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o'quv materialini bayon qilish

Yo'riqnoma berish – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil usul bo'lib, u talabalarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish yo'llarini, amaliy topshiriqlarni yechish talablarini, ko'nikmalardan iborat harakatlar tartibini, ma'lum turga xos bo'lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo'llashni tushuntirish. *Texnologik va yo'riqnomaviy – texnologik xaritalar* o'quv-ishlab chiqarishli ishlarni bajarishda qo'llaniladi. Ular texnologik izchillikdan tashqari, texnologik talab, tartib, umumiy ishlarni bajarish vositalari, ishlarni bajarish qoidasining yo'riqnomali bayonidan iborat bo'ladi.

Namoyish - ta'lim oluvchilarni obyekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko'rinishda ko'rgazmali-hissiy tanishtirish. Namoyishni ko'rib chiqilayotgan obyekt yozuv taxtasida sxemali rasm chizish yoki ko'rsatish, chizmalarni chizib olib borish mumkin, bu namoyish etilayotgan obyekt asosidagi tamoyillarni tushunishni yengillashtiradi. Namoyish usulining ta'limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta'minlaydi: • obyektlarni to'g'ri tanlash; • ta'lim oluvchilar e'tiborini namoyish qilayotgan hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirish; • ta'lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obyekt yaxshi ko'rishlari va imkon bo'yicha nafaqat ko'z, balki barcha sezish a'zolari bilan qabul qilish; • ta'lim oluvchilar e'tiborini imkoni boricha o'rganilayotgan obyektning muhim tomonlariga jalb etish; • ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan obyekt sifatlarini mustaqil baholash.

**Ko`rsatish** narsa, jarayon va hodisalarni ularni tasviriy ko`rinishda ko`rsatish va qabul qilishni ko`zlaydi. Bu usulning asosiy vazifasi - o`rgatish. Ko`rsatishning vositalariga sxemalar, jadvallar, rasmlar, sur`atlar, albomlar, xaritalar, yassi modellar xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh ta'lim usullari (II guruh)

Ikkinchi guruh amaliy ta'lim usullari: esda qolganlarni tasvirlovchi o`quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko`nikmalarni 2-darajada o`zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

Kitob bilan ishlash usuli: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi. Ta'lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin: o`quv mashg`ulotida sizning rahbarligingiz ostida; uyda mustaqil. Agar ish o`quv mashg`ulotida olib borilsa, unda kitob bo`yicha o`rganadigan materialni biz alohida qismlarga bo`lamiz va ularni nazorat qilamiz.

Laboratoriya usuli shunday usulki, bunda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo`yicha tajribalar o`tkazadilar yoki amaliy topshiriqlarni bajaradilar, shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab etadilar. Usulning asosiy vazifalari - o`rgatish va rivojlantirish. Bu usul ta'lim oluvchilarga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi: jihoz bilan ishlash malaka va ko`nikmalarini egallash; ma'lum bo`lganlarni tekshirish va mustaqil tadqiqot yo`llarini tanlash; amaliy malakalarni egallash: o`lchash va hisoblash; natijalarni qayta ishlash va avvalgilari bilan solishtirish.

Mashq - o`rganilayotgan materialni amaliyotda qo`llash maqsadi bilan muntazam tashkillashtirilgan ko`p takrorlanuvchan harakat-mashq deyiladi. Usulning asosiy vazifasi - ta'limiy va rivojlantiruvchi. Mashqning quyidagi turlari mavjud: maxsus; sharhlashga oid; yozma; og`zaki; ishlab chiqarish.

Uchinchi guruh ta'lim usullari- (III guruh)

Uchinchi guruh ta'lim usullari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o`quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko`nikmalarni 3-darajada o`zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

Suhbat – dialogli (yunoncha: dialogos - ikki yoki bir necha insonlar orasidagi so`zlashuv), ta'lim berish va o`rganishning savol-javobli yo`li. Usulning yetakchi vazifasi - qiziqtirish: maqsadga yo`naltirilgan va mohirona qo`yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda berilgan mavzu bo`yicha o`zlarining bilimlarini eslash va bayon qilishga harakat qilinadi, o`qituvchi rahbarligida boshqa ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar o`qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo`li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o`zlashtiradilar.

Bahs (munozara) - aniq muammo bo`yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi. Munozara erkin bo`ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo`lishi mumkin. U faqat o`zlashtirish lozim bo`lgan mavzu va savollarga taalluqli bo`lishi kerak.

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to`zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g`oyasini jamoaviy yuzaga keltirish. Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida

murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalari yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi. Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob. Insert - o'zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

Matnda belgilash tizimi

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - mening bilganlarimga zid belgisi;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi.

Pinbord (inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta'lim beruvchi:→ Taklif etilgan muammoni yechishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi. → Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib: aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar; tortishuvlarni aniqlaydilar; g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar; shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:→Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Ta'limiy o'yin - Ishbilarmon va rol (holat)li o'yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o'rniga, ta'lim oluvchilar tomonidan o'ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi O'qitish usuli sifatida u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **o'rgatuvchi:** umumo'quv malakalarni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, shu jumladan, tushunish, yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish;

- **rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini rivojlantirish;

- **motivatsiyali:** ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosa qabul qilishini rag'batlantirmoq;

- **tarbiyalovchi:** mas'uliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O'yin usullari va dars shaklidagi mashg'ulot holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda sodir bo'ladi:

- didaktik maqsad ta'lim oluvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;
- o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv material o'yinning vositasi sifatida ishlatiladi;
- o'quv faoliyatiga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa bo'lagi kiritiladi;

- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Ishbilarmon o'yinni rolli o'yindan farqi nimada?

Ishbilarmon o'yin ishtirokchilariga hayotiy holatda qurilgan o'yinli syujet taklif qilinadi, bunda ishtirokchilar oldiga yagona umumiy maqsad: taklif etilayotgan muammoni yechish qo'yiladi.

Rolli o'yin, ishbilarmonlik kabi vaziyatda ko'rsatilgan, muammoni yechishda ishtirokchilarning faol birgalikdagi harakatlariga asoslanadi. Mavzu qatnashchilarining bitta majburiy maqsadlari bor - muammoni yechish. Lekin alohidalik maqsadlar, ishbilarmon o'yindagi kabi kelishib olinmaydi.

Vaziyatlar usuli – ta'lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan tuzilgan

Usulning yetakchi vazifalari quyidagilardan iborat: O'rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan; Rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko'ra bilishini shakllantirish; Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko'nikmalarni shakllantirish.

To'rtinchi guruh ta'lim usullari - (IV guruh)

To'rtinchi guruh ta'lim usullari: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar.

Loyihalar usuli - bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualar o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonining o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

Keys-stadi - Ta'lim berish vaziyati- **keys-stadi** (case ingliz.- to'plam, aniq vaziyat, stadi- o'rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta'lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq yechim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi. **Keys** - ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo'naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashidan olingan ma'lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat. (2) qo'shimcha axborotlardan, jumladan audio, video va elektron yetkazuvchilar va o'quv-uslubiy materiallardan iborat.

O'qitish vaziyatining dolzarbligi

Aniq vaziyat ta'lim berishni haqiqiylikka bog'laydi: keys ta'lim oluvchilarga vaziyatni tashhis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish bo'yicha aniq bosqichlarni loyihalashda amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Keys ta'lim oluvchilarga tahlil ilish, tenglashtirish yo'llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi. Keysni ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonini yaratadilar va jarayonda o'zaro harakatda haqiqiy fikr almashish holatlarini yaratadilar.

O'qitish metodlari deganda, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – **og'zaki metod** (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), **kitob bilan ishlash** (instruktiv materiallar), **ko'rgazmali metod** (ko'rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), **amaliy metod** (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog'liq holda esa quyidagi metodlar qo'llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish.

5.3. O'qitish metodlarini tanlash omillari. Reproduktiv o'qitish metodlari. Produktiv o'qitish metodlari.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O'qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari*, eng avvalo, o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o'qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, u asosiy e'tiborini mustahkam o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o'qituvchi muayyan ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Muammoli-izlanish ta'lim deyilganda, o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo'layotgan muammoni hal qilish uchun, u o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tushunib olishga intiladi.

5.4. O'quv mashg'ulotni o'tkazishda faol va interfaol o'qitish modeli.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan

holda qayta ko'rib chiqish, barcha o'quv fanlari bo'yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta'limni pog'onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir. Shu munosabat bilan yaqin o'tmishdagi o'zbek o'quv muassasasilari o'qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta'lim metodlarini o'rganishni osonlashtiradi. Shubhasiz, mazkur ta'lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta'limning metodik bo'shliqlarini ma'naviy jihatdan to'ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo'lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi. Keyingi vaqtlarda taraqqiy etgan mamlakatlarning o'quv muassasasi sohasidagi yutuq va tajribalarini o'rganishga uni bizning sharoitimizga joriy etishga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, xalq ta'limi ko'lamiga inqilobgacha bo'lgan o'qitish tartibining turlari ham dadil kirib kelmoqda. Bunga mamlakatimizda gimnaziyalarning ochilishi, litseylarni ochilishini misol qilib keltirish mumkin.

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda ko'pgina quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

Maqsadni belgilash: 1) ta'lim berish maqsadi, 2) pedagogik vazifalar, 3) o'quv faoliyat natijalari.

♦ *O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:* maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.

Ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri. G. Mayerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10 %; ko'rish orqali (ko'rganda) - 20%; ko'rib va eshitish orqali (ko'rganda va eshitganda) - 50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada - 70%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda -90% axborot qoladi.

♦ *Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:* tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.

Vaqt sarfi: 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi; 2) vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim berish sharoiti: ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshq.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysunishli).

Ta'lim oluvchilar soni: agar u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim usullarni qo'llab, jadallashtirish mumkin.

Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari: ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Qo`shimcha omillar:

◆ Mavzuni o`rganishni (mustaqil/ ta`lim beruvchi rahbarligi ostida) tashkillashtirish yo`li: *Qay tarzda?*

◆ Didaktik vositalar: *Qaysilari?*

◆ Faollikni rag`batlantiruvchi usullar: *Qaysilari?*

◆ Nazorat va o`z-o`zini nazorat: *Qaysilari?*

O`qitish uslublari va texnikalari

Quyidagi keltirilgan o`qitish uslublari va texnikalari ta`lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- o`yin orqali o`rganish
- rol o`yini
- aqliy hujum
- mavzuviy o`qitish
- umumlashtirilgan o`qitish
- hikoya so`zlash
- yordamchi ko`nikmalar
- muhokama usuli
- talab uslubi
- muammoni yechish (muammoli ta`lim)
- a`lo darajada o`rganish

1. O`yin orqali o`rganish.

Ta`limga oid o`yin turli shakllarga ega bo`lishi mumkin. O`qituvchilarning bundagi kalit roli o`quvchilarning tabiiy kutilmagan o`yinini o`zgartirishdan iborat, bunda u o`zining o`yin xislatlarini saqlagan holda ta`limga oid ahamiyat kasb etadi. Ta`limga oid o`yinlarning to`rt xili bor: manipulyativ o`yin, jismoniy o`yin, teatrga oid va o`yinlar.

Manipulyativ o`yinda, talabalar boshqotirma, sanoq xalqasi yoki o`yin predmetlari kabi qurilmalarning mayda bo`laqlari bilan ishlashlari mumkin. Harakatlar tegishli tarzda o`zini saqlagan bo`ladi. Bunda manipulyativ faoliyat va boshqa turdagi faoliyatlar, masalan teatr elementlarini o`ynash orasida zaruriy bog`liqlik muhim emas. Misol uchun, talabalar manipulyativ o`yin harakatlari maqsadlariga material bilan ishlash orqali erishishlari mumkin. Talabalarga bir nechta yog`och silindr va ularni solish uchun quti beriladi. Silindrlarni solishtirib va ularni qutiga solishga harakat qilish orqali, talabalar hajmlarni solishtirish va predmetlari seriyalarga ajratishni o`rganishlari mumkin. Manipulyativ o`yin harakatlari umuman olganda, ta`lim maqsadlarini tor doirada ifodalaydi.

Jismoniy o`yin – talabalarning katta mushak harakatlarini, masalan yugurish, sakrash yoki velosiped minish kabi harakatlarini jalb qiladi. Bu harakatlar ularga o`z jismoniy ko`nikmalarini oshirish yoki ularni yangi holatlarda qo`llashga o`rgatishi mumkin. Jismoniy o`yin teatrga oid komponentga ega, va o`qituvchilar o`yinni birlashtirib jismoniy harakatlarni yanada jozibador qilishlari yoki o`yinga ijtimoiy tarkib berishlari mumkin.

Teatr o`yini talabalardan rol bajarishni talab qilishi va odatda o`z rollarini norasmiy teatr holatlarida o`ynayotgan boshqa talabalarga nisbatan bog`liqlik asl hayotiy holatlarni o`zida aks ettirishi mumkin. Xizmat sohasi (yoki qo`g`irchoq burchagi) teatr o`yinlarini o`ynash uchun eng tayyor kuzatuv vositasi bo`lib xizmat qiladi. Bu yerda talabalar oila a`zolari rollarini uy sharoitlari aks etgan holatlarda bajarishlari mumkin bo`ladi. O`qituvchilar boshqa teatrga oid rol holatlarini o`rnatishlari mumkin, bundan maqsad – bolalarni ko`p rollarni bajara olishlariga o`rgatishdan iborat.

O`yinlar harakatdagi o`yinlarning boshqacha xilidir. Ular yuqori darajada tuzilgan va o`z ichiga rioya qilinishi kerak bo`lgan ma`lum bir qoidalarni oladi. Talabalar to`rt va besh yoshli darajada o`zlari rol bajarishlari kerak bo`lgan saxnada turishni endi endi o`rgana boshlaydilar. Oddiy o`yinlar yoki musiqiy harakatlar o`yinlar elementlaridan iborat bo`lsa, ular maqsadga muvofiq bo`ladi. Talabalar o`yin o`ynash strategiyalarini o`rganishlari kerak. O`qituvchilar o`yinlarga yo`naltirishlari kerak, yoki talabalar qoidalarga yetarlicha rioya qilish yoki qoidaga muvofiq xulqni yetarlicha tushunmasliklari mumkin.

2. Rol bajarish.

Bu “kutilmagan improvizatsiya va ehtiyotkorona boshqariladigan muhokama orqali kashf qilish imkoniyati bo`lib, bunda odatiy guruhdagi muammoli holatlarda shaxslarga jalb qilingan insonlar his-tuyg`ulariga hamdard bo`lishga yordam beriladi”.

Demak, talabalar o`zlarining – fikrlash, sezish va boshqalar kabi o`zini to`tish, va bunga boshqa jalb qilingan inson bilan muloqot chog`idagi boshqa his-tuyg`ularini boshqalar rolini olish orqali jazolanish riskisiz harakat qiladilar.

Talabalar boshqalar rolini qabul qilganda, o`zlarining odatiy rollaridan farqli o`laroq, o`zlarining kundalik rollari o`rniga boshqa bir insonning rolini oladilar. Shu tariqa, talabalar kamroq xudbin bo`lishga o`rganadilar. Natijada, ular o`zlaridagi va boshqalardagi ichki hissiyotlarga kirib boradilar.

Rol bajarishning o`qitishda qo`llaniladigan maqsadlari quyidagilar:

- boshqalar hissiyotlariga hamdardlikni rivojlantirish;
- talabalarga qaror qabul qilishlarida yordam beradigan qadriyatlarini aniqlashtirishga yordam berish;
- talabalarga xulq atvor nima sababdan kelib chiqishini tushunishlariga yordam berish;
- talabalarni his va tuyg`ularini ifoda etishga o`rgatish;
- talabalarga muammoni yechish xulq-atvoriga o`rgatish;
- talabalarda xulq-atvor oqibatini hisobga olishni o`rgatish;
- o`qituvchiga talabalar ehtiyojlarini topishda ko`maqlashish;
- Guruh anglash qobiliyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy xulq-atvorni o`rganish;
- bolaga his qilish, rol bajarishni o`rgatish;

Misol: Oilada, talabalarga quyidagi vazifalar berilishi mumkin: Siz ukangizni har dushanba kuni maktabdan uyga olib kelasiz va boshqa bola sizni “Pak Chik” deb

ataydi. Sizning o`ylashingizcha ukangiz o`zi mustaqil uyga bora oladigan katta bola, ammo, sizning otangiz unday emas deydi. Ota va o`zingiz o`rtangizda rol bajaring.

➤ Rol bajarishga tayyorlanish.

Quyidagi tavsiyalar o`qituvchiga reja tuzishda ko`mak berishi mumkin:

○ Talaba diqqatini qaratgan rolga oid holatni tanlang, misol uchun, talabalar tomonidan taklif qilingan axloqiy fikrlar haqidagi hikoyalar. Agar bu uslub qo`llanilsa, o`qituvchilar tanlagan axloqiy hikoyasi quyidagicha ekanligiga ishonch hosil qilishlari kerak:

➤ tanlangan hikoya markaziy xarakterga ega bo`lgan haqiqiy to`qnashuvni namoyon qiladi;

➤ o`z ichiga axloqiy masaladan tashqari, muhokama uchun mavzuni oladi;

➤ talabalar o`rtasida tegishli yechim borasida kelishmovchilik keltirib chiqaradi.

(2) Sun`iy axloqiy hikoya yoki rol o`yini talabalar hayotidagi haqiqatga umuman yaqin emasligiga ishonch hosil qilish. O`qituvchi xuddi shunday deb o`ylashi mumkin, lekin bir xildagi holat bo`yicha rollar bajarish yaramaydi. O`qituvchi rol bajarish o`yinida ismlarni o`zgartirishi mumkin, agar ular sinfdagi talabalar bilan parallel tanlangan bo`lsa.

(3) O`yinchi uchun brifing rejimini belgilaydi. Brifing o`yinchilarni savolga to`tish va sinfdan rol tabiati, yoki o`qituvchi tomonidan uzluksiz nutq haqida so`rashni o`z ichiga olishi mumkin.

(4) Rol bajaruvchilar to`la sinfiy kontekstda bo`lishlarini aniqlashi, yoki kichik guruhlar haligacha o`z o`yinchilarini tanlash va brifing uchun javobgar bo`lishlarini aniqlaydi.(9-jadval)

9-jadval.

Darslarni tashkil etishda metodikalar²⁷

Yangi qo`llanilishlar	Buni boshqacha usulda qo`llasa bo`ladimi? Bu biror-bir boshqa narsa bilan o`xshashmi? Qanday o`zgarishlar qilsa bo`ladi?
Moslashuvlar	Biror-bir narsani qo`shib uni yaxshilasa bo`ladimi? Uni kesib qisqartirib tashlasa bo`ladimi? Uning o`rniga biror bir boshqa narsani qo`ysa bo`ladimi?
O`zgartirishlar	Agar uni tartibi bo`yicha o`zgartirsak, yaxshiroq bo`larmidi? Agarda biz uni aylantirsak yoki boshqa tarafidan boshlasak, yaxshiroq bo`ladimi?
Bo`rttirishlar	
Kichraytirishlar	
O`rindoshchilik	
Qaytadan tuzish	
Teskarilik	

²⁷ Файзуллаева Н.С. Таълим менежменти. Ўқув қўлланма. -Т.: Фан ва технология, 2009.

3. Aqliy hujum

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchi, kulgili ko`rinishiga qaramay, o`zlarining o`ylagan muammolariga ko`plab yechimlar taklif qilishlari mumkin. Barcha fikrlar baholangandan keyingina, tegishli yechim olinishi mumkin. Osborn (1963, Bredlida joylashgan, 1985:201) fikrlar uchun miya hujumida qo`llanilishi mumkin bo`lgan to`qqiz turdagi savollarni tavsiflagan.

Savol tiplariga misollar:

Kombinatsiyalar: Agar yondashuvlarni birga qo`llasak, yaxshiroq bo`ladimi?

4. Mavzuviy o`qitish

Biror-bir fan masalalariga oid markaziy fikrlarga asoslanish o`rniga, mavzuviy birlilar fanlararo bo`ladi, o`rganish harakatlari bilan mavzu bo`ylab boradi (Gillyam, 2000). Mavzularga misollar, yosh talabalar uchun – uy, boshqa yoshi kattaroqlari uchun – kashfiyotlar yoki o`zaro bog`liqlikni olishi mumkin. Turli fan sohalaridagi tushunchalar mavzuni qo`llash bilan qamrab olinadi va bir biriga ulanadi. Shuningdek, mavzuviy birliklar odatda talabalar uchun tanlovlardan iborat bo`ladi, bunda ularga kamida bir nechta individual yoki kichik guruh muhokamalarini tanlash bilan egalik va jamiyat hissini rivojlantirishi mumkin, bunda talabalar birga ishlashni o`rganadilar va natijalarini baham ko`radilar. Quyidagi bosqichlar mavzuviy birliklarni rejalashtirish uchun tavsiya etiladi:

a. *Mavzuni tanlash.* Mavzu ma`lumotlarni ko`p fanlardan olib birlashtirish uchun yetarlicha keng bo`lishi kerak, ammo bunda eng keng aloqalar yo`qoladi. O`zingizning kattaroq maqsadlaringizni saqlang va talabalar maqsadlarini xotirangizda tuting.

b. *Reja turini tuzish.* Aqliy hujum bo`yicha sxema tuzing – semantik harita bo`lsin va u mavzu ko`tariladigan turli masalalarni qamrab olsin(10-jadval).

10-jadval.

Mavzuviy o`qitish²⁸

Hozir: Sizning jamiyatingiz			O`tmish:	Yoqtirgan tarixiy ishlardan misol-larni o`rganish
	odamlar bir-birini yaxshi ko`radi		Tarix bo`ylab	
Axborot texnologiyalari jamiyatlarga ta'sir qiladi		Jamiyat		
Ular qanday o`zgaradi?				Biologik jamiyatlar
Qo`llash tizimlari murakkab	Oilalar turlicha		Hayvonlar birga yashashadi	

²⁸ Асқарова Ў.М. Хайитбоев М., Нишонов М.С. Педагогика. Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. -Т.: “Талқин” нашриёти, 2008 й. 288 б.

Rejalashtirish to'riga misol. (Gillyam, 2000:30 dan olinib o'zgartirilgan). E'tibor qiling, yuqoridagi chizma o'z ichiga matematika yoki ijtimoiy fanlar kabi an'anaviy fan sohalarini olmaydi. U har qanday an'anaviy birlashtirilgan fikrdan uzoq bo'lishi kerak. Hamkasblar bilan to'r tuzish turli xildagi fikrlarga olib keladi.

s. *Manbalar tanlash.* Reja tuzgach, ta'minot manbalarini keltiring. Shu jumladan, san'at, adabiyot, boshqa nashr manbalari, moddiy materiallar, texnologiya va jamiyat manbalari.

d. *Faoliyatni rejalashtirish.* Mavzuga aloqador bo'lgan faoliyatlarni tanlang yoki yarating, bunda o'rganish maqsadlari tomonga talabalar shijoati va boy manbalar mavjudligini qo'llang va rag'batlantiring. Talabalar uchun o'zlarining o'rganish faoliyatlarini tanlashlari uchun imkoniyatlarni jamlang.

5. Integratsiyalashtirilgan o'rganish uslublari.

Integratsiyalashtirilgan o'rganish uslublari instruksional dasturni tashkil qilishning bir yo'li bo'lib, ko'plab fanlarni ajratadi va rejadagi ko'nikmalar bir-biriga aloqador bo'lib qolishi mumkin. Shartli fanlar va ko'nikmalar o'qitiladi va funksional jihatdan ayrim tanlangan mavzu, faoliyat, loyiha va mavzu kontekstida qo'llaniladi.



13-rasm. Integratsiyalashtirilgan o'qitish uslubining maqsadi²⁹

Bu o'qitish uslubi o'qish mavzusini rejaning integratsiyalashtirilgan markaziga aylantiradi va maqsadi bolaning maktabdagi tajribasini umumlashishdan iborat bo'ladi. Integratsiyalashtirilgan reja turi o'qitish birligiga yaqin. Bu uslub talab qilib uslubi bilan yaqin bog'liq bo'lib, yuqori darajada individullashgan, struktural o'rganish muhitini talab qiladi va o'z yo'nalishida muammolarni hal qiladi. O'qituvchi integratsiyalashtirilgan reja uslubini qo'llashga qaror qilsa, butun sinf

²⁹ Галагузова Н.А. История социальной педагогики. Хрестоматия. -М.,2002.

hayoti o`qitishning bu uslubi qamraydigan falsafa bilan rejalashtirilishi kerak. Quyidagi rasmda keltirilgan(14-rasm)

- Talabalarga o`ziga ishonish, mustaqil muammolarni yechishga o`rgatish;
- Talabalarga boshqa fan va ko`nikmalardan ajratishdan ko`ra maktabdagi o`rganishni tushunishlari va e`tibor qilishlariga yordam berish;
- O`rganish jarayonini ma`lum bir fan va ko`nikmalarga qarshi ta`kidlash;
- O`rganishning ijtimoiy ahamiyatini oshirish, talabalarni boshqalar bilan o`rganish harakatlarida birga ishlashga rag`batlantirish.

• O`qituvchining roli

➤ Talabalar orasida sahnani tayyorlash va shunday muhit yaratish kerakki, bunda talabalar o`rganish faoliyatlariga o`z qiziqish, ehtiyoj va qobiliyatlari, shaxsiyat va motivatsiyalaridan kelib chiqib band bo`lsinlar. Muhit erkin va iliq bo`lishi kerak.

➤ Talabalar kashfiyotlarini tuzish va yo`naltirish, bunda ular tashabbuslarini qo`llash kerak.

➤ Talabalarning o`rganishlari, tuzishlari, boshqarishlari, tajriba o`tkazishlari, kashf qilishlari va yechishlari uchun turli assortimentdagi o`rganish materiallarini taqdim etish.

➤ Talabalar orasida o`rganuvchi rolini bajarish.

• Talabalar roli:

- O`rganish jarayoniga jalb qilinish
- O`zlarining o`rganishlari uchun faoliyat va javobgarlik qabul qilish
- Birgalikda ishlash, boshqalar bilan o`rganish faoliyatlari va loyihalarida birgalikda ishlash
- Biror-bir ma`lumot manbasi yuzasidan biror-bir savol berish, tanlash va tushuntirish

Instruksional manbalardan foydalanish. Xilma-xil assortimentdagi materiallar qo`llaniladi, ular:

- Konvensional materiallar: kitoblar, plyonkalar, rasmlar, xarita va h.k.
- Boshqa materiallar: elektr dvigatellar, markirovkalash uskunasi, kompyuter, ilmiy qurilma, stolyarning ish qurollari, tarixiy artefaktlar, qurilish anjomlari, san`at namunalari, musiqiy instrumentlar va audio-vizual materiallar.
- Bolalarga qurish, kashf qilish va boshqarishga yordam beruvchi turli xildagi materiallar³⁰.

6. Hikoya so`zlab berish.

➤ Hikoya so`zlab berish faoliyati o`quv rejasidagi biror bir sohada qiziqish uyg`otishi mumkin. Talabalar, o`qituvchilar va mehmonlar guruhga ularga baland ovozda o`qish orqali biror bir hodisa, holat va hikoyani aytib beradilar. Chunki, hikoya so`zlash norasmiy tabiatga ega bo`lib, hikoyachi o`z qo`shimchasini qo`shishi va uni o`ziga moslashtirib keyin atrofda qilarga aytib berishi mumkin. Hikoya so`zlab

³⁰ Jarolimek J.J. va Foster, S.D. 1993, Boshlang`ich maktabda o`qitish va o`rganish. (5-nashr), Nyu-York, MakMillan nashriyoti

berish adabiyotdan zavq olish, uni hurmat qilishni o`rgatadi va til, xamda o`rindosh tajribani boyitib, talabalarda tinglash ko`nikmalari va o`qish uchun tushunchalarini rivojlantiradi.

➤ Hikoya so`zlashdagi bosqichlar:

➤ Talabalar hikoya qismlarini bilishlari kerak. Ko`pgina talabalar qachon maktab boshlanishini biladilar, ammo ular terminologiyani bilmasliklari mumkin. O`qituvchi talabalarining ushbu terminologiyani o`rganish yoki o`rganmasliklarini hal qiladir. Hikoya so`zlab berishning tarixi bunday turdagi faoliyatlarga qiziqarli kirish bo`lib xizmat qiladi.

➤ Hikoyachi kimligidan qat'i nazar, qulay muhit muhimdir. Agar imkon bo`lsa, toza havoda talabalar erga o`tirib doira shaklini hosil qilib hikoyachini tinglashlari mumkin. Agarda o`qituvchi hikoyachi bo`lsa, u quyidagilarni e`tiborga olishi kerak:

➤ Hikoyachining ovozi talabalarga yaxshi eshitalishi kerak.

➤ Barcha talabalar hikoyachini ko`rishlari, ayniqsa yuzi va qo`llarini ko`rishlari kerak.

➤ U baland ovozda gapirish va ovozdagi ifodali nutq bilan so`zlashi kerak.

➤ Agar hikoyachi uni bo`lishlarini istamasa, talabalarni o`z savollarini izoxlarini hikoya tugagunicha saqlab turishlari haqida ogohlantirishi kerak.

➤ Hikoyachi boshlash oldidan barcha talabaga bo`linmaydigan bir xilda e`tibor berishi kerak.

➤ Agarda, talabalarga hikoyachi rolini bajarish imkoniyati berilsa, ular quyidagicha harakat qilishlari kerak:

➤ Hikoya qismlari va ketma-ketligi haqida ma`lumot olishlari kerak.

➤ Norasmiy qisqa hikoya qiziqarli latifalarni yanada tushunarli hikoya so`zlab berish tajribasi bilan aytib berish.

➤ O`qituvchi flanelli doska yoki qo`g`irchoqlar kabi vositalardan foydalanishi va hikoya so`zlashni boyitishi mumkin. Talabalarga o`zlarining shaxsiy hikoyalarini yozish va ularni sinfga aytib berish imkoniyati berilishi kerak. O`qituvchi hikoyani bir nechta marta o`qib chiqishi, va hikoyani yod olmasligi kerak. Hikoyachi auditoriya bilan ko`z kontaktini saqlab turishi va tinglovchilar bilan bevosita gapirishi kerak.

7. Yordam beruvchi ko`nikmalar

➤ Yordamchi talabalarga o`qish ko`nikmalari va motivatsiyasi bilan ularni qo`llab-quvvatlanishlarini ta`minlashi kerak. U talabalar orasida muloqot olib borish, ularning savollarigi javob berishi, ularga topshiriq bilan yordam berishi va ularning muvaffaqiyatlarini aniqlashi mumkin.

➤ O`qish ko`nikmalari deganda, yordamchi talabalarga o`rganish, o`qish va vaqtni boshqarish ko`nikmalari haqida tushuncha berishi tushuniladi. Bunda u talabalar uchun ma`lum bir o`rganish hodisasi uchun jadval tuzadi, ular uchun individual rejalar tuzadi. Motivatsiya deganda, yordamchi talabalarining u bilan muloqotini osonlashtirishi, ularga yakka o`qimaslikni eslatishi ularni bir biriga yordam berishi va birgalikda ishlashlarini rag`batlantirishi va o`rganish materiallaridan tashqari veb sayt orqali ma`lumot topishlariga, el.pochta va forumni

muhokama qilishlariga imkoniyat yaratib berishi, ularga o`rganish hodisasi tugagandan keyin mukofot berilishi haqida ogohlantirishi kerak.

➤ Muloqot deganda, yordamchi ayniqsa muhokama yoki sinf forumi jarayonida talabalarni bir birlarining savollariga javob berishlariga rag`batlantirishi kerak.

8. Muhokama uslubi.

Bu o`qituvchi, talaba yoki boshqaruvchisiz olib borilishi mumkin. Sinf jamoasi normaldan norasmiygacha bo`lib, bunda o`qituvchi dominant yoki no dominant rolni bajaradi. Bu bo`limda, ayrim yuriqnomalar birinchi navbatda muhokama uchun beriladi. Ma`lum bir qarashlar butun sinf muhokamasi, paneli yoki munozarasi, kichik guruhdagi muhokamasi uchun berilgan.

Agarda tegishli qo`llanilsa, muhokamalar talabalarda tanqidiy fikrlashni paydo qilib, o`rganish jarayonlariga ko`proq jalb qilinishlarini rag`batlantirishi mumkin. Agarda noto`g`ri qo`llanilsa, muhokamalar individual talabada o`qituvchi yo`naltirgan tartibdagi savollarga javob berishlariga olib kelishi, yoki o`qituvchi tomonidan berilgan fikrlarni bildirishlariga olib kelishi mumkin.

Ta`sirchan muhokamalarni rejalashtirish va olib borish uchun yo`riqnomalar:

- muhokama maqsadlarini hisobga olish;
- talabalar tajribasi va rivojlanishini hisobga olish;
- masalalarni o`rganish;
- talabalarni muhokama maqsadlariga yo`naltirish;
- qo`llovchi sinf muhitini yaratish;
- zarur bo`lsa, yangi yoki yanada aniq ma`lumotlar bilan ta`minlash;
- tegishli aloqalar, faktlar va fikrlarni ko`rib chiqish, xulosalar va rad etish;
- yumordan foydalanish.

6-bob. TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISH SHAKLLARI – TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI

Reja

1. O`qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O`qitishning psixologik asoslari.
2. Talabalarning o`quv faoliyatini shakllantirish.
3. Ta'limni tashkil etish shakllari.

6.1.O`qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O`qitishning psixologik asoslari

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo`lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishi kerak bo`lgan bilimlar, malaka va ko`nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o`qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o`ziga xos xususiyatlaridan biridir.³¹

Zaruriy rivojlanish. Bu talaba tayyorgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, talabadagi bor daraja, ya'ni talabaning bugungi o`quv jarayonigacha bo`lgan tayyorgarlik darajasidir. Bu daraja talabaning ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori darajadagi rivojlanish. Boshqacha aytganda, shu dars davomida ko`tarilish kerak bo`lgan darajadir. Bu talaba hozircha qila olmaydigan, lekin ko`mak vositasida eplay oladigan ishdir. Talaba ana shu o`zi uchun yangi bo`lgan va bajarishga kuchi yetadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko`tariladi.

Demak, ta'limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir. Ta'limning ana shu yuqorida sanab o`tilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularga amal qilgan holda o`quv jarayonini tashkil qilish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshiradi. Ta'lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilish.
2. Talabalarda dunyoqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o`stirish.
3. Talabalarning ma'naviyatini boyitish va tarbiyalash.
4. Yoshlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va iste'dodlarini ochish hamda o`stirish.

O`quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi.

³¹ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Т., 2002 йил. 43-бет.

O`quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo`luvchi uzluksiz jarayondir.

Rus psixologi A.N. Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o`quv faoliyatida o`lishini ta`kidlaydi.

D.B.Elkonin esa o`quv faoliyatining xususiyatlarini ko`rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o`zini namoyon bo`lish shakliga ko`ra ijtimoiyligini ta`kidlaydi.

O`quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o`quvchida o`zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo`lishi darkor. Bu motivlar bevosita o`quvchi shaxsining o`lishi va rivojlanishi bilan bog`liq bo`lishi kerak. O`quv faoliyati ta`lim, o`qish va o`rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog`liqdir. Ta`lim o`qituvchi va o`quvchi hamkorligidagi o`quv faoliyati, o`qituvchining bilim, ko`nikma va malakalarini o`quvchilarga o`rgatish jarayonidir. Ta`lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o`zlashtirishga qaratilgandir. O`qish va o`rgatish tushunchalari o`quv faoliyati bilan bog`liq bo`lib, ular bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishga, o`rgatishga xizmat qiladi.

O`quv faoliyatining besh elementi mavjud:

1. O`quv motivlari.
2. O`quv topshiriqlari.
3. O`quv harakatlari.
4. O`qituvchining nazorati.
5. O`qituvchining baholashi.

D.B. Elkoninning ta`kidlashicha, o`quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta-sekinlik bilan o`quvchining o`ziga o`qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o`tkazilishidir.

Ta`lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo`lib, u o`quvchilarning o`quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta`lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta`limning maqsadi - nima uchun o`qitish kerak?
2. Ta`limning mazmuni - nimaga o`qitish kerak?
3. Ta`limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo`llari.
4. Ta`lim beruvchi.
5. O`quvchi.

Ta`lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo`lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o`zlashtirilishi:

- faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o`zlashtirilishiga;

- maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to`g`ri tanlash va foydalanishga bog`liq.

Ta`lim jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivatsiya.
2. Ma`lumot usullari.
3. Ma`lumotning tushunarliiligi.

4. Xotira.

5. Ma'lumotni qo'llash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin). P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.

2. Tushuntirish.

3. Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.

4. Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.

5. Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.

6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

➤ birinchi turda - xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kyechedi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib etmaydi;

➤ ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

➤ uchinchi tur - tez, samarador va bexato xatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

Ta'limning psixolik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EHM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda to'tish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi keraqligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga

berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg`u uyg`otmasa, uni o`quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o`quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o`quv faoliyatini juda samarali qiladi. O`quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o`zlashtirib oladilar. O`tkazilgan tajribalar o`quvchilar hech qanday his-tuyg`u uyg`otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko`rsatadi. O`qituvchi o`quv jarayonining emotsional tomoni haqida g`amxo`rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g`oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o`zlashtirilishiga erishish uchun o`quvchilarning o`quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg`ular o`quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg`araz munozara paydo bo`ladi, bahslasxiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo`lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo`lmaydi.

6.2.Talabalarlarning o`quv faoliyatini shakllantirish.

Ma'lumki, talabalarlarning yetakchi faoliyati o`qish hisoblanadi. O`quv faoliyati jarayonida mutaxassislarni tayyorlashning asosiy maqsadlariga erishiladi. O`qish faoliyati talabani psixik jarayonlarining xususiyatlari rivojlanishiga kasbiy muhim bilimlar, ko`nikma va malakalarni egallashga ta'sir ko`rsatadi. Agar o`qish ijodga aylansa, talabalarlarning hissiy sohasiga ijobiy ta'sir qiladi, diqqat va xotirasini rivojlantiradi, qoniqish hissini paydo qiladi, bilish faoliyatiga qiziqish ortadi. Psixolog A.A. Abdurazzoqov va E. Nazirovlarning o`tkazgan tadqiqotlaridan ma'lum bo`lishicha, birinchi va ikkinchi kurs talabalarida auditoriyada beriladigan vazifalarga qiziqish kuchli bo`ladi. Yuqori kurslarda esa, auditoriyadan tashqari vazifalarga va mutaxassislikka bog`liq fanlarni chuqur o`rganishga qiziqish kuchayadi. Shuning uchun talabalarlarning o`quv faoliyatini rejalashtirishda ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Oliy o`quv yurtidagi o`quv yuklamalari hajmi shundayki, ularni muvaffaqiyatli bajarish uchun kuchli motivlar kerak. A.N. Leontev, L.N.Bojovich, P.Ya.Yakobson, V.Okon va boshqalarning tadqiqotlaridan ma'lum bo`lishicha, ijobiy motivatsiyasiz talaba va o`quvchilar shaxsining tashqaridan majburlab o`qitilsa, ko`tilgan natijaga erishish mumkin emas.

Talabalarlarning o`quv faoliyati bilan o`z-o`zini baholashlari o`rtasidagi bog`liqlik ham ancha qiziqish uyg`otadi. Tadqiqotlarda shaxsning 27 ta ijobiy psixologik xislatlariga (talabalar o`zlariga o`zlari baho berishgan hamda guruh a'zolari ularga) baho berishgan. O`z-o`ziga baho va guruh bahoni taqqoslab, quyidagi qonuniyat aniqlandi. O`quv faolligi yuqori, ya'ni yaxshi o`qiydigan talabalarda guruhning bahosi o`z-o`zini baholashdan yuqori. Yomon o`qiydigan talabalarda esa, teskari bog`liqlik ko`rinadi, ya'ni ular o`zlarini o`zlari guruhning bahosiga qaraganda yuqori baholaganlar.

Tadqiqotchilar shaxsning o`z-o`zini anglashi tuzilishida o`z-o`zini baholashni muhim element sifatida ekanligiga qarab quyidagi xulosalarga

keldilar. Past o'zlashtiruvchi talabalar o'zlarining asosiy ijtimoiy psixologik xislatlarini baholashda notanqidiy yondashuv bilan ajralib turadilar.

O'quv motivatsiyasi o'zgaruvchidir: o'qishning birinchi oylarida u juda kuchli bo'ladi, talabalarning uchdan bir qismida u o'zgarishsiz qoladi. O'quv motivatsiyasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi; mashg'ulotlarning mazmuni, o'qitish metodikasi, o'qituvchining shaxsi, talabalar jamoasidagi o'zaro munosabat, erishilgan natijalar, musobaqalar. Ko'pincha talabalar o'qitish darajasidan norozi bo'ladilar. Ijodiylik, tadqiqotchilikka e'tibor berilgan o'quv faoliyati ular uchun qiziqarlidir.

Talabalar bilan o'tkazilgan tadqiqotlar ijobiy o'quv motivlarini shakllantirishga bog'liq bo'lgan ba'zi sharoitlarni aniqlash imkonini beradi. Ular:

1. Ta'limning – yaqin (bevosita) va oxirgi (perspektiv) maqsadlarini anglash.
2. O'zlashtirilgan bilimlarning nazariy va amaliy ahamiyatini anglash.
3. Ilmiy ma'lumotni hissiy shaklda bayon etish.
4. O'quv materialining yangiligi va uning mazmunini yetkazish.
5. O'quv materialining kasbiy yo'nalganligi.
6. O'quv faoliyatida qarama-qarshi ma'lumotli vazifalarni tanlash.
7. Guruhlarda bilishga intiluvchanlikni va qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishidir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va N.F.Talizina tomonidan o'rganilgan. Ular aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi. Aqliy xatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'g'risida o'quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa, subyekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko'payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o'z-o'zidan ma'lum bo'lmoqda.

To'rtinchi bosqichda bajarilgan xatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi.

Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o'tiladi.

Bundan ravshan ko'rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta'lim Hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O'quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi

birinchi o`ringa chiqib bormoqda. Ta'lim jarayonida o`zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog`liq:

1. Ta'lim mazmuniga.

2. O`quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o`quv qo`llanmalarining mavjudligiga.

3. Ta'lim metodikalarini takomillashganligi.

4. O`qituvchi mahoratiga.

5. O`quvchining individual psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o`quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o`zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini kullash muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi zamon o`quv muassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish - bu insonning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

1. Mazmundorlik (boyliqi, chuqurligi, hukmga boyliqi).

2. Fikrlashning kengligi (keng va tor) va chuqurligi, nazariya va amaliyotning uzviyligiga bog`liqdir. Amaliyot, hukmning to`g`riligi mezonidir.

3. Fikrlashning mustaqilligi - umumiy tajribani qo`llay olish, shaxsiy fikrga ega bo`lishi, tajribaga munosabat bildirish.

4. Aqlning tashabbuskorligi.

5. Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart yechishdan qochish.

6. Aqlning tanqidiyligi, o`z ishini aniq baholay olish, uni o`lchash.

7. Aqlning mahsuldorligi.

8. Fikrning ketma-ketligi.

9. Tafakkurning tezligi.

Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan. "Ulug` aql egalari o`z oldilariga maqsad qo`yadilar, qolgan odamlar o`z istaqlari ortidan ergashadilar" (Vashington Irving).

"Aql - bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir" (K.D.Ushinskiy).

Yuqorida aytib o`tilgan barcha sifatlar yosh o`zgargan sari o`zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo`lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta'minlaydi.

6.3. Ta'limni tashkil etish shakllari

Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan.

Ta'lim shakllari (forma-lotincha-tashqi ko`rinish) - bu usul o`quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda birinchi bo`lib maktab ta'limida sinf – dars tizimini yaratdi.

Ya. A. Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo`lsa ham G`arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va

ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi.

Sinf – dars tizimi shark mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo'lmadi. Ularda oktyabr to'ntarishiga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi davom etib keldi. Bir o'qish xonasida 6 yoshdan 15 - 16 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg'ulot olib borilardi. Shuningdek, bir o'qish xonasidagi (20 - 30) o'quvchining bilim darajasi ham turlicha bo'lar edi.³²

O'zbek maktabi oktyabr to'ntarishidan keyin sinf – dars tizimiga utdi.

Sinf – yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdoridagi o'quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars – o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars – o'quv ishlarining markaziy qismidir. Ayni paytda, o'quv muassasalarida ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1. Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tarjiba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalari va kolxoz – sovxoz ekin maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yuli bilan olib boriladi.

Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor. Ammo o'quv jarayonining hamma qismlarini o'qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni kiyinlashtiradi. Maktab oldida to'rgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yukori bosqichga kutarishni talab kiladi.

O'qituvchi uzining anik sharoitlari va imkoniyatlariga eng kup mos keladigan o'quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashga tavakkalchilikka, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l qo'ymaydi.

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu soharda turli xil ko'rik-tanlovlar, jumhuriyat miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik oq'ishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli - tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta

³² Подласый И. П. Педагогика. –Москва, Владос ,2012, 77-срт.

rejalashtirilgan bo`lmog`i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g`oyaviy - siyosiy yo`nalishga ega bo`lmog`i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog`langan bo`lmog`i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog`i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o`qituvchi va o`quvchilarning faolligi birligini ta`minlamog`i lozim.

7. Darsda o`quv materiallarining mazmuniga oid ko`rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg`ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o`quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Bir soatlik darsga mo`ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg`ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Har bir dars turining ma`lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o`qituvchining o`quv materialini to`g`ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o`zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.

Ma`lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg`ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining elementlari bo`lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko`p qo`llaniladigan dars turlaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) yangi bilimlarni bayon qilish;

b) yangi bilimlarni mustahkamlash;

v) yangi bilimlar ustida mashq qilish;

g) yangi bilimlarga bog`lik holda uy vazifalari topshirish.

Demak, har bir dars turlicha ko`rinishda bo`ladi, shu sababli ham, shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (ikkinchi bir dars turi elementi – savol-javob o`tkazish), yangi bilimlar ustida mashq o`tkazish (uchinchi bir dars turi elementi – masala va misollar yechdirish, grammatik tahlil, grafik ishlar olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi – tushuntirish, yo`l-yo`riqlar ko`rsatish va hokazo) kabi boshqa elementlarning bo`lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko`zlangan maqsad o`quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo`lsa, butun didaktik usullar shunga bo`ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma`lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir dars elementlari asosiy dars turidan urin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin.

Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lmaydi. U o'qitish usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil qila oladi. Ya'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilanoq dars olib borish usuli ham o'zgaradi. Demak, darsning shu qismiga kelib, darsning shakli ham, usuli ham o'zgaradi, yangilanadi. Bu bilan darsning yangi bosqichi boshlanadi.

Hozirgi kunda ta'lim shakli o'quv jarayonining shunday tashqi tomonlarini namoyon qiladi, ya'ni:

1. Uning mavjud bo'lish yo'li, tartib-tartibot:

- ta'lim oluvchilar soni: ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o'qitish;
- o'qitish vaqti: 45- sinf darsi, 90-birlashgan dars, «tanaffussiz dars»;
- o'qitish joyi: auditoriya, laboratoriya mashg'ulotlari, ustaxonalarda ishlash.

O'quv ishini tashkillashtirish shakli:

- ma'ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo'llari:

umumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:

➤ **Ommaviy ish** (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

➤ **Jamoaviy ish** (kollektiv) - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda to'rgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) Ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

➤ **Guruhli** - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

➤ **Yakka tartibli (individual)** - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

Talabalarni nazariy tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limning tashkiliy shakllari

Nazariy ta'limda o'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari: dars, seminar, maslahat, laboratoriya amaliy mashg'ulot, qo'shimcha mashg'ulotlar, joriy va oraliq baholash, itmihon.

Amaliy ta'limda – ishlab chiqarish darslari, ishlab chiqarish amaliyoti, malakaviy bitiruv imtihon.

O'quv faoliyatidan tashqari shakllar:

1) *mutaxassisligi bo'yicha*: fakultativ, kasbiy to'garaklar, ixtirochilar to'garagi, ilmiy-texnik to'garaklar, mutaxassisliklar bo'yicha birlashmalar.

2) *qiziqishi bo'yicha*: fanlar bo'yicha to'garaqlar, texnik ijodkorlik to'garkalari, amaliy ijodkorlik to'garaqlari, yo'nalish bo'yicha klublar, san'at havaskorlar to'garagi, sport seksiyalari.

Mustaqil o'qish shakllari: qiziqishi bo'yicha faoliyat, fan, san'atni mustaqil o'rganish, mustaqil ijodiy faoliyat, hayotni o'rab to'rgan olamni kuzatish.

7-bob. MA'RUZA – TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI

Reja

1. *Ma'ruzaning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan talablar.*
2. *Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan ma'ruza turlari.*
3. *Ma'ruza shaklida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari*

7.1. Ma'ruzaning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan talablar.

Ma'ruza - davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini bayon qilish.

Ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

yo'naltiruvchilik - talabalarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

axborotlilik - o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

metodologiklik - ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

tarbiyalovchilik - ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;

rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini *Ma'ruzaning asosiy vazifasi* - ta'lim berishning nazariy asosini ta'minlash, o'quv faoliyati va aniq o'quv faniga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, talabalarda fan kursi bo'yicha mustaqil ishlashi uchun yo'nalishlarni shakllantirishdan iborat. An'anaviy ma'ruza nafaqat axborotni taqdim etish yo'li, balki ta'lim beruvchini ta'lim oluvchiga, ularni bilim olish faolliklarini oshiruvchi hissiy ta'sir etish vositasi kabi ustunliklariga ega.

Usulning asosiy vazifasi - ta'lim berish.

Ma'ruzaning didaktik maqsadlari:

- Yangi bilmilarni yetkazish;
- To'plangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;
- Ular asosida g'oyaviy fikrlar, ishonchni, dunyoqarashni shakllantirish;
- Bilish va kasbiy qiziqishni rivojlantirish.

Ma'ruzani o'qishga bo'lgan asosiy talablar sifatida quyidagilarni ilgari suradilar:

➤ dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan, bayon etilayotgan axborotni yuqori ilmiylik darajasi;

➤ aniq va mustahkam tizimlashtirilgan va uslubiy jihatdan zamonaviy ilmiy ma'lumotlar bilan qayta ishlab chiqilgan katta hajm;

➤ bildirilayotgan fikrlarning isbotlilik va asoslilik;

➤ fikrlarni bayon etishdagi aniqlik va tinglovchilarni fikrlashini faollashtirish, muhokama qiluvchi muammo bo'yicha mustaqil ishlash uchun savollarni berilishi;

➤ berilgan muammoni hal etishda turli fikrlar tahlilini qilish;

➤ asosiy fikr va holatlarni chiqarish, xulosalarni ifodalash;

➤ kiritilayotgan termin va tushunchalarni tushuntirish; talabalarga ma'lumotlarni tinglashga, fikrlashga va qisqa yozib olishga imkon yaratib berish;

- auditoriya bilan pedagogik aloqani o`rnata olishi; didaktik material va texnik vositalarni qo`llashi;
- matn, konspekt, chizmalar bloki, jadval, grafiklarning asosiy materialidan foydalanishi.

7.2.Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan ma'ruza turlari.

Ma'ruzaga talabalar ishtirok etish elementini kiritish zarur bo'ladi: savollar berish va talabalar javoblaridan foydalanish, bunda ularning ahamiyatini ko'rsatish; vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat berish, bu zo'riqishni pasaytiradi va hissiy kuch beradi; aniq holatlarni, jumladan muammoli vaziyatlarni aniqlash, har kungi hayotdan misollar keltirish; talabalarda savollar berishga qiziqishni uyg'otish; avval o'rganilganlar bilan, ya'ni yangi holat va dalillarni taqqoslash; materialni tushunishning dabdabali va aniqlovchi savollarini qo'llash.

Ma'ruzada o'qitish texnologiyasining jarayonli tuzilmasi quyidagi bosqichlarda ifoda etilgan:

I bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish - o`quv mashg`ulotining mavzusini ifodalash, mustaqil o`qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlarni, ushbu mavzu bo'yicha kalitli toifalar va tushunchalarni, o'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlarni ma'lum qilish.

II bosqich. Asosiy, axborotli - ma'ruza mashg`uloti rejasiga qat'iy rioya qilish, o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasiga binoan ta'lim maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning tartibiy harakatlari.

III bosqich. Yakuniy – natijaviy - yakuniy xulosalar qilish, ushbu mavzu bo'yicha asosiy o`quv axborotiga ta'lim oluvchilar e'tiborini qaratish. O'zaro baholash va o'zining faoliyati haqida fikr yuritishni tashkillashtirish; bajarilgan ishni kelgusi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatligi to'g'risida ma'lum qilish.

Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat - **davlat ta'lim standarti** hisoblanadi. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashqari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchini qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

1. Talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumlarini belgilash.

2. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

Ta'limning tashkiliy shakllari:

Ma'ruza (arabcha, leksiya (lotincha -“lectio”) - o'qish) – o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayonidir. Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yuritiladi.(14-rasm)



14-rasm. Ma'ruza darsining olib borilishi³³

Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan ma'ruzalar o'z funksiyasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Kirish ma'ruzasi;
- Yakunlovchi ma'ruza;
- Mavzular bo'yicha muammoli ma'ruza;
- Yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ma'ruza;
- Obzorli ma'ruza. Ma'ruzalarning turlaridan qat'iy nazar barchasini funksiyasiga ko'ra muammoli ma'ruza tarzida o'qish mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar talabalarning bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimlarini real hayotda qo'llashga o'rgatishdir.

Dars jarayonida ma'ruzaning quyidagi turlari mavjud:

1. Kirish ma'ruzasi o'quv fani to'g'risida umumiy tasavvurlarni beradi va talabalarni ushbu fan bo'yicha ishlash tizimida yo'naltiradi. Bu ma'ruzada fanning nazariy va amaliy ahamiyati, uni boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning mutaxassis tayyorlashdagi o'рни, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, talabalarga tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar shuningdek hisobotning vaqti va shakllari aniq va yaqqol ko'rsatib beriladi.

2. Axborotli ma'ruza- talabalarga o'quv ma'lumotlarni tizimli bayon etish va tushuntirish uchun xizmat qiladi. Har bir bunday ma'ruza aniq bir mavzuga bag'ishlanadi va u tugallangan bo'ladi, lekin boshqalar bilan (avvalgi va kelgusidagi mavzular bilan) aniq yaxlit tizimni tashkil etadi. Bunda talabalarni tushunishi va eslab qolishi ta'minlanadi.

3. Umumlashtiruvchi ma'ruza – bu yuqori darajada ilmiy bilimlarni tizimlashtirish bo'lib, bir turdagi aniq dasturiy savollar to'g'risida qisqa va umumiy

³³ www.ziynet.uz

ma'lumotlarni berish nazarda tutiladi. Bu ma'ruzalardan o'qishning yakuniy bosqichlarida foydalaniladi (davlat imtihonlari).

4. Muammoli ma'ruza – bu ma'ruzada yangi bilimlar savol, vazifaning muammoligi yoki vaziyat orqali yetkazib beriladi. Bunda talabalarni o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda bilish jarayoni izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashtiriladi.

5. Ko'rgazmali-ma'ruza- ma'ruza materialini texnik vositalar yoki audiovideotexnikalar yordamida ko'rgazmali shaklda yetkazib berishni nazarda tutadi. Bunday ma'ruzani o'qilishi ko'rilyotgan ko'rgazmali materiallarni (slayd, rasmlar, jadval, chizma, grafiklar va b.) ochiq yoki qisqa sharhlashga olib kelinadi.

6. Binarli ma'ruza – ikki o'qituvchini (ilmiy maktab vakillari, olim va amaliyotchi, o'qituvchi va talaba) suhbat shaklidagi ma'ruzani o'qish turi.

7. Oldindan rejalashtirilgan xatolar bilan ma'ruza – taklif etilayotgan axborotni (xatolarni izlash: mazmunda, uslubiya, orfografik xatolarni) doimiy nazorat qilishda talabalarni qiziqtirishga yo'naltirilgan. Ma'ruza yakunida tinglovchilar tashhisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tahlili o'tkaziladi.

8. Anjuman-ma'ruza oldindan qo'yilgan muammo va ma'ruzalar tizimi, davomiyligi 5-10 daqiqalik bo'lgan, ilmiy-amaliy mashg'ulot sifatida o'tkaziladi. Har bir ma'ruza qilish, o'qituvchi tomonidan oldindan taklif etilgan dastur doirasida mantiqan tugallangan matnni aks ettiradi. Taqdim etilgan matnlar yig'indisi muammoni har tomonlama yoritib berishga imkon beradi. Ma'ruza yakunida o'qituvchi talabalarning mustaqil ishlarini va ma'ruza bilan chiqishlarini xulosasini qiladi, taklif etilgan ma'lumotlarni to'ldiradi, aniqlik kiritadi va asosiy xulosalarni shakllantiradi.

9. Maslahatli-ma'ruza turli ssenariyalar bo'yicha o'tkazilish mumkin. *Birinchi variant* "savol-javoblar" turi bo'yicha amalga oshiriladi. Ma'ruzachi ma'ruza vaqti mobaynida talabalar bo'lim yoki butun kurs bo'yicha savollarga javob beradi. *Ikkinchi variant* "savol-javob-munozara" shaklida o'tkaziladi, ya'ni ma'ruzachi tomonidan yangi ma'lumotni bayon etish, savollarni berilishi va berilgan savollarga javob izlash maqsadida munozarani tashkillashtirish.

7.3.Ma'ruza shaklida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari

11-jadval

Ma'ruza shaklida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'lumotli	Ma'ruzaning eng an'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish
Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli	Kursni yoki uning katta bo'limlarini bayon etilgan nazorat holatlari negizini, avvalom bor ilmiy-tushunchaviy va konseptual asos tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqalarni yoritib berish.

Muammoli	Yangi bilimlar savol / vazifa / vaziyatlarni muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o`qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o`quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash uni yechish / jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish
Ko`rgazmali	Bunday ma'ruzani olib borilishi ko`rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish
Binarli	Bunday ma'ruzani olib borilishi ikki o`qituvchi / 2-maktab vakillari / olim va amaliyotchilar, o`qituvchi va talabalar o`rtasidagi suhbatni namoyon qiladi</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o`quv ma'lumotlarni ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish
Oldindan ko`zlangan xatoliklar bilan	O`qituvchi ongli ravishda yo`l qo`ygan mazmunli, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashhisi va qo`yilgan xatoliklari tahlili olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma'lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish
Anjuman	O`qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg`ulot olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o`quv ma'lumotini yoritib berish, talabalarni yangi o`quv ma'lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish
Maslahatli	Turli yo`l bilan o`tkazilishi mumkin. 1. "Savol-javob". O`qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo`lim bo`yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. "Savol-javob-munozara". Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo`yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to`ldirish

8- bob. SEMINAR – TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TARKIBI

Reja

- 8.1. Seminar darsi va uning o`quv jarayonida tutgan o`rni
- 8.2. Seminar darsining turlari va funksiyalari.
- 8.3. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil qilish.
- 8.4. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi mazmuni va uning tuzilishi

8.1. Seminar darsi va uning o`quv jarayonida tutgan o`rni

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg`ulotni o`qitish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- Nazariy materialni tartibga solish.
- Ko`nikmalarni hosil qilish.
- Bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg`ulotining didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish, mustahkamlash.
- Bilimlarni tekshirish va nazorat qilish.
- Kitob bilan mustaqil ishlash ko`nikma va malakalarini singdirish.
- Nutq madaniyatini rivojlantirish.
- O`z fikrida daliliy turish ko`nikmasini shakllantirish.
- Tinglovchilarni savollariga javob berish ko`nikmasini shakllantirish.
- Boshqalarni tinglash, savollar berish ko`nikmasini shakllantirish.

Ta'lim beruvchi seminarni samarali o`tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o`zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo`lishi;
- o`quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o`quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Seminar mashg`ulot rejasi asosiy materialni qamrab olishi va qisqa, aniq, tushunarli bo`lishi zarur.

Tayyorgarlik va seminarni olib borish bir qator savollarga javob berishni talab etadi:

1. *Nima uchun?* - Vazifa va seminarni olib borish umumiy qilib olganda ta'lim berish maqsadlariga mos bo`lishi kerak.

2. Seminar shaklida olib borish texnologiyasini *Qanday qilib?* - ishlab chiqish kerak

3. Seminar vaqtida muhokama qilish kerak bo`lgan, material mazmunida - *Nimani?* ishlab chiqish zarur.

4. Seminarni olib borish vaqtida, ya'ni hisobga olish muhim bo`lgan omillar- *Nimani hisobga olgan holda?* elgilanishi zarur.

5. Seminarni boshqarish uchun uning samaradorligini ta'minlash maqsadida undan foydalanish mumkin bo`lgan, ta'sir etish vositasini- *Qanday yo'l bilan?* aniqlash mumkin.

Seminar mashg'uloti samaradorligi - bu har bir seminar ishtirokchisi uchun eng ko'p individuallik samaradorligi hisobi bilan, belgilangan maqsadlarga erishishdir. Bunda, samaradorlik mezonlari:

a) *Mazmunli mohiyatga ko'ra:*


-yangi axborotga ega bo'lish yoki avvaligisini o'zgacha tarkiblashtirish;

-yangi muammolarni va kelgusi o'quv materialini o'zlashtirish uchun savollarni aniqlash.

b) *Jarayonli mohiyatga ko'ra:*

- munozarani tuzilmaliligi-tinglochlarni natija va ish bo'yicha hamkoriga bo'lgan salbiy munosabatning yo'qligi;

- reglamentga rioya qilish - tartibga muvofiq ishlash.



Seminar (lotincha – seminarium – manba, ko'chma ma'noda - maktab) – o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlari talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiradi(15-rasm).

15-rasm. Seminar darslarining olib borilishi.³⁴

Seminar turlari:

birinchidan, o'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari;

ikkinchidan, ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar;

uchinchidan, tadqiqot xarakteridagi seminarlar.

Amaliy mashg'ulotlar

ko'pincha ma'ruza mashg'ulotlarida olingan bilimlarni mustahkamlaydi.

Talabalarni mustaqil o'rganishga o'rgatadi(16-rasm).



16-rasm. Amaliy darslarning olib borilishi³⁵

³⁴ www.exponenta.ru



Laboratoriya mashg`ulotlari asosan aniq, tabiiy va texnik fanlardan bilimlarni mustahkamlashda qo`llaniladigan ta`limni asosiy shakllaridandir. Mazkur mashg`ulotda talabalar pedagog rahbarligida o`zlariga berilgan topshiriqlarni bajaradilar va bu materiallarni o`zlashtirishga asos bo`ladi. (17-rasm.)

17-rasm. Laboratoriya darslarining olib borilishi³⁶

Ekskursiya mashg`uloti o`quvchilarda olingan nazariy bilimlarni umumlashtirish, ko`z bilan ko`rish hamda amaliy ko`nikmalarni shakllantirish imkoni bera oladigan ta`lim shakllaridan hisoblandi(18-rasm).



18-rasm. Ekskursiya mashg`uloti³⁷

12-jadval

Seminar mashg`ulotlarida ta`lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish

Bunday seminarlarni o`tkazishning asosiy yo`li ta`lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma`ruza va ma`lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat.

Bunday seminarlar samaradorligi ta`lim oluvchilarni seminarga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma`ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta`lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo`ladi.

1. Тайёргарлик босқичи



³⁵ www.ziynet.uz

³⁶ www.ifmr.uz

³⁷ www.ziynet.uz

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Oldindagi seminar uchun ma'ruza/yangiliklar mavzular ro'yxatini taklif etadi. O'quv fanini bundan keyin o'zlashtirishda, zamonaviy ijtimoiy/iqtisodiy va boshqa kelgusidagi kasbiy faoliyatlaridagi muammolarda to'liq yo'nalish olishda ularning muhimligini tushuntiradi. Seminarga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini taviya etadi. Mavzular tanlashni tashkillashtiradi. Tanlangan mavzu bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzib chiqish vazifasini beradi. Faqat ma'ruza qilayotgan talabalar tayyorgarligini ta'minlab qolmasdan, balki barcha seminar ishtirokchilariga: seminar mashg'uloti mavzusiga bog'liq bo'lgan ma'ruza mazmunini va qo'shimcha materiallarni o'rganish vazifasini beradi, o'zlashtirilgan bilimlar va belgilangan mavzular muhokamasini nazorat qilishga tayyor bo'lishlarini aytadi.	Seminarga tayyorlanadilar. Ma'ruza/yangiliklar mavzusini tanlaganlar referat rejasini tuzadilar
Referat rejasini muhokama qiladilar	
	Tezlikda boshlang'ich g'oyaga o'zgartirish, aniqliklar, to'ldirishlarni kiritadi. Referat yozadilar.
Tayyorlangan referat mazmuni bilan tanishadi. Lozim bo'lgan holda talabalar referatni to'ldirishlari uchun savollar, shuningdek ma'ruza qilayotganda javob berishlari uchun savollar ham beradi	
Seminarda ma'ruza qilishning tuzilishi va usulini muhokama qiladi	

13-jadval

2. Амалга оширувчи босқич: семинар

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Seminarga kirish. 1.1. Mavzu muhokamasini eslatadi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini, ma'ruza materiali bilan bog'liqligini asoslaydi. 1.2. Ta'lim oluvchilarni materialga mos ravishda: (1) avvaldan tayyorlangan savollar bo'yicha, mazmunli aniq javoblarni nazarda tutuvchi, suhbatli shaklda, (2) matnni to'g'rilovchi nazorat yordamida bilimlarni <i>faollashtiradi</i>. Bilimlarni faollashtirish jarayonida seminarda keyingi ma'ruzalarni tushunishlari uchun talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning yetarililigini va ularni muhokamadagi ishtiroklarini	Savollarga javob beradilar, savollar beradilar

aniqlaydi. Bilimlar yetarlicha to'liq bo'lmaganida zarur bo'lgan bilimlarni ularni shaxsiy bayon etish/talabalar bilan suhbat shaklida o'zlashtirish/aniqlashtirish/o'zgartirishlarni (ikkinchi variant samaraliroq hisoblanadi) tashkillashtiradi.	
2. Asosiy qism. 2.1. Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va yangiliklari taqdimotini tashkillashtiradi. Ma'ruza jaryonida o'quv materialini mantiqiy yoritib berishini, uni bayon etish yo'li, tinglovchilarning ta'sirlanishini diqqat bilan kuzatadi. Ma'ruza yoki yangiliklar mazmuni tinglovchilarni qiziqitirmay qo'ygan holda, yoki aksincha, ma'ruza vaqtida ko'tarilgan savol yuqori qiziqishni uyg'otsa, ma'ruzachini ma'lum vaqtgacha xushmuomalalik bilan to'xtadi va seminarini jamoaviy muhokama yo'lga o'tkazadi. 2.2. Ma'ruza mazmunining jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi (bu seminarining eng ahamiyatli qismi bo'lgani sababli, talabalar faol bilish faoliyatiga jalb qilinadilar). Bunda bu mazmun: seminar ishtirokchilarini ma'ruzachiga bergan savollar mazmuni bo'yicha va o'qituvchini talabalarga bergan savollariga (odatda, agarda ularning o'zlari savollar bermaganlarida yoki ularning savollari mavzu mazmunini alohida tomonlariga taalluqli bo'lsa, talabalarga savollarni tavsiya etadi) javoblari bo'yicha talabalarga qay darajada tushunarli bo'lganini baholash. <i>Seminarini sekin-asta tashkillashtirilgan munozara shakliga o'tkazadi.</i> Har bir ma'ruzani muhokamasini qisqa umumlashtirish, ma'ruzaning asosiy holatlari va muhokama (munozara) natijalarini qayd etish bilan tugatadi	Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va yangiliklari taqdimoti. Ma'ruza mazmunini jamoaviy muhokama qiladilar, bahslashadilar

8.2. Seminar darsinining turlari va funksiyalari

Suhbat - seminar. Eng ko'p tarqalgan tur hisoblanib, reja bo'yicha ochiq suhbat shaklda o'tkaziladi, ya'ni qisqa talabalarni so'zga chiqishlari va o'qituvchini yakunidan iborat bo'ladi. Talabalarni seminar rejasi savollari bo'yicha tayyorlanib kelishlari nazarda tutiladi.

Ma'ruza va referatlarni eshitish va muhokama qilish-seminar. Bu talabalar o'rtasida ma'ruza va referat mavzularini dastlabki taqsimlash va tayyorgarlikni nazarda tutadi.

Ma'ruzada uch asosiy qismni ajratadilar:

1. Kirish bo'lib, bunda mavzu uning ahamiyati aniqlanadi.
2. Asosiy, bunda mavzu mazmuni bayon etiladi.
3. Yakuniy, bunda mavzu umumlashtiriladi, xulosalar qilinadi.

Ma'ruzaning davomiyligi 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Seminarini asosiy markazi bo'lib ma'ruza muhokamasi, savol-javob va ma'ruza muhokamasi, ma'ruzachining yakuniy so'zga chiqishi.

Referatlarni tayyorlash. Talabani ijodiy ishining murakkab shakli hisoblanib, u insho yozish, tugallangan mehnatni anglatadi.

Referat mavzulari taqsimlayotganda bir vaqtning o'zida opponentlarni ham belgilaydilar. Ular oldindan referat mazmuni bilan tanishishlari va unga taqriz tayyorlashi kerak. Taqrizda: uning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish, uni mazmuni bo'yicha to'ldirishlarni kiritish yuzasidan tavsiyalar berish kerak. Opponentlardan so'ng muhokamaga talabalar qo'shiladilar. Yakunda o'qituvchi referatga, opponentga va boshqa so'zga chiqqanlarga baho beradi.

Disput (tortishuv)-seminar. Muammoni asosli hal etish yuzasidan jamoaviy muhokama qilishni nazarda tutadi. Disput-seminar dialogik muloqot shaklida olib boriladi. U yuqori aqliy faollikni nazarda tutadi, tortishuvni olib borish, materialni muhokama qilish, nuqtai nazar va o'z fikrini himoya qilish, o'z fikrlarini keng va aniq bayon etish ko'nikmasiga odatlantiradi.

Qo'shma shakldagi seminar. Bu ma'ruzalar muhokamasi, erkin so'zga chiqishlar, shuningdek munozarali muhokamalarning birikmasidir.

Seminarda savol-javobli o'qitish texnikasi.

1. Savolni to'g'ri ifodalash va so'ngra savol berish. Ular o'zaro mantiqan aloqaga ega bo'lishi kerak.

2. Mazmun va shakli bo'yicha savollar talabalarning rivojlanish darajasiga mos kelishi zarur – oson savollar faol bilish faoliyatini uyg'otmaydi.

3. Har bir savolni barcha o'quv guruhiga beriladi va o'ylab bo'lingandan so'ng javob berish uchun talabalardan biri chaqiriladi.

4. "Baqirib" javob berayotgan talabalarni rag'batlantirilmaydi.

5. Ko'proq faol ishtirok etmayotganlardan so'raladi, qolganlarga noaniq javoblarni to'g'rilashga yoki to'ldirishlarigi imkon berish kerak.

6. Uzoq bo'lgan savollar berilmaydi. Agarda berilgan savolga hech bir talaba javob bera olmasa, savolni boshqatdan ifodalash, qismlarga bo'lish yoki yo'naltiruvchi savol berish kerak.

8.3. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil qilish

Ma'lumki, dars qat'iy jadval asosidagi mashg'ulotlar va barcha uchun yagona dastur bo'yicha doimiy tarkibdagi bir xil yoshdagi bir guruh o'quvchilar bilan ta'lim berishni tashkillashtirish shakli hisoblanib, uning maqsadi- bu biror bir obyektning hosil qilish bo'yicha ko'zlanayotgan, oldindan rejalashtirilgan faoliyat natijasidir.

Masalan: dars maqsadi – ...to'g'risida tushunchalarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.

O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining turli ko'rinishlari bilan tavsiflanadigan har bir darsning asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu elementlar turli bog'lanishlarda namoyon bo'ladi va darsning tuzilishini, dars bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ya'ni uning tuzilishini aniqlab beradi.

Darsning tuzilishi dars elementlarini aniq izchillikda va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mos kelishidir.

Darslarni tashkillashtirish maqsadi, o`rganilayotgan material mazmunining xususiyati va o`quvchilarni bilimliligi darajasi bo`yicha quyidagicha tasniflanadi va darslar besh turga bo`linadi:

Yangi o`quv materialini o`rganish darslari – unig maqsadi o`quvchilarni yangi materialni egallashi hisoblanadi.

*O`rganish shakli:* ma`ruza, tushuntirish, suhbat, kitob bilan mustaqil ishlash.

*Darsning tuzilishi o`tilgan mavzuni takrorlash:* avvalgi o`quv materialini takrorlash; o`qituvchini yangi materialni tushuntirishi va kitob bilan ishlash; tushunganlarni tekshirish va mustahkamlash; uyga vazifa.

Bilimlarni mustahkamlash darslari darsda o`quv ishining asosiy mazmuni avval o`zlashtirilganlarni mustahkamlash maqsadida ularni qayta anglab etish hisoblanadi.

Darsning tuzilishi ko`nikma va malakalarni hosil qilish va mustahkamlash: nazariy bilimlarni qayta tiklash; amaliy topshiriq va mashqlar bajarish; mustaqil ishlarni bajarilganligini tekshirish; uyga vazifa berish.

Umumlashtirish va tizimlashtirish darslari – bu darsda avval o`rganilgan materialdan eng muhim bo`lgan savollar tizimlashtiriladi va qayta tiklanadi, talabalar bilimi to`ldiriladi. Bunday darslar alohida mavzu, bo`lim va o`quv fani kursini o`rganishning oxirida o`tkaziladi.

Darsning tuzilishi: o`qituvchini ma`ruzasi va uni yakuni.

Qaytarish va umumlashtirish shakli: hikoya, qisqa ma`lumotlar berish, suhbat.

**Bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish (nazorat) darslari** – bu darsda o`quvchilarni tayyorgarlik darajasini aniqlanadi, materialni egallashdagi kamchiliklar aniqlanadi, kelgusi ish yo`llarini belgilashga yordam beriladi. Nazorat darslari o`quvchilardan berilgan mavzu bo`yicha barcha bilim, ko`nikma va malakalarni qo`llashni talab etadi. Tekshiruv og`zaki yoki yozma shaklda o`tkaziladi.

Kombinatsiyalangan yoki aralash dars – bu darsda bir qancha didaktik vazifalar hal qilinadi.

Darsning tuzilishi: uy vazifasini tekshirish va o`quvchilardan so`rash; yangi o`quv materialini o`rganish; o`zlashtirilganni dastlabki so`rash; mashq qilish yo`li orqali bilimlarni mustahkamlash; suhbat ko`rinishida avval o`rganilganlarni qaytarish; o`quvchilar bilimini tekshirish va baholash; uyga vazifa berish.

Yuqorida tavsiflangan darslarning asosiy elementlari bo`lib tashkiliy qism va dars yakuni hisoblanadi.

Tashkiliy qism maqsadni bildirish va uni o`quvchilar qabul qilishini ta`minlash, ish muhitini yaratish, o`quv faoliyatining asosini faollashtirish va qabul qilishga, tushunishga, eslab qolishga yo`naltirishni nazarda tutadi.

Darsning yakuniy bosqichida maqsadga erishilganlikni, o`quvchilar ishtirokini, alohida o`quvchilar ishini baholash, va kelgusi ish rejalarini aniqlashni belgilab olish muhim hisoblanadi.

O`quv faoliyatini tashkillashtirishning qo`shimcha shakllari: ekskursiya, maslahat, uy ishi, o`quv anjumanlar, qo`shimcha mashg`ulotlar.

Darsdagi ta`lim texnologiyasi qanday bo`lishi kerak?

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning **ta'lim modeli** jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

14-jadval

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....	
Vaqt: soat	Talabalar soni: ...
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq.), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi	1. ... 2. ...
O'quv mashg'uloti maqsadi:	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
Pedagogik vazifalar: ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	O'quv faoliyati natijalari: ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
Ta'lim shakli	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

8.4. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi mazmuni va uning tuzilishi

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o`quv jarayon)i bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo`llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadani farqli o`laroq texnologik xaritada:

- (1) o`quv mashg`ulotining bosqichlari va vaqti;
- (2) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati;
- (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari;
- (4) ta'lim maqsadlarining o`quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko`rsatiladi.

Masalan, texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari quyidagicha bo`ladi:

1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O`quv mashg`ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o`quv mashg`ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o`rgatuvchili o`yin va boshq.), mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxatini, o`quv mashg`ulotida o`quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
- Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi o`quv mashg`ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko`zlanayotgan o`quv natijalariga erishish bo`yicha ta'lim oluvchilar o`quv faoliyatini boshqaradi.
- Ta'lim oluvchilar ko`zlanayotgan o`quv natijalariga erishish bo`yicha rejalashtirilgan o`quv harakatini bajaradilar.

3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzu bo`yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiy qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o`zaro baholashning yakunini chiqaradi; o`quv mashg`uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.
- Ta'lim oluvchilar o`zaro baholashni o`tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O`quv mashg`uloti-ga kirish qismi	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg`ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxatini aytadi. 1.3. O`quv mashg`ulotida o`quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar
2-bosqich. Asosiy qism	2.1. Tezkor-so`rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2.Ma`ruza/ seminar/ amaliy mashg`ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo`yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh
3-bosqich. Yakuniy qism	3.1.Mavzu bo`yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e`tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o`quv mashg`ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi	O`z-o`zini, o`zaro baholashni o`tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

9-bob. INNOVATION TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR. KEYS-STADI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Reja

1. *Ta'lim jarayonida keys-stadi uslubini keng tatbiq qilishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari.*
2. *Keys texnologiyasining umumiy tavsifi.*
3. *Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari.*
4. *Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi.*
5. *Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari .*
6. *Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari.*
7. *Keyslar tipologiyasi.*

9.1. Ta'lim jarayonida keys-stadi uslubini keng tatbiq qilishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari

Keys-stadi asosida o'qitish usuli sifatida xorijiy ta'limda avval-boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Ana shu vaqtdan boshlab HBS keyslarning boy to'plamini yig'di va mazkur uslubni ta'limning mustaqil konseptsiyasi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra keys-stadi uslubini ko'pincha garvard uslubi deb atashadi. O'z mohiyatiga ko'ra, garvard uslubi ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv treningidan iboratdir.³⁸

Keys-stadining ikki klassik maktabi - Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur uslub yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish usuli hisoblanib, ikkinchi maktab keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantlilikini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rganishga o'quv vaqtining o'rtacha 25 %dan 90 %gacha bo'lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25 % keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida – 30 %, Uortonda esa – 40 % to'g'ri keladi. Mashg'ulotlarni ushbu uslub bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha uning "ilk ixtirochisi" –

³⁸ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy talaba HBSda o`qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko`rib chiqadi va buning uchun o`quv vaqtining 90 %gacha qismini sarflaydi.

Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog`i asosiy fanlar - menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.

Mamlakatimizdagi ta`lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo`llaniladi. Keyingi yillarda oliy o`quv yurtlarida ham o`qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

**Keys-stadini ta`lim
jarayonida keng ta`lim
jarayonida keng tatbiq
qilishning dolzarbligini
belgilovchi omillar**

Keys-stadini iqtisodiy oliy o`quv yurtining ta`lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligini va zarurligi quyidagi omillar bilan bog`liq:

Birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy ta`limning umumiy yo`nalishi, uning nafaqat ta`lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu

bilan birga talabalarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo`llashga tayyorlik va bunga qobiliyatni rivojlantirish, bo`lg`usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog`liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo`naltirilganligi bilan.

«Insonning qo`liga baliqni tutqazsang – u bir kun qorni to`q yuradi, mabodo insonni baliq to`tishga o`rgatsang – u butun umri davomida ochlik nimaligini bilmaydi» - xitoylik donishmandlarda shunday hikmatli gap bor. Auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko`nikmalar egallanmasa, keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo`lib chiqish mumkin emas. Kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o`zining boshqarish siyosatini ishlab chiqish uchun talabalar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko`nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o`stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirish zarur.

«Maslahat berish mumkin, lekin bunday maslahatdan foydalanishga o`rgatish mumkin emasligi» haqiqatdir. O`rganib olgach omadli iqtisodchi, moliyachi yoki menejerga aylanib olishga imkon beradigan qandaydir yagona, universal uslub yoki usul mavjud emas. Shuning uchun iqtisodchilarni tayyorlashning hozirgi tizimi turli xil dinamik rivojlanayotgan amaliy vaziyatlar modellaridan keng foydalanishga asoslanadi. Talabalarining keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o`zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo`lib ularni optimal hal qilish yo`llarini izlash malakalarini egallashi, bo`lg`usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - iqtisodiy faoliyatda o`zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, iqtisodiy jarayon mantig`ini qurish usullari, shuningdek iqtisodiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotining nostandart vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga **muhtojligi** bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, jahon tajribasi ko'rsatib to'rganidek, keys-stadi talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida etishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keys-stadining bo'lg'usi iqtisodiy yo'nalishdagi mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy jihatdan muhim fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usullari va vositalari, nazarimizda jadvalda ishonarli tarzda aks ettirilgan.

16-jadval

Keys-stadining shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usul va vositalari

Mutaxassis fazilatlari	Keys-stadining shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usul va vositalari
Mavhum sharoitlarda vaziyatni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarni topish qobiliyati	Vaziyat subyektining fazilatlari va kamchiliklarini taqqoslash va baholash, vaziyatning rivojlanish mantig'ini ajratib olish, muammoning oqilona yechimini izlash
Bir tizimli fikrlash, mulohazakorlik, bozor vaziyatidagi parametrlar va o'zaro aloqalarni tushunish	Vaziyat xususida har tomonlama fikr yuritish, uni maqsadli tahlil etish, subyektlarni ularning tuzilmaviy-funksional ifodasida yaxlitligicha idrok etish
Mustaqillik va tashabbuskorlik	Mavhumlik sharoitida vaziyatlar tahlili, oqilona yechimning ishlab chiqilishida o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladigan va qo'llab-quvvatlanadigan mustaqillik va faollik
O'zgarishlarga tayyorlik, qayishqoqlik	Muntazam o'zgarib turadigan vaziyatlarda optimal fe'l-atvorning ishlab chiqilishi
Amaliy yo'nalishlilik	Muammoli vaziyatning hal etilishida nisbatan amaliy natijaga erishish uchun doimiy izlanish
Axborotlar bilan ishlash mahorati	Doimiy ravishda asosiy axborotni izlash va tanlash, uni tuzilmalarga ajratish, yana qayta tuzilmalash, uni tahlil etish, tasniflash, bir taqdimot shaklidan boshqacha shaklga o'tkazish, o'zaro axborot almashinish
Kommunikativlik, empatiya	Muammoli vaziyat yechimi va uning maqsadga muvofiq tarzda hal etilishini tanlash yuzasidan o'z pozitsiyasini har

	doim aniq bildirish, dalillash va o'zining nuqtai nazarini himoya qilish; keys bilan guruh bo'lib ishlash, munozaralar va o'z fikrini o'tkazish paytida jamoaning oshkora muloqot va axborot almashinish, adolatli, konstruktiv va taktikali tanqidga hamda uni qabul qilishga, birgalikdagi faoliyatda ishonchga va hamfikrlikka asoslangan bahamjihat harakati
Muammoli, mantiqiy fikrlash	Muamoning izlanilishi va ifodalanishi hamda uning asosiy tavsifnomalari belgilanishi, uni hal etish usullari va vositalarining asoslanishi
Konstruktivlik	Muammoni hal etish modelining ishlab chiqilishi, konstruktiv yechimlarning izlanishi va ifodalanishi
Nazokatlilik	Jamoaning o'z fikrini o'tkazish, munozaralar, guruh bo'lib ishlashga asoslangan doimiy bahamjihat harakati

Va, nihoyat, keys-stadi interaktiv uslub bo'lgani sababli talabalar tomonidan unga nisbatan ijobiy munosabat bo'lishiga erishadi, ular ushbu uslubni o'quv axborotini o'zlashtirish va undan foydalanish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni ta'minlaydigan amaliy qo'llanma (praktikum) sifatida qabul qiladilar.

9.2. Keys texnologiyasining umumiy tavsifi.

Asosiy kategoriyalar va tushunchalar

☞ **Keys** – bu real hayotning «bir parchasidir» (inglizcha - TRUE LIFE atamasiga ko'ra). Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki vaziyatni tushunish va baholashga imkon beradigan

yagona axborot kompleksidir.

☞ **Keys-stadi** (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta'lim uslubidir*.

☞ **Keys-stadi** - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan *ta'lim texnologiyasidir*.

☞ **Vaziyat** (situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in'ikosidan iboratdir.

☞ **Muammoli vaziyat**. Mazkur holda vaziyat subyektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Keys-stadining mohiyatli belgilari va didaktik o`ziga xos xususiyatlari

Keys-stadining mohiyati shundan iboratki, mohiyatiga ko`ra ko`rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo`yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo`lgan talabalarga quyidagilar taklif qilinadi:³⁹

- keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o`zlashtirilishi va qo`llanilishi lozim bo`ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o`tkazish;

- muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;

- taklif etilgan muqobil jihat(alternativa)larni baholash va ular orasidan qo`yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;

- tanlangan muqobil usul(alternativa)ni amalga oshirish bo`yicha aniq yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Keys-stadining mohiyatli belgilarini ifodalaymiz:

1. Holati asosiy parametrlari bo`yicha muayyan diskret vaqtda ishlarning real ahvolini yana qayta tiklaydigan vaziyat shaklida taqdim etilgan *institutsional tizim modelining mavjudligi*.

2. *Berilgan vaziyatning muammoliligi*.

3. *Vaziyatning to`liq chizmaiy emasligi* va, buning oqibati sifatida, unda *mustaqil, shablon bo`lmagan yechimlarni talab qiladigan mavhumlikning mavjudligi*.

4. *Yechimlarning ko`plab muqobil jihat (alternativa)larga egaligi*: har bir qatnashchi o`zining bilimi, tajribasi va sezgi(intuitsiya)sidan kelib chiqib o`z variantini taklif qiladi.

5. *Muammoli vaziyat optimal yechimining yakka tartibda, so`ngra jamoa bo`lib ishlab chiqilishi va ommaviy taqdim etilishi* (Shuningdek, keys bilan mutlaqo yakka tartibda ishlashga va natijalarni yakka tartibda taqdim etishga ham yo`l qo`yiladi).

6. *Muammoli vaziyat tahlili va uning yechimini ishlab chiqishdagi yagona maqsad*.

7. *Faoliyat natijalarini guruh bo`lib baholash tizimi*.

8. *Ta`lim oluvchilarda boshqariladigan hissiy (emotsional) keskinlikning mavjud bo`lishi*.

9. O`qituvchi va talaba ta`lim jarayonida ayni bir paytda *ham mas`ul, ham erkin* bo`ladi:

- O`qituvchi keysning tayyorlanishi va uning o`quv-uslubiy ta`minoti, shuningdek undan samarali foydalanish uchun *mas`uldir*.

- Talaba mashg`ulotga tayyorlanish va keys bo`yicha o`quv topshiriqlarini samarali bajarish uchun *mas`ul*, ayni bir paytda u muammoli vaziyatni tahlil etish natijasida yechimlar va xulosalarni ishlab chiqish borasida *erkin ish tutadi*.

³⁹ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

• Talaba o`quv sharoitida muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishda xatoga yo`l qo`yishi mumkin, lekin u real hayotda qabul qilinadigan noto`g`ri yechim uchun mas`uliyat hissini sezishi kerak.

10. Ta`lim natijalarini rejalashtirish va ularga erishishda ta`limdagi oshkoralik bilan qat`iyatlilikning qo`shib olib borilishi.

Keys-stadi ta`lim uslubi sifatida quyidagi **didaktik o`ziga xos xususiyatlarga** ega:

• Keysda taqdim etilgan aniq vaziyat ta`limning voqelik bilan o`zaro aloqasini ta`minlaydi, chunki u kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun tipik muammolarni aks ettiradi. Bunda o`rganish jarayoni, o`z mohiyatiga ko`ra, real hayotda yechimni qabul qilish mexanizmini ifodalaydi.

• Keys undan foydalanuvchiga muammolarni tahlil etish, bir xillashtirish va hal qilish yo`llarini izlashda erkinlik beradi.

• Keysni ko`rib chiqishda talabalar ta`lim jarayonining tashkilotchilariga aylanadilar va bir-biri bilan o`zaro bahamjihat harakat qilish orqali real kommunikatsion holatlarni ifodalashadi (masalan, bank - korxona).

• Ta`lim oluvchilar aniq vaziyatni ko`rib chiqish jarayonida muayyan umumlashgan, konseptual tusga ega bilimni shakllantirishga muvaffaq bo`ladilar va ayni bir paytda oddiy umumlashtirish malakalarini orttiradilar.

• Amaliy vaziyatlarga asoslangan mashg`ulotlar nazariy tayyorgarlik davrida olingan bilimlar, shuningdek talabalarning o`z malaka va mahoratlaridan foydalanish va amalda qo`llanishga yo`naltiriladi.

• Keys bilan ishlash natijalarining ommaviy taqdim etilishi taqdimotlar o`tkazish va matbuot anjumanlarida qatnashish: axborotni lo`nda, mantiqan va ko`rgazmali tarzda taqdim etish, savolni ifodalay bilish va javobni dalillash malakalarini hosil qilishga ko`maqlashadi.

• Keys-stadi ta`limning boshqa uslublaridan farqli ravishda nafaqat ta`lim berish va trening, shu bilan birga diagnostik/nazoratchilik funksiyalarini ham bajaradi.

Talaba *imtihon oldidan* keysni olishi: uni hal qilishi va amaliy vaziyat tahlilini hamda uni hal qilishga doir takliflarini yozma ish shaklida tadim etishi mumkin.

Keys talabalarga *bevosita imtihon paytida* taklif qilinishi ham mumkin. Lekin bunday holda u ancha qisqa bo`lishi, maqsadlari esa ularni talaba belgilangan vaqt davomida hal qilishga ulguradigan holatda bo`lishi kerak.

Talabalarning o`quv fani bo`yicha *auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishi* keyslar turkumining yechimini o`z ichiga olishi mumkin. Natijalarning grafikka binoan yozma taqdim etilishi (muddatlar o`quv rejasi va ta`lim dasturiga muvofiq belgilanadi) o`quv axborotlarining o`zlashtirilishi, ushbu kurs bo`yicha DTSGa ko`ra nazarda to`tilgan malaka va ko`nikmalarni operativ nazorat qilish va baholashga imkon beradi.

**Keys-stadining
ta`limdagi
funksiyalari**

Keysning ko`p maqsadli tusga egaligi keys-stadining muhim afzalligidir: u vaziyat parametrlarini o`zgartirish bilan uning o`quv maqsadlarini ham o`zgartirishi mumkin.

Keys-stadi ta`limda quyidagi funksiyalarni amalga

oshiradi:

- *ta'lim beruvchilik*: o'rganilgan mavzu/kurs bo'yicha bilimlarning mustahkamlanishi (nazariy ta'limdan keyin); ilmiy tadqiqot, amaliy vaziyatlarni tahlil etish usullari va vositalarini o'rgatish; muammolarni yakka tartibda va guruh bo'lib tahlil etish, strategiyalarni ishlab chiqish va yechimlarni qabul qilish qobiliyatlari va malakalarini orttirish;
- *rivojlantiruvchilik*: bilish va ijodiy qobiliyatlarni, mantiqiy, bir tizimli tusda fikrlash, o'zini o'zi tartibga solib turish, refleksiyaning, muhitdagi o'zgarib turadigan shart-sharoitlarga ko'nikish qobiliyatini rivojlantirish;
- *motivatsion*: o'quv fanini o'rganishga shaylik, yechimlarni mustaqil tarzda qabul qilishni rag'batlantirish;
- *tarbiyachilik*: mas'uliyat, mustaqillik, kommunikativlik, empatiya va refleksiyaning shakllantirish;
- *nazoratchilik (diagnostik)*: o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha o'quv axborotini o'zlashtirish, malakalar va ko'nikmalar sifatini tekshirish;
- *treningli*: o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni mustahkamlash.

9.3.Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari

Mamlakat iqtisodiy ta'lim tizimidagi o'qitish texnologiyalari gumanizm tamoyillariga asoslanadi. Ularning asosiy farqlanib turuvchi xususiyati talaba – iqtisodiyot sohasidagi bo'lg'usi mutaxassisning individualliligi, uning shaxsiga alohida e'tibor qaratish, individual o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda mustaqil faol bilish faoliyatiga aniq yo'nalish berishdan iborat.

Biz ana shunga asoslanib, iqtisodiy ta'limda keys-stadi texnologiyasini loyihalashtirish va amalga oshirishga nisbatan konseptual yondashuvlarni ajratib ko'rsatamiz:

- *Ta'limga nisbatan shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi yondashuv*. U o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayoni barcha qatnashchilarining individual, guruh va jamoa bo'lib rivojlanishi, ta'lim subyekting turli-tuman shaxsiy fazilatlarini shakllantirish rusumlari asosida to'laqonli rivojlantirilishini nazarda tutadi. Bu nafaqat ta'lim jarayonining individuallashtirilishi va tabaqalanishini - Davlat ta'lim standartlari talablariga rioya qilgan holda talaba shaxsining intellektual rivojlantirilishi darajasiga yo'naltirish, shu bilan birga o'qituvchi o'zining ham psixologik-professional va shaxsiy xususiyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olishni anglatadi.

- *Ta'limning tashkil etilishiga nisbatan bir tizimli yondashuv*. Ta'lim texnologiyasi tizimga xos hamma belgilar: jarayon mantiqi, uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligiga ega bo'lishi kerak.

- *Ta'limga nisbatan faoliyatli yondashuv*. Keys-stadining shaxsning protsessual xususiyatlarini hosil qilish, talaba faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning jamiki qobiliyatlari va imkoniyatlari, tirishqoqligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga yo'naltirilishini taqozo etadi.

- *Ta'limga nisbatan muloqotli yondashuv.* Keys bilan ishlash jarayonida ta'lim protsessi subyektlari-qatnashchilarining psixologik yakdilligi va bahamjihat harakat qilishi muhiti yaratilishi zarurligini belgilaydiki, buning natijasida shaxsning o'zini o'zi dolzarblashtirishi va o'zini o'zi taqdim etishga urinishiga undaydigan ijodiy jarayon kuchayadi.

- *Pedagogik faoliyatning «muvaffaqiyat qozonish»ga yo'naltirilishi.* O'qituvchining talabalar erishgan yutuqlarni muntazam ta'kidlab turishi va "ma'qullashi" orqali ularni g'alaba qozonish sari faollashtirish va rag'batlantirishdan iborat. Talabalarning aynan shu o'zi erishgan yutuqlarni his etishi - keys-stadining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri, ta'lim oluvchilarda o'qishga nisbatan barqaror ijobiy (pozitiv) motivlarni shakllantirish, bilishga oid faollikni kuchaytirish omilidir.

- *Hamkorlik muhitida ta'lim olish.* U o'qituvchi bilan talabaning subyektiv munosabatlarida demokratizm, tenglik, sheriklik, muammoli vaziyatni hal qilish va erishilgan natijalarni baholash borasida guruh va jamoa faoliyatining amalga oshirilishini nazarda tutadi.

- *Muammoli ta'lim.* Bu o'qituvchining talabalar bilan ta'lim mazmunini muammoli tarzda tasavvur etish asosidagi faol bahamjihat harakat qilish usullaridan biri bo'lib, ana shunday ta'lim jarayonida obyektiv ziddiyatlarni aniqlash, muammolarni ajratish va shakllantirish, ularni hal etish usullari va vositalarini izlash bo'yicha mustaqil ijodiy-biluvchilik faoliyati, shuningdek dialektik tafakkurni hosil qilish va rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llanishi ta'minlanadi.

- *Sinergetik yondashuv.* Uning mohiyati guruhga vaziyat muhitini singdirish, bilimlarni orttirish, insaytli onglilik, kashfiyotlar bilan almashinish samaralarini shakllantirish va boshqa ko'plab rusumlarni tayyorlashdan iborat.

- *Loyihali ta'lim.* Ta'lim beruvchi loyihali texnologiyadan farqli ravishda keys-stadida muammoni va uni hal etish yo'larining shakllantirilishi keys asosida yuz beradiki, bunda keys ayni bir paytda muammoli vaziyatni hal etishga doir samarali harakatlar variantlarini idrok qilish va anglash, ularni amalga oshirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriq va axborot manbai shaklida namoyon bo'ladi.

- *Keys-stadi axborot makonini shakllantirish,* uni faollashtirish, axborot kommunikatsiyalarini tashkil etish, fikrlarni to'qnashtirish, makonni axborot bilan to'ldirish va unda to'planadigan axborotdan foydalanishdan iborat *bosqichma-bosqich jarayondir.*

9.4.Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi


Tizim sifatidagi keys-stadi texnologiyasi

Keys-stadi texnologiyasi quyidagi usullar va vositalarni o'zida jamlagan murakkab tizimdan (19-rasm) iborat:

- ilmiy tadqiqot,
- ilmiy tahlil,
- o'qitish,

- axborotlar,
- kommunikatsiyalar,
- boshqaruv.

Ushbu usullar va vositalar keysda bayon qilingan muammoli amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida rejalashtirilgan ta'lim maqsadlarining amalga oshirilishi va prognoz etilgan o'quv natijalariga kafolatli tarzda erishilishini vositali ravishda ta'minlaydi.



19- rasm. Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi (tarkibiy qismlari)

Tizimdagi har bir tarkibiy qism keys-stadi texnologiyasida o'zining muayyan funksiyalarini bajaradigan elementlarni o'z ichiga oladi.

Talabalar va o'qituvchi ifoda etadigan fikriy shakllardan tashkil topadigan intellektual makon nafaqat shaxsni o'qitish, shu bilan birga uning shaxsini tarbiyalash, uni kamol toptirish uchun ham xizmat qiladigan muhit bo'ladi. Rivojlangan axborot makonida bo'lish, uning tashkil etilishidan to muammo hal etilishigacha uning ichida "yashash" shaxs uchun foydali bo'lib, u jami axborotlar, turli-tuman his-tuyg'ularni o'ziga singdirib oladi, tafakkur faoliyati usullarini yorqin his etadi.

• Keys-stadida tadqiqotchilik tahliliy texnologiya – *tadqiqotchilik jarayoni operatsiyalari, tahliliy rusumlar* jamlashgan bo'ladi.

Ana shu konseptual qoidalardan kelib chiqib, keys-stadining mohiyatli belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlari asosida ilmiy tadqiqot va tahlil, ta'lim, kommunikatsiya va axborotning optimal usullari va vositalari tanlab olinganki, ular jamuljam holda keys-stadi texnologiyasini amalga oshirish sharoitida ta'lim maqsadiga erishishni kafolatlaydi.

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari

Keys-stadi texnologiyasining ushbu tarkibiy qismi quyidagi elementlar – ilmiy tadqiqot uslublari: modellashtirish, fikriy eksperiment, bayon, tasniflashni o'z ichiga oladi (17-jadval).

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Modellashtirish	Vaziyat modelini qurish
Fikriy eksperiment	Vaziyatni fikran o'zgartirish orqali u haqdagi bilimni olish
Ta'riflash	Vaziyatni tavsiflaydigan faktlarning muayyan tizimini shakllantirish
Tasniflash	Vaziyatni tashkil etadigan xususiyatlar, jihatlarning tartibga solingan ro'yxatini yaratish

✎ **Modellashtirish** murakkab obyektlarni muayyan tarzda soddalashtirish orqali ularni bilishning o'ziga xos usulidir. "Model" uning bazaviy tushunchasidir.

Fanda model mohiyatining bir xildagi tushunchasi yo'qligiga va uning o'ttizga yaqin turdagi talqini mavjudligiga qaramay, mualliflarning ko'pchiligi **model tushunchasini** modellashtiriladigan obyekt (asl nusxa)ning har qanday fikriy yoki ramziy obrazi, obyektning quyidagicha uchta xususiyatga ega bo'lgan qandaydir vakili sifatida tushunish xususida hamfikrdirlar:

1. Asl nusxani aks ettiradi, lekin bunda uning hamma belgi va alomatlarini emas, balki faqat tadqiqot maqsadlari va vazifalari nuqtai nazaridan eng muhimlarini ifodalaydi.

2. Almashlash xususiyatiga ega, ya'ni model obyektini aks ettirish jarayonida uning o'rnini bosib turadi. Almashlash qobiliyati obyekt va asl nusxaning umumiylikiga tayanadi.

3. Modelni tadqiq etish orqali olingan bilimlarni asl nusxaga ko'chirish mumkin bo'ladi.

Modellashtirish uslubi keys-stadida bir necha *funksiyalarni* bajaradi.

Birinchidan, u *keysni* jamiyatning muayyan sohasi uchun xos bo'lgan *qandaydir real vaziyat modeli sifatida taqdim qilish vositasi* rolini bajaradi. Ushbu model real vaziyatga qanchalik yaqin bo'lsa, keys shunchalik qimmatli bo'ladi. Voqelikning keysda aks etish darajasi va tusi model mazkur funksiyasining muhim muammosidir. Bunda keys voqelikni uning eng muhim tavsifnomalari nuqtai nazaridan aks ettirishi va boshqa barcha tavsifnomalaridan xoli bo'lishi kerak. Shuning uchun keys vaziyat modeli sifatida vaziyatning o'ziga nisbatan soddaroq bo'ladiki, bu uni prinsipial tarzda bilib olinadigan qiladi. *Keys ana shu ma'noda prakseologik model*, ya'ni voqelik modeli bo'ladi.

Ikkinchidan, *keys shuningdek model funksiyasini ham bajaradiki, lekin bu endi o'qitilayotgan o'quv fani, uning muayyan bo'limi yoki mavzusining* talaba uchun boshqacha ahamiyat kasb etadigan bilimdan foydalanish va uni ochishga imkon beradigan model bo'ladi. Shu ma'noda *keys bilish yoki gnoseologik model bo'ladi*. Unda, bir tomondan, normativ bilim, boshqa tomondan esa - boshqacha ahamiyat kasb etadigan, ehtimolli, vaziyat qonuniyatidan emas, balki u amalga oshiriladigan variantdan kelib chiqadigan stoxastik bilim taqdim etiladi. Aynan birinchisi - normativ bilim keysning amaliy sohasini tashkil etib, unga prakseologik model

sifatida cheklanishlarni yuklaydi. Bilimning ikkinchi turi talabalarda bilish ijodkorligi jarayonlarini modellashtiradi.

Va, nihoyat, modellashtirish uslubi *nafaqat keysni qurish, shu bilan birga uni o`rganish funksiyasini ham bajaradi*. Talaba vaziyatni tahlil etar ekan keysni hal etish bo`yicha o`z variantlarini ishlab chiqadi, bunday variantlar *stoxastik modellashtirish, variantlarni ishlab chiqish va ko`rib chiqish, eng maqbul variantlarni yanada chuqurlashtirish orqali asta-sekin haqiqatga yaqinlashish jarayonini tashkil etadi*. O`z mohiyatiga ko`ra, bu o`rinda yechimlar shajarasi tamoyiliga binoan modellashtirish yuz beradiki, bunda pirovard javob bir xil ahamiyatli yechim bo`lmasdan, o`z mohiyatiga ko`ra bir-biriga yaqin variantlarning muayyan “makoni” tarzida namoyon bo`ladi.

Ta`lim oluvchilar uchun bilim quyidagilar bilan qiyoslash vositasida hosil qilinganida modellar bilish vositalari sifatidagi vazifani bajaradi:

- real vaziyat bilan;
- keys modeli mazmuni bilan;
- munozaraning boshqa qatnashchilari taklif etadigan modellar bilan.

Keysning modeli metodologiya nuqtai nazaridan muhokamasi, masalan, talabaning modelida taqdim etilgan noaniq, gipotetik bilim muhokamaning boshqa qatnashchilari tomonidan aniqlashtiriladigan modeli, fikriy eksperimentlar deb ataladigan tajribalarning murakkab majmuidan iborat bo`ladi.

✎ **Fikriy eksperiment** - bu eksperimentning bir turi bo`lib, unda eksperiment o`tkazuvchi real obyektlar bilan emas, balki ularning muayyan fikriy konstruktleri bilan ish yuritadi.

Fikriy eksperimentning ustunligi shundaki, u real amaliy obyektga zarar yetkazmaydi, uning nuqsoni esa –amaliyotdan yiroqligi bo`lib, bu uning mezon funksiyasini susaytiradi.

Fikriy eksperiment o`tkazish keys-stadining g`oyat muhim metodologik belgisidir, chunki bu vaziyatni belgilaydigan omillar, muammoning eng muhim yoki ikkinchi darajali jihatlari, taklif etiladigan yechimlar samaradorligi va shu kabilar haqidagi farazlarni tekshirishga imkon beradi.

Fikriy eksperimentning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u sabab-oqibatli aloqalar, kelgusining rivojlanish yo`llari, mavhum dinamikani va shu kabilarni ko`rishni o`rgatadi. Fikriy eksperimentdan foydalanishda «Siz shuni tasavvur qilingchi, ...» degan iborat ayni o`z o`rnida ishlatilgan bo`ladi.

✎ **Ta`riflash** vaziyatni tavsiflaydigan faktlarning muayyan tizimi shakllantirilishini nazarda tutadi.

Vaziyatning keysda bayon qilinishi shu tarzda kyechediki, unda eng muhim narsalar nisbatan muhim bo`lmagan narsalar ortida yashiringan bo`ladi. Shu sababli talaba o`ziga xos topishmoqni yechishi, muhim narsalarni unchalik muhim bo`lmagan narsalar orasidan ajratib olishi kerak bo`ladi. Bunda u keysni o`qib chiqqanidan keyin uning bir tizimli bayonini hikoya qilishi, unda keltirilgan faktlar, baholar, taxminlar, aytilmagan narsalar va boshqalarni o`zicha talqin qilishi lozim.

✎ **Tasniflash** ilmiy bilishning eng muhim uslublari qatoriga kiradi. Tasniflash u yoki boshqa obyektlarni ularning belgilari, xususiyatlariga qarab taqsimlash, bir tartibga keltirishni nazarda tutadi.

9.5.Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari

Keys-stadida turli xildagi tasniflashlar, shu jumladan muammolar va ularni hal etish usullarining tasniflashlari, tahlil etilayotgan vaziyatni belgilovchi omillar va shu kabilar tasnifi qo'llaniladi.

Ilmiy tahlil usullri va vositalari

Tahlilning keys-stadi amaliyotida keng tarqalgan va keys yechimi samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy turlari tavsifnomasiga to'xtalamiz.

18-jadval.

Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari

Tahliliy uslublar	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Muammoli	Vaziyatdagi muammolar majmuining ajratilishi, ular mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va hal etish yo'llarini anglab olishni nazarda tutadigan tuzilmalashga asoslanadi
Bir tizimli	Vaziyat subyekti bir tizimli yaxlitligining tavsifnomalari va tuzilmasi, tizim tarkibiy qismlarining funksiyalari, subyektning atrofidagi va ichki muhiti bilan bahamjihat harakat qilishini belgilashga qaratilgan
Sabab-oqibatli	Vaziyatda bayon qilingan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibatli aloqalarini belgilash va izohlashga asoslanadi
Pragmatik	Vaziyat subyekti (jarayon, hodisa)ning idrok etilishi va tashhisini, uning modellashtirilishi va amaliy hayotda yanada samaraliroq foydalanish nuqtai nazaridan optimallashtirilishini nazarda tutadi
Vaziyatli	Vaziyatni, uning tuzilmasi, omillari, rivojlanish tendentsiyalari va shu kabilarni belgilaydigan usullar va uslublar majmuiga asoslanadi
Prognostik	Tahlil etilayotgan vaziyat subyektining ehtimol to'tilgan, potensial va keraqli kelgusidagi subyektga muvofiqligi darajasini aniqlash (oldindan aytib berish)dan iborat
Tavsiyali	Vaziyatda harakat qiluvchi shaxslar fe'l-atvorining variantlari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan
Dasturiy-maq-sadli	Mazkur vaziyatda muayyan maqsadga erishishning batafsil modeli (dasturi)ni ishlab chiqishga qaratiladi

✎ **Muammoli tahlil** «muammo» tushunchasiga asoslanadi. Ijtimoiy muammo deganda muayyan ijtimoiy harakatlarning etilgan zarurati bilan ularni

amalga oshirish shart-sharoitlari o'rtasida ziddiyatning mavjud bo'lishi va ifodalanishi tushuniladi.⁴⁰

Muammoli tahlil u yoki boshqa muammoning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini va uni hal qilish yo'llarini idrok etishni nazarda tutadi.

Bunda keysda muammo ko'pincha noaniq, niqoblangan shaklda, syujetning ko'p xilliligi ichida yashirin holda mavjud bo'ladi.

Muammoli tahlil texnologiyasi talabalar unumli faoliyati bosqichlarining quyidagicha izchilligini nazarda tutadi:

- qondirilmagan ijtimoiy ehtiyoj sifatidagi muammoning shakllantirilishi;
- muammoning makon-zamonda qayd qilinishi – uning makon va zamondagi chegaralarining belgilanishi;
- muammo turi, tusi, uning tizim (tuzilma, funksiyalar va shu kabilar)ga oid tavsifnomalarining aniqlanishi;
- muammoning rivojlanish qonuniyatlari va oqibatlarining aniqlanishi;
- muammoning prinsipial hal qilinuvchanligi tashhisi;
- muammoni hal etish uchun zarur resurslarning belgilanishi;
- muammoni hal etishning tashkiliy-boshqaruvchilik texnologiyalarining ishlab chiqilishi;
- muammo yechimi.

Bir tizimli tahlilni tahlilning eng ommaviy turlariga kiritish lozim. U obyektning bir tizimli yaxlitligi qonuniyatlariga, tuzilma tarkibiy qismlari va ular funksiyalarining o'zaro bir-biriga bog'liqligiga asoslanadi.

Tahlil vektori – tuzilmadan funksiyaga tomon yoki aksincha yo'nalishga qarab tegishli bir tizimli tahlilning ikki turini: deskriptiv va konstruktiv turlarini ajratib ko'rsatadi.

Deskriptiv tahlilning asosiy maqsadi – tuzilma berilgan tizimning qanday ish yuritishini aniqlashdan iborat.

Konstruktiv tahlil berilgan maqsadlar uchun tizim tuzilmasi funksiyalarining tanlab olinishini nazarda tutadi.

Tahlilning har ikkala turi ko'pincha bir-birini to'ldirib turadi.

Sabab-oqibatli tahlil sabablilikka asoslanadi. «Sabab» va «oqibat» uning asosiy tushunchalari bo'lib, ular hodisalar o'rtasidagi aloqani ifodalaydi. Gap shundaki, ikkita hodisaning o'zaro bahamjihat harakati jarayonida muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganida bir hodisa (sabab) boshqa hodisa, voqea, jarayon (oqibat)ni hosil qiladi, yaratadi.

Sabab-oqibatli tahlil bir necha qadamlarni o'z ichiga oladi:

- obyekt va tadqiqot predmetining ifodasi;
- ayrim asosiy hodisalarning obyekt va tadqiqot predmetini izohlovchi ehtimol to'tilgan sabab va ehtimol to'tilgan oqibat sifatida belgilanishi;

⁴⁰ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

- sabab-oqibatli aloqa mavjudligining belgilanishi, sabab va oqibatning aniqlanishi;
- sabab-oqibatli aloqa tipining belgilanishi, uning tusi aniqlanishi;
- sabab-oqibatli zanjir tuzilmasida ushbu sabab-oqibatli aloqa o`rnining aniqlanishi;
- o`rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning sabablilik bilan izohlanishi.

✎ **Pragmatik tahlil** u yoki boshqa obyekt, jarayon, hodisa xususida undan amaliy hayotda yanada samaraliroq foydalanish nuqtai nazaridan mushohada yuritishni nazarda tutadi.

Samaradorlik, natijaviylik va baholash pragmatik tahlilning asosiy tushunchalaridir.

✎ **Samaradorlik** - minimal resurslar bilan yuksak natijaga erishishdir.

Natijaviylik – qo`yilgan maqsadga erishish qobiliyati.

Baholash – biror-bir hodisani samaradorlik va natijaviylik nuqtai nazaridan tavsiflaydigan kattalik.

Pragmatik tahlil quyidagi harakatlarning izchil majmuidan iborat:

- obyekt yoki jarayon haqida uning funksiyalari nuqtai nazaridan mushohada yuritish;
- tizimning natijaviyligini belgilash;
- tizimga nisbatan talablarni qondirmayotgan funksiyalarni aniqlash; uning faoliyat yuritishi samaradorligini tahlil etish;
- tizimning tuzilmaviy tahlili, uning tuzilmaviy muammolari va samarasizlik sabablarini aniqlash;
- tizim imkoniyatlari, uning salohiyati, foydalanilmagan zaxiralarni o`rganish;
- tizim samaradorligini oshirish bo`yicha takliflarni ishlab chiqish.

✎ **Vaziyatli tahlil** - vaziyat, uning tuzilmasi, omillari, rivojlanish tendentsiyalari va shu kabilarni belgilaydigan usullar va uslublar majmuiga asoslanadi.

Tahlilning ushbu turi birmuncha ko`p mohiyatli kategoriya - «**vaziyat**»ga asoslanadi.

Hodisali yondashuvda vaziyat muammo yaxlitligi bilan bog`liq bo`lgan qandaydir majmua sifatida ko`rib chiqiladi. Tashqi shakliga ko`ra bu qandaydir hodisalar zanjiri yoki hodisalar doirasi, hodisalar bog`lami va shu kabilar bo`lishi mumkin. Hodisalar nazariyasi vaziyatning ushbu tushunchasini idrok etish uchun nazariy asos bo`ladi.

Agar vaziyat *faoliyat shart-sharoitlari* nuqtai nazaridan ko`rib chiqiladigan bo`lsa, unda bu muammoning amal qilishini belgilovchi shart-sharoitlar majmui hisoblanadi.

Omili yondashuv nuqtai nazaridan olganda vaziyat muammo ziddiyatini hal qilishga yordam beradigan yoki unga to`squinlik qiladigan turli xildagi omillarning murakkab o`zaro bahamjihat harakatidan iborat bo`ladi. Bu yerda omillar va omilli tahlil nazariyasi metodologik negiz hisoblanadi.

“Vaziyat” kategoriyasi turlicha tushunilishiga qaramay vaziyatlar turlarini tasnifiy belgilariga ko`ra ajratishga asos bo`ladigan umumiy holatni ajratib ko`rsatish

mumkin. Vaziyatli tahlil uchun 19-jadvalda keltirilgan vaziyatlar tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

19-jadval

Keys-stadi texnologiyasi

Tasniflash asosi	Vaziyatlar turlari
Real hayotga muvofiqligi	1. Real 2. Shartli
Normaga muvofiqligi	1. Normal 2. Deviantli 3. Ekstremal
Ijtimoiy zamonga muvofiqligi	1. O'tmishdagi 2. Hozirgi (dolzarb) 3. Kelgusidagi
Murakkabligi	1. Oddiy 2. Murakkab 3. Arximurakkab
Vaziyatning rivojlanishi tusi	1. Determinatsiyalashgan 2. Ehtimolli-stoxastik
Yangilik darajasi	1. Ma'lum 2. O'xshash 3. Noma'lum
Nazorat qilish mumkinligi	1. Nazorat qilinadigan 2. Nazorat qilinmaydigan
Amal qilishi mumkinligi	1. Qulay 2. Majburiy 3. Tanqidiy 4. Nochor yoki noiloj

Tasniflash asoslari - vaziyatlarni turlarga ajratishga asos bo'lgan xarakterologik parametrlarni ko'rib chiqamiz.

Bu o'rinda *real hayotga muvofiqlik darajasi* katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu ko'rsatkichga ko'ra barcha vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- real;
- shartli.

Real vaziyatlar real jarayonlarni aks ettiradi va o'ziga xos hisoblanadi. Shartli vaziyatlar sun'iy bo'lib, voqelikda haddan tashqari kam uchraydi, lekin ular tadqiq etilayotgan hodisalar va munosabatlarni nisbatan yorqin aks ettiradi.

Vaziyatning normaga muvofiqligini aniqlaydigan ikkinchi belgiga ko'ra barcha vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- normal;
- deviantli;
- ekstremal.

Normal vaziyat vaziyatning norma doirasida rivojlanishini tavsiflaydi, deviantli vaziyat turli xil og'ishishlarni qayd etadi, ekstremal vaziyat esa tizimni hayot

qirrasiga olib chiqadigan, uning oldingi sifatda amal qilishini shubha ostiga qo'yadigan hodisalar va jarayonlarni aks ettiradi.

Vaqtli parametr vaziyatlarni quyidagilarga ajratishga imkon beradi:

- o'tmishdagi;
- hozirgi;
- kelgusidagi.

O'tmishdagi vaziyatlar ilgari ham jamiyatning amaliy hayotida uchrab to'rganligi bilan tavsiflanadi. Ularning ajratib ko'rsatilishi o'tmishdagi tajribani o'rganishga xizmat qiladi. Hozirgi vaziyatlar shu kundagi voqelik uchun xosdir, kelgusidagi vaziyatlar nazarda tutiladigan prognostik tusda bo'ladi.

Murakkablik parametriga ko'ra vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- oddiy;
- murakkab;
- arximurakkab.

Oddiy vaziyatlar bir necha omillarning o'zaro harakatlari natijasidan iborat bo'lib, ular bir xilda yuz beradi. Murakkab vaziyatlar amal qiladigan omillarning turliligi, rivojlanishini bashoratlash mumkinligi bilan farqlanadi. Arximurakkab vaziyatlarning rivojlanishini mutlaqo oldindan aytib bo'lmaydi.

Vaziyatlar *yangiligi darajasi bo'yicha* quyidagilarga bo'linadi:

- ma'lum;
- o'xshash;
- noma'lum.

Vaziyatlarning bunday bo'linishi ularning ta'limdagi funksiyalariga muvofiq keladi. Ma'lum vaziyatlar trening uchun, o'xshash vaziyatlar – o'xshash vaziyatlarda amallarni ishlab chiqishda bilimlarni qo'llanish qobiliyatini orttirish uchun qo'llaniladi. Noma'lum vaziyatlar talabalarda tadqiqotchilik xususiyatlarini hosil qilish, voqelikka nisbatan ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ko'ra vaziyatlar quyidagicha bo'ladi:

- nazorat qilinadigan;
- nazorat qilinmaydigan.

Nazorat qilinadigan vaziyatlar faoliyat subyektining vaziyatni nazorat qilish uchun zarur vakolatlar va resurslarga egaligi bilan farqlanadi. Boshqaruvchining: «Vaziyat nazorat ostida!» - degan so'zi aynan shunday mazmun kasb etadi.

Fazoviy va er shari miqyosidagi falokatlar haqida gap ketganida nazorat qilinmaydigan vaziyat mutlaqo nazorat qilinmaydigan tusda bo'lishi mumkin. Lekin ko'pincha uning nazorat qilinmasligi nisbiy tusda bo'ladi, ya'ni uni mazkur subyekt nazorat qila olmasligi, lekin boshqa subyekt to'la nazorat qilishi ham mumkin.

Vaziyatlarni tasniflashning muhim parametri, bunday vaziyatdan chiqqan oladigan *faoliyatning mavjudligi hisoblanadi*. Vaziyatlar ushbu belgisi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- qulay;
- majburiy;
- tanqidiy, noiloj.

Qulay vaziyatlar shunisi bilan farqlanadiki, ular subyektning qanchalik mehnat qilishidan qat'iy nazar omad, muvaffaqiyat va shu kabilarga bog'liq bo'ladi.

Majburiy vaziyat, bir tomondan, ish yurituvchi subyekt uchun majburiyligi va ancha zarar keltirishi mumkinligi bilan farqlanadi, boshqa tomondan esa – maqsadga erishish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan va jiddiy harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Harakat qilinmaganida vaziyat tanqidiy va hatto noiloj tus kasb etishi ham mumkin.

Prognostik tahlilni prognostik faoliyat - prognozlarni ishlab chiqish faoliyatidan farqlash kerak.

«**Prognoz**» tushunchasi kelajak haqidagi bilimlar, axborot, ma'lumotlarni anglatishi sababli **prognostik tahlil** kelajak modellarining ishlab chiqilishini emas, balki ularning va kelajakka erishish yo'llarining qo'llanilishini nazarda tutadi.

➤ **Prognostik tahlil** o'z mohiyatiga ko'ra prognostik diagnostika, tahlil etilayotgan hodisa yoki jarayonning kelgusidagi hodisa yoki jarayonga muvofiq bo'lishi darajasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Uning maqsadi vaziyatning kelgusidagi rivoji yuzasidan bashoratlarni shakllantirishdir.

Prognostik tahlil tahlilning ikki turini o'z ichiga oladi:

- normativ;
- izlanadigan.

Normativ prognostik tahlil tizimning kelgusidagi holati beriladigan va unga erishish usullari belgilanadigan holda, *izlanadigan tahlil* esa – kelgusidagi vaziyatni trendli modellarni qurish orqali aniqlashda o'tkaziladi.

➤ **Tavsiya qilinadigan tahlil** harakat qiluvchi shaxslarning muayyan vaziyatdagi fe'l-atvoriga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqilishiga qaratiladi.

Tavsiya qilinadigan tahlil pragmatik tahlildan shunisi bilan farqlanadiki, u muayyan vaziyatdagi fe'l-atvorning variantlari ishlab chiqilishini nazarda tutadi.

➤ **Dasturiy-maqsadli tahlil** muayyan maqsadga erishishga doir dasturning ishlab chiqilishi yuzasidan tavsiya qilinadigan tahlilning yanada rivojlantirilishini anglatadi.

Ushbu tahlil kelajakka erishishning batafsil modeli ishlab chiqilishiga qaratiladi.

Keysning o'quv topshiriqlari bilan ularning yechimini ta'minlaydigan tahliliy uslublar o'rtasidagi korrelyatsiya 20-jadvalda taqdim etilgan.

20-jadval

Keysning o'quv topshiriqlari bilan ularning yechimini ta'minlaydigan tahliliy uslublar o'rtasidagi korrelyatsiya

O'quv topshiriqlari	Ular yechimini ta'minlaydigan tahliliy uslublar
1.Vaziyat muammosining ajratib ko'rsatilishi, uning turlarga ajratilishi, uning rivojlanish qonuniyatlari va oqibatlari, hal qilish yo'llarining aniqlanishini nazarda tutadigan muammolarning tuzilmalanishi	Muammoli tahlil

2.Vaziyat tavsifnomalari, tuzilmasi, uning funksiyalari, atrofdagi va ichki muhit bilan oʻzaro harakatini belgilash	Bir tizimli tahlil
3.Ushbu vaziyat vujudga kelishiga va uning avj olishi oqibatlariga olib kelgan sabablarni belgilash	Sabab-oqibatli tahlil
4. Vaziyat subyekti faoliyati mazmunini tashhislash, uni modellashtirish va optimallashtirish	Pragmatik tahlil
5. Vaziyat subyektining ehtimol toʻtilgan, doimiy va keraqli kelajagi yuzasidan bashoratlarni tayyorlash	Prognostik tahlil
6. Vaziyatda harakat qiluvchi shaxslarning feʼl-atvori yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish	Tavsiya qilinadigan tahlil
7. Ushbu vaziyatdagi faoliyat dasturlarini ishlab chiqish	Dasturiy-maqсадli tahlil

☝ *Keysning yechimi undagi oʻquv topshiriqlarini belgilashdan boshlanadi. Ular bir xillashtirilganidan soʻng qoʻyilgan topshiriqlar yechimini taʼminlaydigan ehtimol toʻtilgan tahliliy uslublar tanlanadi.*

Taʼlim uslublari Keys-stadi texnologiyasining ushbu tarkibiy qismi quyidagi elementlar – taʼlim usullarini oʻz ichiga oladi: muammoli uslub, fikriy hujum, munozara, oʻrgatuvchi oʻyin (21-jadval).

21-jadval

Keys-stadi texnologiyasining ushbu tarkibiy qismi

Taʼlim uslublari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Muammoli uslub	Vaziyat negizida yotgan muammoni izlash, ifodalash, kompozitsiyasini oʻzgartirish va tashhislash usuli
Fikriy hujum	Muammoli vaziyatga doir gʻoyalarni jamlash
Munozara	Muammo va uning yechimi yuzasidan fikr almashish
Oʻrgatuvchi oʻyin	Vaziyat qatnashchilari feʼl-atvorining variantlarini taqdim etish

✎ **Muammoli uslub** shunisi bilan farq qiladiki, u voqelikka nisbatan muammoli yondashuvni shakllantiradi, bunday yondashuvsiz muammolarni hal qilish qobiliyatini nazarda tutadigan konstruktivizm qaror topishi mumkin emas.

Muammoli uslub keys-stadida gʻoyat muhim oʻrin tutadi. Talaba harakatlarining quyidagi tarzda tartibga solingan izchilligi uning farqlovchi xususiyatidir:

- muammoning ajratilishi;
- muammoning ifodalanishi;
- muammoning tarkibiy qismlarga (kichik muammolarga) ajratilishi;
- muammoning tashhis qilinishi;
- uning yechimi variantlarining ifodalanishi.

✎ **Aqliy hujum** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal qilish yuzasidan jamoa gʻoyalarning jamlanishi usulidir.

Keys-uslubda aqliy hujum nafaqat amaliy muammoli vaziyatni hal etish uchun gʻoyalarni yoʻnaltirish usuli, shu bilan birga talabalarning oʻquv-bilishdagi faolligini, ularning muammoni mustaqil tushunish va hal etishga qiziqishlarini oshirish, fikrlash

inertsiasidan ozod qilish, kommunikativ malakalarini rivojlantirish vositasi sifatida ham qo'llaniladi.

✎ **Munozara** – muammoni jamoa bo'lib har tomonlama muhokama qilish, uni hal etish usullari va vositalari yuzasidan fikr almashish, g'oyalar, fikrlar va takliflarni taqqoslashdan iborat bo'ladi.

9.6. Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari.

Keys-uslubda markaziy o'rin tutadi. Munozara paytida talaba so'zga chiqqanida o'z fikrlarini aniq ifodalash, o'zining nuqtai nazarini faol himoya qilish, kursdoshining xato nuqtai nazariga qarshi dalillar asosida e'tiroz bildirish, uni inkor etishga o'rganadi. Bunday ishda talaba o'z faoliyatini qurish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu uning intellektual va shaxsiy faolligining yuqori darajaga o'sishi, bilish jarayoniga singib ketishini ta'minlaydi.

Ushbu usulni talabalar quyidagilarga ega bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiq:

- munozara mavzusi bo'yicha bilimlarga ega bo'lganida;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari, o'zining nuqtai nazarini dalillash, isbotlash va asoslash, raqiblarini ishontira bilish qobiliyatlariga ega bo'lganida;
- munozara qoidalari bilan tanish bo'lganida.

Talabalarning munozaraga tayyor bo'lmasligi uning chizmaiy tusda o'tishiga olib kelib, axborotlarni mustaqil orttirish emas, balki uni o'qituvchi og'zidan eshitib olishga aylantirib qo'yadi.

✎ **O'rgatuvchi o'yin** – real vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlarda talabalarning muammoning optimal yechimi variantlarini faol mustaqil izlashiga asoslangan ta'lim uslubi hisoblanadi.

Ushbu uslub talabalarni nafaqat bilim olish, shu bilan birga bilimlarni bevosita (shu erning o'zida va hozir) qo'llash jarayoniga faol jalb etish hisobiga ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradi. O'yin davomida qatnashchilarga faol pozitsiya – o'yinchi roldan tortib, o'yinning hammuallifigacha bo'lgan rollarni berish hisobiga predmetli faoliyat jadal o'zlashtiriladi.

Agar vaziyatni oldindan o'ynab ko'rish qo'shimcha axborotni olishga imkon bersa, unda o'rgatuvchi o'yinni keys-stadi texnologiyasiga qo'shish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'yin bilan keys-uslubning birlashtirilishi, shubhasiz, o'quv jarayoni mazmuniga yaxshi ta'sir etadi, unga yangicha qiziqish va ijodkorlik tusi bahsh etadi. Biroq, shunisi ham shubhasizki, bunday tarzda qo'shib olib borishlik o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi va talabalarga qo'shimcha intellektual bosim yuklaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'rgatuvchi o'yin va keys-stadi o'zining quyidagicha o'ziga xos xususiyatlari sababli turli ta'limiy vazifalarni hal etishga imkon beradi:

- Agar keys-stadi uslubi tahliliy faoliyat yuritish, vaziyatda yo'nalish olish, uning mazmuniga teranroq kirib borish mahoratini shakllantiradigan bo'lsa, unda o'rgatuvchi o'yin o'zgarib turadigan vaziyatlarda ish yuritish malakasini orttiradi, o'z rolga doir fe'l-atvor dinamikasini ishlab chiqadi.

- O`rgatuvchi o`yin amaliyotning in`ikosidan iborat bo`lsa, keys-stadi uslubi – hayotiy amaliyot avj oladigan vaziyat in`ikosi bo`ladi.

- O`rgatuvchi o`yin aniq qobiliyat va malakalarni hosil qilish, ularni mashq qilishga yo`naltirilgan bo`lsa, keys-stadi uslubi – vaziyatda mavjud bo`lgan muammoni izlash va uni fikran hal etishga qaratiladi.

- Keys-stadi uslubi fe`l-atvor strategiyasi malakalarini o`rgatsa, o`rgatuvchi o`yin fe`l-atvor taktikasi ko`nikmalarini hosil qiladi.

O`quv faoliyati

shakllari

Keys-stadida o`qituvchi va talabalarining o`zaro bog`liq birgalikdagi faoliyatining umumiy, jamoali, guruhli va yakka tartibdagi shakli kabi shakllari integratsiyalashgan bo`ladi (22-jadval).

22-jadval

Keys-stadida o`qituvchi va talabalarining o`zaro bog`liq birgalikdagi faoliyati

Ta`lim shakllari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Umumiy	O`qituvchining keys mavzusi bo`yicha bilimlarni dolzarblashtiruvchi savollariga javoblar
Individual	Keys bilan yakka tartibda ishlash
Guruhli	Kichik guruhlardagi birgalikdagi ish: muammo yechimiga doir muqobil g`oyalar muhokamasi, eng samarali g`oyaning baholanishi, tanlanishi va asoslanishi
Jamoali	Fikriy hujum, munozara, g`oyalarning baholanishi, ulardan eng samaralisining tanlanishi

Ta`lim

vositalari

Mashg`ulotda keysni taqdim etishda va u bilan ishlash Yojarayonida quyidagi ta`lim vositalaridan foydalaniladi: slydlar, plakatlar, «ashyoviy dalillar»: korxona – keys obyekti yoki uning raqiblari mahsulotlari, bukletlar va boshqalar, shuningdek klassik maktab taxtasi.

Taxtada yozilgan munozaraning asosiy bndlari ko`pgina maqsadlarga xizmat qiladi.

Birinchidan, bu o`quv guruhining o`ziga xos jamoalik xotirasi bo`lib, u har xil muhokama mavzularini o`zaro bir-biri bilan bog`laydi, munozara qatnashchilarida birdamlik va olg`a borish hislarini uyg`otadi.

Ikkinchidan, bu o`qituvchi uchun nazorat mexanizmidir – chunki u tartib, tuzilmani yaratadi, muhokama qilinayotgan mavzularning ahamiyatini oldindan belgilab beradi. O`z mohiyatiga ko`ra, bu texnik vosita yordamchi ta`lim vositasi va axborot manbai rollarini bajaradigan holatdir.

Keys – bu ham **ta'lim vositasi**, axborot manbai bo'lib, u bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, u yoki boshqa o'quv mavzui-kursi bo'yicha malaka va qobiliyatlarni hosil qilishga imkon beradi.⁴¹

Axborot va kommunikatsiya usullari va vositalari 23-jadvalda talabalar o'rtasida o'quv axborotlarini almashinishning keys-stadida jamlashgan asosiy shakllari taqdim etilgan.

23-jadval

O'quv axborotlarini almashinishning keys-stadida jamlashgan asosiy shakllari

Axborot almashinish shakllari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Monolog	O'zining vaziyatni tushunishini ifodalash usuli muayyan maqomli pozitsiyani egallashga imkon beradiki, bu original g'oyalarni ilgari surishga undaydi
Dialog, polilog	Raqobatlashayotgan nuqtai nazarlarning o'zaro bahamjihat harakati vaziyatni tushunishda ilgari boradigan rivojlanishga olib keladi

Keys-stadi texnologiyasida muloqot, kuzatuv va baholash *teskari aloqa* usullari va vositalari sifatida qo'llaniladi.

Keys-stadi texnologiyasida quyidagi *kommunikatsiya usullari va vositalari* amalga oshiriladi:

- O'qituvchining talabalar bilan tezkor *teskari aloqa* asosidagi bevosita o'zaro bahamjihat harakati - keys bilan auditoriyada ishlash;
- O'qituvchining talabalar bilan vaqt bo'yicha ajratilgan *teskari aloqa* asosidagi bevosita o'zaro bahamjihat harakati - keys bilan auditoriyadan tashqarida ishlash.

Boshqaruv usullari va vositalari Boshqaruvchilik jarayonining mohiyati harakatlarni maqsad – natija mos kelish chizig'i bo'yicha muvofiqlashtirish, pedagogik tizim ishtirokchilari fe'l-atvorining yuqori dinamikligi va oldindan aytib bo'lmasligi sababli muqarrar kelishmovchiliklarni imkoni boricha kamaytirishdan iborat. Keys-stadi texnologiyasida birlashtirilgan boshqaruv usullari va vositalarini o'qituvchining keys-stadining har bir texnologik bosqichidagi boshqaruvchilik funksiyalari asosida ko'rib chiqamiz:

✎ **Maqsadning nazarda tutilishi** – ta'lim maqsadini shakllantirish, o'quv natijalari va pedagogik vazifalarni belgilash. Bu pedagogik faoliyatning asosiy omili bo'lib, u ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning umumiy natija tomon birgalikdagi faoliyatini oldindan belgilaydi va yo'naltiradi.

⁴¹ Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

✎ **Tashhis qo'yish** - ta'lim oluvchilarning keys bilan ishlash qobiliyatini va tayyorligini, shuningdek ta'lim jarayonida mavjud moddiy – texnik imkoniyatlarni o'rganish. Maqsadni o'zgartirib turish zarurati bilan bog'liq bo'ladi, unga erishish usullari va vositalarini belgilaydi.

✎ **Bashorat qilish** - pedagogik va o'quv faoliyatining mavjud sharoitdagi va belgilangan vaqt ichidagi natijasini oldindan ko'ra bilish. Faoliyat strategiyasi, berilgan miqdor va sifatdagi pedagogik mahsulotni olish imkoniyatini baholashni belgilaydi.

✎ **Loyihalashtirish** - oldindagi faoliyat modelini qurish, mavjud sharoitda va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan ta'lim usullari va vositalarini tanlash; maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun xususiy vazifalarni shakllantirish; kommunikatsiya, axborot va boshqaruv usullari va vositalarini belgilash. Tashhis, bashoratlash va loyiha rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

✎ **Rejalashtirish** – navbatdagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyati rejasini ishlab chiqish. O'quv mashg'uloti rejasi o'quv mashg'ulotining texnologik kartasi shaklida chizmaiyashtiriladi.

✎ **Tashkil qilish** – o'qituvchining ta'lim oluvchilarni belgilangan ishga jalb etishi, mo'ljallangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilishi.

✎ **Axborot ta'minoti** – o'quv axborotini yetkazish va teskari aloqa usullari va vositalarining amalga oshirilishi. Bunda to'plangan axborot jarayonning kyechishini tezkorlik bilan o'zgartirish, ta'sirchan stimullar, samarali vositalarni joriy etishga imkon beradi.

✎ **Nazorat qilish** – talabalar bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. O'qituvchining talabalar bilan tezkor teskari aloqasi: o'quv materialini o'zlashtirish va prognoz qilingan o'quv natijalariga erishish darajasi haqidagi obyektiv axborot olinishini ta'minlaydi. Kamchiliklar va bo'sh qolgan o'rinlarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

✎ Tugallangan jarayonni **tahlil qilish** – samaraga erishmaganlik sabablarini belgilash, keyingi qayta takrorlanadigan tsiklda ularni bartaraf qilish choralarini ishlab chiqishga imkon beradi.

O'qituvchi va talabalarining amaliy muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishish bo'yicha birgalikdagi faoliyati natijalari samaradorligini quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmui belgilaydi:

- *O'qituvchining* ta'limni texnologiyalashtirish qoidalari, keyslarni ishlab chiqish, keys-stadi texnologiyasini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini *egallaganligi*.

- *Talabalarining* keys mavzusi bo'yicha nazariy bilimlar va o'quv malakalari, o'zini o'zi boshqarish, axborot bilan ishlash, ilmiy tadqiqot uslublari va tahliliy uslublarni, aqliy hujum qoidalari va munozara qatnashchilari fikrlaridan foydalanish ko'nikmalari, guruhlarda ishlash va taqdimotlarni o'tkazish qoidalari va shu kabilarni egallashi.

- *O'qituvchi talabalarni* ta'lim jarayonidagi sheriklar deb *e'tirof etishi*, guruhli

munozara, hamkorlik, oʻzaro yordam, birgalikdagi faoliyat kabi oʻzaro bahamjihat harakat usullaridan albatta foydalanish.

- *Oʻqituvchining bilimlar translyatori rolidan menejer, ekspert va maslahatchi rolini bajarishga oʻtishi.* Keys-stadi texnologiyasi sharoitida talabalarni axborotlarni mustaqil tarzda olish, ularni muammoli vaziyatlarni tahlil etish, ajratish, taqqoslash uchun qoʻllashga oʻrgatish muhimdir. Oʻqituvchi talabaning axborot olamidagi maslahatchisiga aylanadi.

- *Keys va undan foydalaniladigan mashgʻulotning individual takrorlanmaydigan ijodiy mahsulotga aylantirilishi.* Bunda keys-stadining qoʻllanilishi ijodiy maydonni ancha kengaytiradi va noyob intellektual mahsulot sifatidagi keysni yaratish, muallifning samarali taʼlim texnologiyasini loyihalashtirish boʻyicha ijodiy faoliyatni qamrab oladi.

- *Har bir talabaga nisbatan individual yondashuv,* uning qobiliyatlari, bilim, malaka va koʻnikmalari hisobga olinishi; taʼlimda maksimal erkinlik berish (keysning oʻquv topshiriqlarini bajarish usullari va vositalarini tanlash imkoniyati).

- *Talabalarga keysni hal qilish uchun quyidagilarning taqdim etilishi:*
- hajmiga koʻra unchalik katta boʻlmagan, faqat asosiy qoidalarga qaratilgan tuzilmalangan nazariy material;

- keysda qoʻyilgan vazifalar boʻyicha axborot (koʻrgazmali) materiallarning yetarli miqdori (maqolalar va bukletlar; video-, audiokassetalar va CD-disklar; faoliyati tahlil etilayotgan korxonalar mahsuloti va shu kabilar).

- *Talabaning oʻqituvchi bilan erkin muloqot qilishi,* yaʼni har qanday vaqtda yordam soʻrab murojaat qilishi mumkinligi.

- *Oʻqituvchining keys-stadini taʼlim va tarbiyaning oʻquv jarayonining keng demokratlashtirilishi va texnologiyalashtirilishi,* fikr yuritishning ilgʻor usulini egallash va pedagogik etikaga rioya etish, oʻquv jarayoni tashkilotchisi rolini bajarishga asoslangan alohida *paradigmasi sifatida his qilishi.*

9.7.Keyslar tipologiyasi

Keyslar uchun ular turining juda koʻpligi xosdir. Keyslarning turlari boʻyicha tasniflanishi 24-jadvalda taqdim etilgan.

24-jadval

Keyslarning turlari

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Daladagi 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. Oʻtmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys
Keys obyekti	1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institutsional

	3. Ko'p subyektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergov 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui
Hajmi	1. Qisqa (lo'nda) 2. O'rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan 2. Tuzilmalanmagan
O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konseptsyani izohlash 2. Treningli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan 3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi 5. Vaziyat subyektini rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
Chizma yashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys

Keysologning (shu o'rinda va keyinchalik - keysni ishlab chiquvchi) vazifasi keys turining qo'yilgan didaktik maqsadlarni optimal amalga oshirishiga imkon beradigan o'ziga xos xususiyatlarini tanlash va qo'llashdan iborat.

Keysning turli manbalari

Keys intellektual mahsulot sifatida o'z manbalariga egadir. Sotsium keyslarning manbaidir, degan fikr hech kimda shubha tug'dirmasligi aniq. Faqat uning keysning mazmuni va shaklini qay darajada oldindan belgilab berishi mumkinligi haqida turlicha fikr bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayot butun turli-tumanligi bilan keys syujeti, muammolari va faktologik bazasining manbai bo'ladi. Ta'lim va tarbiyaning keysda jamlangan maqsadlari va vazifalari, shuningdek ta'lim texnologiyasini belgilaydigan **ta'lim** yana bir manbadir.

Fan keysning uchinchi manbaidir. U tahliliy faoliyat va bir tizimli yondashuv bilan belgilanadigan ikkita asosiy metodologiyani, shuningdek keysni hal etish jarayonida qo'llaniladigan boshqa ilmiy uslublarni beradi.

Keys determinatsiyasi asosiy manbalarining o'zaro nisbati bir xilda va teng tomonli uchburchak sifatida taqdim etilgan. Bu barcha manbalarning teng ahamiyatli ekanligining ideal va ancha kam uchraydigan holati - determinantdir. Keyslarni qurishning real amaliyotida bunday holat ancha kam uchraydi. Ko'pincha manbalardan birining ustunlik qilishi kuzatiladi. Chizma shaklida olganda manba rolini uchburchak burchagining kattaligi tarzida tasavvur etish mumkin. Bunda burchak qanchalik to'g'riroq bo'lsa, tegishli manba ta'siri shunchalik ko'proq bo'ladi. O'tkir qirralar tegishlicha manbaning minimal ta'sirini aks ettiradi.

Ushbu yondashuv keyslarni **asosiy manbalari bo'yicha** tasniflashga asos bo'lishi mumkin. Bu yerda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) *hayotiy keyslari* - mutlaqo real hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi;
- 2) *kabinetdagi keyslar* - keysolog modellashtirgan amaliy vaziyatni o'z ichiga oladi;
- 3) *ilmiy-tadqiqotchilik keyslari* – tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Hayotiy keysining asosiy vazifasi hayotiy vaziyatni batafsil va to'liq aks ettirishdan iborat. O'z mohiyatiga ko'ra, bunday keys vaziyatning amaliy, ya'ni «harakatdagi» modelini yaratadi. Bunda bunday keysning o'quv maqsadi ta'lim oluvchilar treningi, ushbu vaziyatdagi bilimlar, qobiliyatlar va fe'l-atvor (qarorlar qabul qilish) ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Bunday keyslar maksimal ko'rgazmali va batafsil bo'lishi kerak. Ularning asosiy mazmuni hayotni bilish va optimal faoliyatga doir qobiliyatlarni hosil qilishdir.

Garchi har bir keys ta'lim beruvchi funksiyani bajarsa-da, lekin ularning barcha qirralarining turli keyslarda aks etishi darajasi turlichadir. Ko'proq ta'lim beruvchi funksiyani bajaradigan, hayotni biroz boshqacharoq aks ettiradigan keys *kabinetdagi keys* deyiladi.

Ilmiy-tadqiqotchilik keysi uchun ham shunday xususiyatlar xosdir. Uning asosiy mazmuni shundaki, u vaziyat va undagi fe'l-atvor haqidagi yangi bilimni olish uchun model bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'lim beruvchi funksiyasi modellashtirish uslubini qo'llash orqali ilmiy tadqiqotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu keys tadqiqotchilik modelini yaratish tamoyillari bo'yicha quriladi. Shuning uchun uni ko'proq magistraturada, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ta'limda qo'llanish ma'quldir.

Bunday keysda tadqiqotchilik funksiyasining ustunlik qilishi uni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida ancha samarali qo'llashga imkon beradi.

Keysning yuqorida ajratib ko'rsatilgan manbalarini **asosiy, bazaviy yoki birlamchi** manbalar deb atash lozim, chunki ular keyslarga ta'sir ko'rsatishning eng mohiyatli omillarini belgilaydi.

Keyslarni shakllantirishning **ikkilamchi manbalarini** ham ajratib ko'rsatadiki, ular bazaviy manbalardan hosil bo'ladigan tusga egadir. Quyida ularga to'xtalamiz.

1. Xorijiy tajriba ko`rinib to`rganidek, mahsulotlari talabalar uchun muayyan shaxsiy ahamiyat kasb etadigan korxonalar faoliyati ko`rib chiqilganida yoki *axborot «mahalliy» materialga asoslanganida* keyslar muhokamasi ancha mazmunli va qiziqarli kyechedi. Lekin bu keyslarda faqat mamlakatdagi korxonalar tajribasi yoritilishi keraqligini bildirmaydi. Bunda u yoki boshqa sifati bilan milliy bozorda mavjud bo`ladigan korxonalar, tovar yoki xizmatlar nazarda tutilayapti.

Agar talabalar keyslarda bayon qilingan hodisalar bilan bog`liq bo`lgan muhit va sohani yaxshi bilsalar, ular o`zlarini ancha ishonchliroq his etadi. Ularning, masalan, amerikalik yoki boshqa xorijiy iste`molchilar fe`l-atvori va motivlarini muhokama qilishi ancha qiyin kyechedi. O`qituvchi ham o`zi subyektini yaxshi biladigan keys muhokamasiga mohirona rahbarlik qiladi. Har qanday holda ham bunday keyslar muhokamasida korxona – keys obyektini vakilini talif qilishdek noyob imkoniyat mavjud bo`ladi.

2. *Statistik materiallar, bozor ahvoli haqidagi ma`lumotlar, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomalari va shu kabilar* keysga ilmiylik va oddiylik bahsh etadi. Bunda mazkur materiallar vaziyatni tashhis qilish vositasi rolini bajarishi, vaziyatni tushunish uchun juda muhim bo`lgan ko`rsatkichlar hisob-kitobi uchun axborot vazifasini uddalashi mumkin.

Statistik materiallardan foydalanishda talaba bu materiallarni idrok etishi, quyidagi kabi bir necha savollarga javob berishi kerak: «Ushbu materiallar vaziyatni tavsiflashda qanday rol o`ynaydi?», «Materiallarning o`zidagi qaysi narsalar vaziyatni bevosita tavsiflaydi?», «Bunday tavsifnomalar qanday hisoblab chiqiladi yoki ajratib ko`rsatiladi?» va hokazo.

Statistik materiallar keys matnida yoki ilovada joylashtiriladi.

3. *Ilmiy manbalar, publitsistika va badiiy adabiyot asarlari* – bular ham keysni yozish uchun yana bir manbadir. U yoki boshqa muammoga bag`ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy hisobotlarni tahlil etish orqali ham keys uchun yaxshi materiallarni olish mumkin. Yaxshi ilmiy maqola odatda qandaydir masalani teran tushuntirishi bilan tavsiflansa, ilmiy monografiya tadqiqot predmetining bir tizimli, har tomonlama tavsifnomasini beradi. Ilmiy hisobotning o`ziga xos xususiyati esa materialning dolzarbligi va yangiligidadir. Bunday fan mahsulotlari har doim ham vaziyatni bayon qilavermaydi va izohlab bermaydi. Shuning uchun ularni keysolog vaziyat nuqtai nazaridan maxsus mushohadadan o`tkazishi kerak bo`ladi.

Eng qiziqarli ilmiy maqolalar keys-uslubda ikkita funksiyani bajarishi mumkin. Birinchisi shundan iboratki, ilmiy maqolalar va ularning qismlari ularni matnga kiritish orqali keyslarning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin, ikkinchisi shundaki, ular keysni tushunish uchun zarur adabiyotlar ro`yxatiga qo`sxilishi mumkin.

Agar ilmiy manbalar keysga qat`iylilik va oddiylik bersa, unda publitsistika va badiiy adabiyot asarlari emotsional to`liqlik va predmetli izohlilikni yaratadi.

4. *Internet* va uning resurslari – keyslar uchun tuganmas material manbaidir. Ushbu manba keng miqyoslilik, qayishqoqligi va operativligi bilan ajralib turadi.

**Syujet manbalariga
qarab keys turlari**

Syujet mavjudligiga qarab keyslar:
• syujetli;

- syujetsiz bo`ladi.

Syujetli keys odatda bo`lib o`tgan voqealar haqidagi hikoyani, shaxslar va korxonalar harakatlarini o`z ichiga oladi.

Syujetsiz keys, odatda, yaqqol ifodalangan syujetga ega bo`lmaydi, chunki syujetning aniq ifodasi ko`p jihatdan yechimni ochib beradi. Sirtan qaraganda vaziyat tashhisiga, syujetni yana qayta tiklashga yordam berishi kerak bo`lgan statistik materiallar, hisob-kitoblar, ishlanmalar majmuidan iborat bo`ladi.

**Vaziyatni bayon qilishning
vaqtdagi izchilligi bo`yicha keys
turlari**

Keysda bayon qilinadigan vaziyat syujetining vaqtdagi izchilligi ham keysning tasnifiy o`ziga xos xususiyatlariga o`z ta`sirini o`tkazadi. Ushbu belgiga ko`ra keyslarning uch turini farqlashadi:

- O`tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys;
- Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira;
- Prognostik keys.

O`tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys bayon qilinadigan hodisalarning vaqtdagi tabiiy izchilligi bilan tavsiflanadi, sabab-oqibatli aloqalarni yaxshi aniqlashga imkon beradi.

Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotirada vaqt orqaga qaytariladi: unda harakat qiluvchi shaxslar nimalarnidir eslashadi, xotiraning o`zi uzuq-yuluq, ko`pincha bir tizimsiz va fragmentar bo`ladiki, bu vaqt zanjirini qayta tiklashni qiyinlashtiradi. O`z mohiyatiga ko`ra, keys tahlili vaziyat rekonstruksiya, uning biror bir bilish paradigmasi jihatidan idrok qilinishidan iborat bo`ladi.

Prognostik keys yaqin o`tmishdagi va hozirgi voqealarning ancha batafsil bayonini beradi, undagi obyektning kelgusidagi holatining eng yaxshi variantini ishlab chiqish vazifasini qo`yadi.

Obyektiga qarab

Vaziyat obyektiga qarab keyslar shartli ravishda uch guruhga bo`linadi:

keys turlari

- *Shaxslarga oid keys*, unda aniq subyektlar: menejerlar, siyosatchilar, rahbarlar amal qiladilar.

• *Tashkiliy-institutsional keys* - uning obyektini institutsional tizimlar: tashkilotlar, firmalar, kompaniyalar, korxonalar va ular bo`linmalari bo`lishi bilan farqlanadi.

• *Ko`p obyektli keys* – odatda bir necha harakat qiluvchi obyektlarni o`z ichiga oladi.

**Materialni bayon qilish
usuliga ko`ra keys
turlari**

Materiallarni yetkazishning janrga xos xususiyatlariga qarab keys quyidagi turlardan biri shaklida taqdim etilishi mumkin:

- hikoya;
- esse;
- tahliliy yozishma;
- jurnalist tergov;
- hisobot;
- ocherk;

- faktlar majmui;
- statistik materiallar majmui;
- hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui.

Keyslar kattaligiga qarab uch turda bo`ladi:

- | | |
|---|---|
| Kattaligiga qarab
keys turlari | <ul style="list-style-type: none"> • qisqa (lo`nda) keys;</li> <li>• o`rtacha miqdordagi keys; • katta (uzun) keys. |
|---|---|

Keysning kattaligi uning hajmiga bog`liq bo`ladi va uni tahlil etish uchun zarur o`quv vaqtini belgilaydi.

Qisqa keys - shuningdek «Yevropacha», qisqa keys deb ham ataladi. Uning hajmi bir necha jumladan bir-ikki sahifagacha bo`ladi. Uning yechimi ikki soatlik amaliy mashg`ulotning bir qismini band qilishiga mo`ljallangan.

*O`rtacha miqdordagi keys* – uning ko`rib chiqilishi odatda ikki soatlik mashg`ulotni band qiladi.

Katta keys («amerikacha», uzun) – o`nlab sahifalarni o`z ichiga oladi, bir necha amaliy mashg`ulotlar davomida va hatto butun o`quv kursi mobaynida qo`llanilishi mumkin.

- | | |
|---|--|
| Tuzilmasiga qarab keys
turlari | Tuzilmaviy xususiyatlariga qarab keyslarning ikki turi farqlanadi: |
|---|--|

- tuzilmalangan;
- tuzilmalanmagan.

Tuzilmalangan keys tuzilmaviy shakli vaziyatning idrok etilishi va fikrlanishini yengillashtiradigan axborotni o`z ichiga oladi.

Tuzilmalanmagan keys, odatda, muammoni batafsil (ba`zan, hatto haddan ortiq tafsilotlari bilan) yoritadigan katta hajmdagi tuzilmalanmagan axborotni o`z ichiga oladi.

- | | |
|---|--|
| O`quv topshirig`ini taqdim
etish usuligako`ra keys turlari</b> | Ushbu tasniflash asosiga ko`ra keyslar ikki turda bo`ladi: |
|---|--|

• *Savolli keys* – uning yechilishida talabalar vaziyat bayon qilinganidan keyin qo`yiladigan savollarga javob berishi kerak.

• *Keys-topshiriq* - keysni hal qilish jarayonida bajarilishi lozim bo`lgan vazifa yoki topshiriq, odatda vaziyat bayonigacha qo`yiladi.

- | | |
|---|--|
| Didaktik maqsadlariga
ko`ra keys turlari</b> | Ushbu tasniflash asosiga ko`ra keyslarning besh turi farqlanadi: |
|---|--|

1. *Muammo, yechim yoki konsepsiyani oydinlashtiruvchi keys*. Taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar (kompaniyalar)ning uzoq muddat davomidagi ish faoliyatini bayon qiladi (maqsadlari, strategiyalari, mahsulot modifikatsiyalari, turli bozorlardagi ishi va boshqalar).

Bunday keysning ta`limiy maqsadi – misol orqali o`qitish. Rejalashtiriladigan o`quv natijalari – to`g`ri qabul qilingan qarorlarni eslab qolish, taniqli va

muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar va tarmoqlarning amaliyoti bilan tanishish.

2. *Treningli, o`quv mavzui/predmeti bo`yicha malaka va ko`nikmalar orttirishga mo`ljallangan.* Uning ta`limiy maqsadi - talabalarga biror bir harakatlarni bajarish algoritmini o`rgatish.

Talaba quyidagilarni o`rganishi kerak: muayyan model/ formula/hisob-kitob algoritmini qo`llash, berilgan odatiy vaziyatda yagona to`g`ri qarorni qabul qilish.

3. *Tahlil va baholashga o`rgatuvchi.* Keysda aniq vaqt davridagi vaziyat bayon qilingan, vaziyat subyekti oldida to`rgan muammolar aniqlangan va aniq ifodalangan.

Talaba vaziyatni tushunishi, tahlil qilishi va baholashi, qo`yilgan muammo yuzasidan qaror qabul qilishi lozim.

4. *Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o`rgatuvchi.* Murakkab bayon qilingan vaziyatga ega. Muammo vaziyatga kiritiladi-yu, lekin aniq namoyon bo`lmaydi. U statistik ma`lumotlar, korxona hisobotlari, bo`linmalar rahbarlari nutqlari va shu kabilarda taqdim etilgan.

Talabalar muammoni aniqlashi va ifodalashi, uni hal etish usullari va vositalarini ko`rsatishi kerak.

5. *Vaziyat subyekti rivojining yangi strategiyalari va yo`llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag`batlantiruvchi.* Bunday keysning o`ziga xos xususiyati shundaki, boshqaruvchilik muammosi korxona faoliyatining muayyan turiga, muayyan asosiy shart-sharoitlarga bog`lab bayon qilinadi.

Axborot yig`ish usullari va vositalari tanlanishi

Keys uchun axborot yig`ish usullari sifatida quyidagilar tanlanishi mumkin:

intervyu, suhbat, o`rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni), kuzatuv va hokazo.

Quyidagilar axborot yig`ish vositasi bo`lib xizmat qilishi mumkin: so`rovnoma varag`i, intervyu olish varag`i, anketa, har xil jadvallar va boshqalar.

**Axborot yig`ish** Keysga asos bo`ladigan axborotlarni izlash va yig`ish uni yozishdagi muhim muammodir. *Quyidagilar axborot manbalari bo`lishi mumkin:*

- statistik materiallar, hisobotlar;
- vaziyat obyekti faoliyati haqidagi ma`lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma`lumotlar;
- Internet;
- ommaviy axborot vositalari;
- korxona raqiblari, uning ta`minotchilari va iste`molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot;
- talabalarning o`quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari;
- ilmiy maqolalar, monografiyalar.

Darvoqe, xorijiy tajribaning ko`rsatishicha, *korxona rahbarlari bilan intervyu* keysning eng samarali manbalaridan biri hisoblanadi.

Vaziyat modelining qurilishi

Keysologning keysni ishlab chiqishga doir faoliyatining ushbu bosqichdagi mazmunini uning quyidagi

qarorlari belgilaydi:

- Keys qanday bo`ladi: syujetli yoki syujetsiz?
- Keysdagi voqealar axborotni bayon qilishning vaqtdagi izchilligi bo`yicha o`tmishdan hozirga keladigan yoki keys-xotira yoxud prognostik bo`ladimi?
- Vaziyatga oid mashq qanday janrda bayon qilinadi: hikoya yoki esse yoxud tahliliy yozishma yoki boshqacha shaklda?

Keysolog qabul qilingan yechim asosida vaziyat modelini quradi.

✎ **Keysdagi vaziyat modeli** vaziyat subyekti faoliyatining ideal in'ikosidan iborat bo`ladi va ifodalangan muammo tashuvchisi rolini bajaradi. Tashqi ko`rinishiga ko`ra bu hodisalarning muayyan zanjiri yoki hodisalar doirasi, hodisalar bog`lami va shu kabilar bo`lishi mumkin.⁴²

Vaziyat modelini qurish muvaffaqiyati uning o`rganilayotgan mavzu yoki o`quv predmetiga muvofiq bo`lishi darajasiga qarab, shuningdek unda nostandart, muayyan intriga borligiga ko`ra belgilanadiki, bu unga noordinarlik bahsh etib, tadqiqotchilik motivatsiyasini hosil qiladi.

Keys matnining yozilishi

Keysolog keysni yozishga kirishishdan oldin quyidagicha yechimlarni qabul qiladi:

- Keys o`z hajmiga ko`ra qisqa yoki o`rtacha miqdorda yoxud katta bo`ladimi?

- Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi?
- Keysda muammo qanday usulda beriladi?

1-usul – muammoni keysolog ifodalaydi.

2-usul – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo`lmaydi.

3-usul–matnda vaziyat subyektlari o`rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

- Keys tuzilmasi bo`yicha qanday bo`ladi?

Gap shundaki, keys bu shunchaki mohirona bir hikoya yoki muayyan voqealarning optimal sonli sahifalardagi oddiy bayoni emas. Yuqorida qayd qilinganidek, bu, avvalo, muayyan o`quv maqsadlariga erishish uchun qo`llaniladigan pedagogik vositadir.

Shu sababli keys tuzilmasi uch asosiy tarkibiy qism bilan belgilanadi:

1) *motivatsion*, keysning dolzarbligi, uning maqsadi va talaba keysni hal qilishda erishadigan o`quv natijalarini belgilaydi;

2) *syujetli*, u keysdagi amaliy vaziyat mazmunini ochib beradigan harakatlar, voqealar majmuidan iborat bo`ladi;

3) *informatsion*, u vaziyat tahlili uchun zarur axborotni o`z ichiga oladi;

Syujetli va informatsion qismlar nisbatan mustaqil tarzda va chambarchas bog`liq holda ham amal qilishi mumkin (5-chizma).

⁴² . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

☝ *Talabaning hal qilishi uchun taqdim etiladigan har qanday keysda uning maqsadi va topshirig`i/savollari aniq ifodalangan bo`lishi lozim; u topshiriqni hal etish uchun zarur va yetarli axborot hajmini o`z ichiga olishi kerak.*

10- bob. MODULLI TA'LIMNING AHAMIYATI VA MOHIYATI⁴³

Reja

1. Modulli ta'limning mazmuni va mohiyati
2. Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillari
3. Modulli – kredit tizimi
4. Modulli -kredit tizimning ahamiyati va mohiyati
5. ESTSning asosiy tamoyillari
6. ESTSning xususiyatlari

10.1.Modulli ta'limning mazmuni va mohiyati

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

25-jadval

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlari

An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan	Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan
Bir tomonga yo'naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→ o'qituvchi→o'quvchi) • Axborot olish • Xotirada saqlash Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. • Ikki tomonlama muloqot • Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish • Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish • Mazmunni tushunish va hayotga bog'lash

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

Modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash

⁴³ "Mobilising the Brainpower of Europe: Enabling Universities to Make Their Full Contribution to the Lisbon Strategy." Communication from the Commission, COM (2005) 152 final, 12. Brussels: European Union, 2005. http://ec.europa.eu/education/policies/2010/doc/comuniv2005_en.pdf.

dasturlarni o`zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

- o`qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o`rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o`qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o`qitish imkoniyatlarini to`la ro`yobga chiqarish.

Modulli o`qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog`liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o`qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

**Modulli o`qitishda** o`quv dasturlarini to`la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o`qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o`qitishni individuallashtirish mumkin bo`ladi. Modulli o`qitishga o`tishda quyidagi maqsadlar ko`zlanadi:

- o`qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o`qitishni individuallashtirish;
- o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o`qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o`zlashtirishga erishish.

Modulli o`qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo`riqli ma'ruzalar o`qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o`rganiladigan yangi material bilan to`ldirilishi kerak.

10.2.Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillari

Modulni o`qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o`qitishning quyidagi usullarini qo`llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o`quv o`yinlar;
- loyihalash va yo`naltiruvchi matnlar va hokazo.

O`qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o`qitish uzluksizligini ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o`quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o`rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- talabalar o`zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so`ng) qilinishi;
- talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko`ra tabaqalanishi (dastlabki

modullardan so`ng o`qituvchi ayrim talabalarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

➤ axborotni «siqib» berish natijasida o`qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o`quv vaqti tarkibini ma`ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg`ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talabayetarli bilimlarga ko`nikmaga ega bo`ladi.

Modulli metodika asosida o`qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

➤ ***O`tkazilgan tadqiqotlarga ko`ra modulli metodika asosida o`qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.***

1. Faoliyatlik tamoyili: Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko`ra modullar fan bo`yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o`qitish texnologiyasiga fan bo`yicha faoliyat yondashuvida modullarni o`quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

2. Tizimli kvantlash usuli - bu prinsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o`quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo`li bilan erishiladi. Modul umumiy ko`rinishda quyidagi elementlardan iborat bo`lishi mumkin:

➤ tarixiy - muammo teorema masala kashfiyot va tushunchalarning tarixiga qisqacha sharh berish;

➤ muammoli - muammoni shakllantirish;

➤ tizimli - modul tarkibi tizimini namoyon etish;

➤ faollashtirish - bu yangi o`quv materialini o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko`rsatish;

➤ nazariy - asosiy o`quv materiali bo`lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni yechish yo`llari ochib ko`rsatiladi;

➤ tajribaviy - tajribaviy materialni (o`quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;

➤ umumlashtirish - muammo yechimini va modul mazmunini umumlashtirish;

➤ joriy etish- bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o`rganilgan materialni amaliyotda qo`llash;

➤ xatoliklar – talabalarining modul mazmunini o`rganishdagi o`zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo`llarini ko`rsatish;

➤ bog`liqlik - o`tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog`liqligini namoyon etish;

➤ test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

3. Qiziqtirish tamoyili, bu tamoyilning mohiyati ta'lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

4. Modullilik tamoyili, bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash talabaning o'ziga havola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turliligida ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o'qish, o'quv, imitatsion o'yinlar va hokazo) hamda muammoli ma'ruzalar seminarlar maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, modullilik yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug'iladi.

5. Muammolilik tamoyili- muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoning yechim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa talabani qiziqtirib qo'yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

6. Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyili-bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O'qitishdagi ko'rgazmalar nafaqat so'roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab obyektlar kompyuter sur'atchalari ko'rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o'quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa:

Birinchidan, talabani ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchidan, o'quv materialini mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi rasm talabada tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, rangli suratlar o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda talabalarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kyechedi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi. Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi. O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

7. Xatoliklarga tayanish tamoyili- bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga talabalarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi talabada tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

8. O'quv vaqtini tejash tamoyili - bu tamoyil talabalarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30 % va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda, o'quvjarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – talabalarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

10.3. Modulli – kredit tizimi

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining yuksak cho'qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki fan texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur'atlarini mamlakat qay darajada rivojlangan bo'lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta'minlab bo'lmaydi. ITT keyingi rivoji faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta'lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.

Bu kredit texnologiyani yaratilishini va qo'llanishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta'lim sohasidagi xalqaro integrallashuvi eng avvalo o'quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishiga tayanadi.

Ta'lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989-yilda Yevropaning minglab talabalari Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

ERASMUS dasturi bo'yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o'rtasidagi talabalar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi.

ERASMUS dasturining yutuqlaridan biri Yevropa universitetlaridagi o'qitish natijalarini o'zaro tan olish tizimi – Yevropean Credit Transfer System (ECTS) ni yaratish sinash va amaliyotga keng qo'llash deb aytish lozim⁴⁴.

2001-yilda o'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ECTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi.

2001-yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa ta'lim hududini yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra diplomlarning o'zaro tan olinishi, ya'ni o'qitish natijalarini yakuniy ko'rsatkichlarning o'zaro tan olinish muddati – 2010-yil deb belgilangan edi.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo'yiladi:

- Oliy o'quv yurtigacha 12 yillik ta'lim;
- ikki bosqichli oliy ta'lim-bakalavriat va magistratura;
- o'quv jarayoni va o'qitish natijalarini baholash ECTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

10.4. Modulli -kredit tizimning ahamiyati va mohiyati

Kreditda "Kredit – shartli sinov birligi bo'lib, talabaning o'quv fanining ma'lum bir qismini o'tganligi haqidagi ma'lumot beradi. Har bir o'quv faniga ma'lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni talabalarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi.

⁴⁴ ERASMUS Network for Music 'Polifonia'. <http://www.polifonia-tn.org/>.

Talabaning mehnat sarfi – auditoriya mashgʻulotlari mustaqil ishlar va oʻquv rejasida koʻzda toʻtilgan boshqa faoliyatlarini oʻz ichiga oladi. Yaʼni ESTS kreditlari faqat auditoriya soatlari bilan chegaralanmasdan talabalarning toʻla yuklamasiga tayanadi. Shuning uchun ESTS kreditlarini talaba mehnat sarfining oʻquv fanlari boʻyicha shartli-sonli ifodasi deb hisoblash mumkin. Odatda oʻquv rejasidagi fanlarga ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng undan koʻp va kam sonli fanlar ham mavjud.

ESTSda kreditlar yigʻindisi semestrda – 30 oʻquv yilida – 60 bakalavriatdagi oʻquv davrida – 240 ni tashkil etadi. ESTS kreditlari barcha oʻquv fanlariga yaʼni majburiy va talaba tanlovi asosida fanlarga taqsimlanadi. Ular mazkur fan boʻyicha kurs loyihalari va ishlarining mavjudligini hisobga olishlari zarur.

Oʻquv faniga ajratiladigan kreditlar miqdori, fanning murkkabligiga va oʻzlashtirish bogʻliq boʻladi. Yaʼni har qanday murakkab fan ham katta miqdordagi kreditlarga ega boʻla olmaydi. Agar murakkab fan bilish va tushunish darajasida oʻzlashtiriladigan boʻlsa, kam murakkabli oʻquv fani malaka darajasida oʻzlashtirilsa, tabiiyki, oxirgisiga koʻproq kreditlar ajratiladi. Shuning uchun turli taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari uchun, bir fanning oʻzi turli oʻquv dasturlariga va unga muvofiq turli mehnat sarfi va kreditlarga ega boʻlishi mumkin.

Koʻrinib turganidek, bizning mamakatimizda birinchi va ikkinchi talablar bajarilgan. Endi navbat uchinchi talabni bajarishda – yaʼni oʻquv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etish.

Ushbu texnologiya asosida oʻquv jarayonini tashkil etishdan maqsad nimadan iborat?

Oʻquv jarayonini tashkil etishning ESTS kredit texnologiyasiga oʻtishda quyidagi maqsadlar koʻzlanadi:

- xorijda oʻqishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish;
- Oʻzbekistonda taʼlim olgan muddatnini xorijiy davlatlarda tan olinishini taʼminlash;
- Yevropa oliy oʻquv yurtlari oʻquv rejalarini oʻrganish va shu asosida oʻquv jarayonini takomillashtirish;
- talabalar qobiliyatini toʻlaroq ochilishiga va oʻqitishning yuqori natijalariga erishish⁴⁵.

10.5. ESTSning asosiy tamoyillari

ESTSquyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Transfery - ESTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning toʻsiqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targʻiboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Axborot targʻiboti quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning oʻqish natijalari haqida bir-

⁴⁵ Commission of the European Communities. "Delivering on the Modernisation Agenda for Universities: Education, Research, and Innovation." Communication from the Commission, COM(2006) 208 final, 16. Brussels: European Union, 2006. [http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/COM\(2006\)_208.pdf](http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/COM(2006)_208.pdf).

biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;

➤ oliy o'quv yurtlarining o'z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o'rganish;

➤ oliy o'quv yurtlarida, ESTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining ESTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o'quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Sredits – Host universitetida (qabul qiladigan universitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post – universitetda (talabani boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

4. Ta'limning insonparvarlashuvi – bu shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. ESTS ta'limni davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.

5. Ta'limning individuallashtiruv – bu har bir talabaning individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70 %ni, majburiy fanlar esa 30 %dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70 %ni, auditoriyadagi ishi esa 30 %ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar individual ta'limni tashkil qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

6. Ta'limning samaradorligi – guruhda individual o'qitishli auditoriya mashg'ulotlari va talabaning mustavqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70 %gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70 %gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'limning samaradorligi ta'minlanadi.

✎ *ESTS tamoyillari – shaxsning o'z qobiliyatini to'la rivojlanishi va ro'yobga chiqarishi rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko'zda tutadi.*

10.6. ESTSning xususiyatlari

Zamonaviy o'qitish texnologiyasi, oliy ta'lim muassasasining jihozlanganligi, professor-o'qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo'lishi, o'qitishning yuqori sifatleri – ESTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.⁴⁶

O'quv rejasiga bo'yicha:

Barcha o'quv fanlari ikki guruhga bo'linadi – majburiy va talaba tanlovi asosidagi fanlar. Bu nisbatan taxminan 1:2 ga teng qabul qilinadi;

Har bir talaba shaxsiy o'quv rejasiga ega bo'ladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of records) u xususiyatning unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklda tuziladi, o'qitish natijalarini tan

⁴⁶ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, talabaning mazkur davlatda qabul qilingan baholash tizimida ham, xususiyatli tizimi bo'yicha hamp olgan baholari, olingan xususiyatli kreditlari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi:

- Har bir semestrda o'rganiladigan fanlarning soni 3...5ta bo'lishi;
- Mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlaridan ko'p bo'lishi;
- Kredit o'zida talabalning o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan

barcha mehnat sarflarini mujassamlashtirdi. O'quv fani uchun ajratiladigan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo'ladi.

👉 O'quv fani dasturining mazmuni (syllabus) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv fanining to'liq nomlanishi va uning o'quv rejasidagi tartib raqami;
- o'quv fanini o'rganish maqsadi;
- o'quv fanining qisqacha mazmuni;
- taqvimiy reja, mashg'ulotlar jadvali bilan;
- o'qitish texnologiyasi;
- talabaning mas'uliyati va unga qo'yilgan talablar;
- talabalar bilimni baholash tartibi va mezonlari;
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'y xati.

👉 O'qituvchining o'quv yuklamasini hisoblashda:

Umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o'quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi – e'tiborga olinadi.

👉 O'qitish jarayonining asosini:

- shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari;
- talabaning mustaqil ishida, o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi;
- talaba o'quv fanini va o'qituvchini tanlash huquqiga ega.

👉 Har bir talabaga axborot paketi beriladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Oliy ta'lim muassasasi haqida ma'lumot;
- O'quv rejasi;
- O'quv jarayonining grafigi;
- O'quv fanlarining mazmuni;
- Oliy ta'lim muassasida qabul qilingan ta'lim tizimining metodik

xususiyatlari haqida ma'lumotlar:

- talabalar bilimni baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;
- ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga tegishli ma'lumotlar;
- tarixiy va madaniy sohaga oid ma'lumotlar;
- qo'shimcha ta'lim xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar

👉 **ESTS – oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishning demokratik tizimining namunasidir.**

Kreditlarni taqsimlash va ESTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi

Davlat ta'lim standartlariga tayanib tuzilgan o'quv rejasi, o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida o'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflari aniqlanadi. O'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflarini hisoblash namunasi jadvalda keltirilgan.

Kreditlarni hisoblash va ularni o`quv faliyatlari turlari, bloklar va alohida fanlar bo`yicha taqsimlashda o`tish koeffitsientini aniqlash zarur ($K_{o\text{'t}}$).

$$K_{o\text{'t}} = 240 : 8262 - 0,029$$

Bu yerda: 240 – bakalavriatning ESTS bo`yicha umumiy mehnat sarflari yig`indisi, soat.

Kreditlar soni mehnat sarfini o`tish koeffitsientiga (0,029) ko`paytirib toriladi.

O`quv faoliyati turlari, bloklar va alohida o`quv fanlari bo`yicha kreditlarni hisoblash namunalari jadvallarda keltirilgan.

11 - bob. ZAMONAVIY TA'LIM SHAKLLARI: BLENDED LEARNING (ARALASH O`QITISH), MASOFALI O`QITISH, MAHORAT DARSLARI, VEBINAR, EVRISTIK METODLAR

Reja

- 1. Masofali o`qitish metodi haqida tushuncha*
- 2. Masofali o`qitish metodining kamchiliklari va afzalliklari*
- 3. Evristik o`qitish metodi*
- 4. Xorijiy ta'limda tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati*

11.1. Masofali o`qitish metodi haqida tushuncha

Masofaviy ta'lim – oliy ta'lim va kasb-hunar dasturlarini asosiy ishda ishlab to`rgan holda ta'lim muassasasi joylashgan joydan zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda masofadan turib o`zlashtirishdir.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida turli fanlardan talaba (magistrant) larga o`quv mashg`ulotlari olib boruvchi professor-o`qituvchilar AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalaridan foydalanishlari uchun avval ularning bu sohadagi bilim darajalarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun OTMlarda barcha kafedra va bo`linmalarni zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlash, Internetdan foydalanish imkoniyatlari to`la yaratib berilsa, samaradorlik yuqori bo`ladi. Masofaviy ta'lim va Internetni amaliyotga joriy etish an'anaviy va masofali ta'lim o`rtasida raqobatchilik muhitini yaratadi, natijada an'anaviy ta'lim sifati oshadi.

Talaba (magistrant) larning davr talablariga javob beradigan darajada bilim (uquv, ko`nikma, malaka) larni egallashlarida yangi axborotlarni, shuningdek, elektron variantda o`zlashtirishlari yanada yuqori samara bermoqda. Ta'limning yangi turi rivojlanishida ta'lim metodikasi, AKT va foydalanuvchilarga xizmat ko`rsatish marketing metodlari kabi sohalarda fundamental yutuqlar katta ta'sir ko`rsatmoqda. So`nggi yillarda mamlakatimiz qishloq joylarida yashovchi aholining foydalanishi uchun ham ko`plab Internet tarmoqlari ishlab turibdi. Shu sababli masofaviy o`qitishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda masofaviy ta'limni amalga oshiruvchi universitetlar, institutlar, akademiyalar, ularning bo`limlari, markazlari va filiallari soni ortib bormoqda.

Ta'lim muassasasi uzoqda joylashgan bo`lsa talabalarning turli sabablarga ko`ra (transport, yashash va ovqatlanishning qimmatligi, ob-havoning sog`liqqa nomuvofiqligi, nufuzli ish o`rnining mavjudligi va ishlab chiqarishdan ajralgan holda o`qishning noqulayligi va hokazo) muntazam ravishda o`quv mashg`ulotlariga qatnasha olmasliklari yoshlarning, bilimga chanqoq kishilarning o`zlari xohlaydigan nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o`qishlarini cheklaydi. Masofaviy ta'lim esa muammolarni bartaraf etib, ta'lim muassasasida muntazam ravishda o`quv mashg`ulotlariga qatnashishni ko`zda tutmaydigan usullarni joriy etadi.

Hozirgi davrda kompyuterlar vositasida Internetga ulanish, shuningdek, telefon aloqasi, televideniye yordamida masofali ta'limdan foydalanish imkoniyatlari keskin ortmoqda. Masofaviy ta'limning ko'pgina afzallik tomonlari borligi o'z isbotini topmoqda, ya'ni talabalar uchun ta'lim jarayonining erkinligi; asosiy ish joyidan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi; olinayotgan bilimlarning tezkorligi; ta'lim jarayoni iqtisodiy samaradorligining yuqoriligi; talaba (magistrant) larning xotirasida uzoq saqlanishi uchun o'quv jarayoni davrida o'quv materiallarining video, audio, grafika, rasm, animatsiyalar tarzida berilishi; ayrim talaba (magistrant)lar va professor-o'qituvchilar o'rtasida turli ko'rinishdagi adolatsizlik, baholarni sotib olishga ko'proq miqdorda stipendiya olish uchun yuqori reytingga ega bo'lishga urinish hamda tamagirlik holatlarining bo'lmasligi; talaba (magistrant) lar bilimining xolisona baholanishi; olingan nazariy bilim, uquv, ko'nikmalarni tezkor usulda amaliyotga qo'llay olish imkoniyatining mavjudligi; rivojlangan xorijiy mamlakatlarning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yetuk professor-o'qituvchilarning ma'ro'zalarini tinglash imkoniyatining mavjudligi; talaba (magistrant)larni o'z ustida ko'proq ishlashga, jahon tillarini o'rganishga, o'zlarini rivojlangan xorijiy malakatlardagi OTM lar talabalaridek to'tishga da'vat etilishi; o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasida tezkor aloqaning mavjudligi va hokazo.

Yaqin yillarda oliy ta'lim muassasalari ta'limi On-line shaklida joriy etish mumkin bo'lgan ta'lim ma'lumotlar bazasidagi yuqori sifatli interfaol multimediali materiallarga asoslangan bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalarining tabaqalashtirilgan turli guruhlar uchun ma'ro'za va seminarlardan, videokonferensiya va videoma'ruzalar, kompyuterli konferensiyalar, On-line rejimidagi seminarlardan foydalanib, zamonaviy turlicha boshqarib borish vazifalarini taklif etadilar.

Bunday ta'limning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo'lishi mumkin ba'zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo'lmagan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo bizning chuqur ishonch hosil qilishimizga oxir-oqibat odamning ta'lim olishi natijasi faqat o'quv faoliyati shakllari shu jumladan masofaviy ta'lim bilan belgilanmaydi balki o'quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik - pedagogik mazmunga bog'liq bo'ladi. Aynan mana shu mazmunlarini izlab topish milliy mentalitetga nisbatan masofali ta'lim asoslarini ishlab chiqish boshlang'ich vazifasi hisoblanadi. Bu "narsa" turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo'ladi. Fikri sezgilari va harakatlarida moddiylashadi.

Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lim tizimi oldida to'rgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi

jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to'la ochib beradilar: "Agarda millat vaqt o'qida o'zining to'rgan joyini tarixiy yoki "vertikal" solishtirishlar bilan aniqlay olsa shunda u millatlararo yoki "gorizontal" solishtirishlar yordamida dunyodagi o'z o'rni to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda "vertikal" solishtirish ishonch uyg'otadi "gorizontal" esa realist bo'lishga majbur etadi".

Masofali ta'lim - masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'lim axborot - ta'lim muhiti foydalanuvchilar ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ma'lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o'zaro aloqalar protokollari apparat - dasturli va tashkiliy-metodik ta'minotlar sistemali - tashkiliy to'plamidan iborat.

Masofali ta'lim - o'qituvchilarga o'rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o'qitish jarayonida o'qituvchilar va talablarning interaktiv o'zaro aloqalarini, talabalarga o'rganilayotgan materialni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o'qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko'nikmalarini baholashni ta'minlovchi axborot texnologiyalari to'plami.

Universitetlar tashkiliy tizimlarining birlashtirilishi masofali ta'limning o'ziga xos tendentsiyasi hisoblanadi. Misol uchun oxirgi yillarda masofali universitet ta'limi tashkiliy tuzilishi yangi turi - universitetlar konsorsiumi rivojlanmoqda. Bir necha universitetlar faoliyatini birlashtiruvchi va boshqaruvchi maxsus tashkilot masofali ta'lim xizmatlarini ko'rsatmoqda. Universitetlar konsorsiumi turli universitetlarda ishlab chiqilgan abituriyentlar uchun kurslardan tortib ilmiy daraja olishgacha bo'lgan kurslardan iborat kurslar to'plamini taklif etadi. G'arbiy Yevropada oliy ta'lim olish darajasidan masofali ta'lim "ochiq universitetlar" deb ataluvchi shakllarda amalga oshiriladi. Milliy ochiq universitetlar ko'p jihatdan sirtqi ta'lim tashkiliy prinsiplaridan foydalanadilar. Ochiq ta'lim asosida - o'qituvchilar o'zlari oldilarida to'rgan ta'lim maqsadlariga erishishga intilib to'la mustaqil yo'naladigan ta'limmuhitipuxtaishlabchiqilgan.

Bunday zamonaviy telekommunikatsiya vositalari bosma matnlar audio va videotasmalar o'rnini bosuvchi kompyuterli o'quv dasturlari bilan to'ldiriladi. Masofali ta'limning bunday modeli paydo bo'lishi faqatgina masofadan turib emas, balki ta'lim muassasasi qandayligidan qat'iy nazar ta'lim berishni olib borishga olib keladi. Bunday model hali to'la amalga oshirilgan emas. Bu model katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda xususan jamoatchilik tomonidan tan olinishi va ma'lum ilmiy daraja berish diplom va sertifikatlar berish huquqini olish (virtual universitet akkreditatsiyasi) muammolari. Mana shu qiyinchiliklarni yo'qotish va virtual universitet modelining to'la rivojlanishi zamonaviy ta'lim tashkiliy tuzilishida chuqur o'zgarishlarnianglatadi.

11.2.Masofali o`qitish metodining kamchiliklari va afzalliklari

Hozirgi kunda masofaviy ta'limning quyidagi modellari mavjud: Birinchi model: O`qitish muhiti uy, ish joyi, auditoriya, ilmiy markaz; manba - ta'lim oluvchilar, tinglovchilar, tashkilotlar va boshqa ehtiyojmandlar; o`zaro ta'sir qiluvchilar - o`qituvchilar, yo`riqchi maslahatchilar, ma'muriyat xodimlari, ekspertlar va boshqa tinglovchilar; yetkazuvchi bosma materiallar - audio va video yozuvlar; radiotelevideniye, kompyuter va dasturiy ta'lim - videokonferensiyalar, audiokonferensiyalar. Ikkinchi model: ACTJONS (DZPIONS) deb nomlanib, masofadan o`qitish sohasida texnologiyalarni tanlash va qaror qabul qilish uchun rejalashtirilgan.

Masofaviy ta'limning bu va boshqa modellaridan foydalanishda iqtisodiy fanlar bo'yicha muntazam ravishda yangilanib turadigan resurslar saqlanadigan manba Internet hisoblanadi, uning yordamida masofaviy ta'limning eng yangi usullarini o`zlashtirish mumkin bo`lgan holda mamlakat barcha hududlarining yagona Internet tarmog`iga ulanishi dunyodagi boshqa kompyuter tizimlari texnologiyasining aniq bo`lishiga qaramasdan, hududlarda yashovchi talaba (magistrant) lar bilan professor-o`qituvchilar o`rtasidagi aloqa samaradorligi unchalik yuqori emas.

Haqiqatan ham masofaviy ta'lim xarajatlari kunduzgi ta'limga nisbatan ancha arzon. Bu tizimda asosiy e'tibor ta'lim oluvchining mustaqil shug`ullanishiga qaratiladi. Xolbuki, mamlakatimizda ko`pincha buyurtmachi, asosiy ish beruvchi korxona (tashkilot) lar va ota-onalar yoshlarni yuqori to`lov evaziga bo`lsada, nufuzli oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi ta'lim shakliga o`qitishni istaydilar.

Masofali ta'lim faqatgina milliy ta'lim tizimi (institutsional) doirasidagina emas balki oliy ta'lim butun dasturining to`rtidan bir qismini tashkil etuvchi asosan biznes sohasida tayyorlashga yo`naltirilgan alohida tijorat kompaniyalari tomonidan ham rivojlantirilayotganini alohida ta'kidlab o`tish zarur. IBM General Motors Ford kabi va boshqa kompaniyalar tomonidan xususiy korporativ ta'lim tharmoqlari yaratilgan. Mana shu ta'lim tizimlarining ko`pligi murakkabligi bo'yicha ham va soni bo'yicha ham universitetlarda yaratilgan tizimlardan ancha ilgari ketgan.

Oxirgi o`n yilliklar davomida masofali o`qitishning rivojlanishi uzluksiz ta'lim vositasi sifatida dunyo hamjamiyatining diqqat markazi obyekti hisoblanadi. 1990-yil mhart oyida Yevropa komissiyasi "Masofali o`qitish va kasbiy tayyorlash" ishchi hujjatini qabul qildi bu hujjatda ta'lim "ayniqsa ta'limning samaraliligi nuqtai nazaridan qiziqarli. Yuksak sifatli ta'lim texnologiyalari markazda ishlab chiqilishi va shundan keyin joylarda tarqatilishi mumkin" deyilgan. Masofali ta'lim uchun qulay sharoitlar yaratish uchun 1994-yilda Yevropa komissiyasi "Leonardo da Vinchi" dasturini ishga soldi. Ushbu dastur "butun hayoti davomida uzluksiz ta'limni va tayyorlash yangi shakllari" tizimini rivojlantirishi kerak. "Sokrat" dasturi "uyda ta'lim olishni Yevropa masshtabiga olib chiqish" maqsadini o`z oldiga qo`yadi. Masofali ta'lim sohasida faoliyatni muvofiqlashtirish uchun butundunyo masofali ta'lim assotsiatsiyasi (WAOE) tashkil etildi bu assotsiatsiya masofali ta'lim mintaqaviy ta'lim tizimlarini birlashtiradi.

Dunyoda masofali ta'limning tizimlari turli-tumanligi xizmatlar ko`rsatiladigan

ta'lim va tashkiliy shakllari juda xilma-xilligi sababli hatto oddiy turlarga ajratish ham juda qiyin. Quyida chet el nashrlari materialari bo'yicha masofali ta'lim o'qitish tizimlari eng e'tiborlilariko'rsatibo'tilgan.

Mamlakat Masofali ta'lim o'qitish tizimi Belgiya Bryusseldagi Oliy iqtisodiyot maktab. (ESAL) AQShda masofali ta'limning holati va tendentsiyalarini alohida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblaymiz. Birinchidan ta'limning bu turi o'quvchilar ko'p qismini qamrab olgan ikkinchidan o'qitish masofali shakli an'anaviy ta'lim tizimlari bilan (maktab o'rta ta'limdan keyingi hamma ta'lim turlari firmalar ichidagi kasbiyta'lim) tabiiy ravishda birlashtirilgan.

MDH davlatlarida faqatgina 1 millionga yaqin odam masofali ta'lim tizimida o'qitiladi. Misol uchun, 40 ta muhandislik maktablaridan konsorsium tashkil etuvchi Milliy texnologik universitet 90-yillardayoq masofali ta'lim metodi bilan 1100 talabalarni magistr darajasiga tayyorlashni ta'minladi. Masofali ta'lim uchun AQShda televideniya keng foydalaniladi. PBS-TV ommaviy teleko'rsatuvlar tizimi doirasida milliondan ortiq talabalar o'qitiladi. Kattalarni o'qitish dasturi fan biznes boshqaruv kurslarini o'z ichiga oladi. Biznes moliya va AQShdan chiqishsiz huquqi sohasida bakalavr magistr va doktor diplom hamda ilmiy darajalarini olish bilan amerika Kennedi-Vetseri universitetidagi masofali o'qitish dasturi ta'lim xizmatlari orasida alohida o'rin tutadi. Dastur xalqaro tan olingan mavqeini olishni istagan biznesmenlar va bankirlar uchun mo'ljallangan. Mayk Xart tomonidan boshqariladigan Illinoe shtati Benedikt kolleji "Guttler berg" loyihasi ASCh-fayllar ko'rinishida klassik asarlarni iloji boricha keng auditoriyaga yetkazish maqsadini o'z oldiga qo'yadi. Amerika ta'lim xizmatlarini ta'lim xizmatlar bozorida taqdim etishda BMI (Business Management Internatsional) - Kaliforniya shtatida (AQSh) San-Frantsisko shahrida shtab-kvartirasiga ega ixtisoslashtirilgan amerika konsalting kompaniyasi katta faollik ko'rsatmoqda. Shunday qilib, masofali ta'lim faoliyatiga keltirilgan misollardan G'arbda masofali ta'limning rivojlanishi asosiy tendentsiyasi masofali ta'lim tizimi orqali taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarining kengligi va turli xilligi hisoblanadi degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari masofali ta'limning rivojlanishi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Shu jihatlariga ko'ra MO' hozirgi kundagi istiqbolli ta'lim turlaridan biri hisoblanadi. MO' asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf-xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. MO'ga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

- ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot olish malaka oshirish va qaytatayyorgarliko'tashistagidabo'lganlar;
- mintaqaviyhokimiyatvaboshqaruvrahbarlari;
- an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lumotolaolmaganyoshlar;
- o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida

bo'lganfirmavakorxonalarxodimlari;

- ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;
- markazdan uzoqda kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;
- erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;
- jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;
- harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro’yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir. Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimedia bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o’tkazish kompyuterli test nazorati skaner texnologiyasi internet elektron pochta Web-texnologiya elektron virtual kutubxona masofadan turib ta’lim berish taqdim etish texnologiyasi sun’iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.

Vebinar metodi

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan talabalar bilan audio, video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib, ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin.⁴⁷

Muammoli metod

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida subyektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

⁴⁷ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- O'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilishi; - muammoli vaziyatlarni tuzish; - muammoning mavjudligini aniqlab berish; -muammoli topshiriqlarni loyihalash	- O'quv materiali mohiyatining anglab etilishi; - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; - mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; - muammoli masalaga o'tkazish; - topshiriqni bajarish

11.3.Evristik o'qitish metodi

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish; - o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish; - o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	- o'quv muammolari mohiyatini anglab olish; - tadqiqot muammosini o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faollik ko'rsatish; - ularni yechish usullarini topish; - tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o'zlashtirish

Evristik metodi o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramay, bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

11.4.Xorijiy ta'limda tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati

Ta'lim xizmatlarining diversifikatsiyasi va differentsiatsiyasi - ta'lim sohasida bozor munosabatlarini rivojlanishini tasvirlovchi tabiiy jarayondir. Masalan, abituriyent oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda quyidagilardan foydalanishi mumkin: barcha test savollari (materiallari), ularni echilish (bajarilish) qoidalarini o'zida to'liq mujassamlashtirgan darsliklar; abituriyentlar umumiy bilim darajasini aniq fanlar bo'yicha oshiruvchi, ko'pgina OTM lar kirish test sinovlarida ishlatiladigan namunaviy topshiriqlar bilan ishlovchi tayyorlov kurslari; aniq (oldindan tanlangan) OTM ga tayyorlovchi kurslar; aniq (oldindan tanlangan) OTM ga kirish uchun uzluksiz ta'lim dasturlari; repetitor (aniq fan bo'yicha tayyorlovchi) o'qituvchi. Bularni tayyorlash darajasi, muddatlari, narxlari har xil. Individual ravishda o'qituvchida, umumiy potok (oqim) da, kursda mustaqil ravishda ta'lim dasturlari asosida tayyorlanish turlicha tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan abituriyentlar har xil natijalarga ega bo'ladilar. Bu yerda abituriyentning o'z ustida ishlashi, vaqtdan qanday foydalanishi, ta'lim jarayonining qanday tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu usullar va bevosita masofaviy ta'lim orqali ham oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish mumkin. Demak, oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali raqobatbardosh bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni boshqarishda masofaviy ta'lim tizimidan muqobil texnologiya sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, masofaviy ta'limning tashkil etilishi noqulay, umuman maqsadga muvofiq bo'lmagan mutaxassisliklar, kasb - malaka (kvalifikatsiya)lar ham mavjud, masalan, matematik, fizik, ximik, biolog, muhandis-loyihachi, ekspluatatsiya bo'yicha muhandis, quruvchi, shuningdek, har qanday mutaxassisliklardagi vrachlar - bularning masofaviy ta'lim orqali ta'lim olishlari, so'ngra soha bo'yicha, o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishlashlari o'ta xavflidir. Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

Tyutor - (*Tutorem-lotincha*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

Edvayzer (advisor)-frantsuzcha "avisen""o'ylamoq") talabalarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

Fasilitator - (ingliz tilida *.facilitator*, latincha*facilis* – yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator -Qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

12 - bob. IQTISODIY FANLARNI O`QITISHDA LOYIHA TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Reja

1. *Loyiha metodi haqida tushuncha.*
2. *Loyihaviy ta'lim turlari.*
3. *O`quv loyihaviy faoliyatni tashkillashtirish*

12.1.Loyiha metodi haqida tushuncha.

Loyihaviy ta'lim pedagogika amaliyotida 300 yildan ortiq qo'llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko'ra, «loyiha» tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

➤ XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Frantsiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveytsariyadagi, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida tarqaldi.

➤ *Loyihalar usuli* «o'qitish usuli» didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida «erkin tarbiya» g'oyalari yuzaga keldi.

➤ Amerikalik pedagoglar V. Kilpatrik, E. Kollings va E. Parxerstning ishlarida rivojlantirildi, ular tahsil oluvchilarning nafaqat faol o'rganish faoliyati, balki birgalikdagi mehnat, hamkorlik asosidagi faoliyatini tashkil eta boshladilar.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi.

Loyihalashtirish - («loyiha» so'zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Loyiha» atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib, «**Loyiha** (lotincha-projectus, dan tarjimada oldinga tashlangan) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasini anglatadi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihaviy ta'limning muhim belgilari:⁴⁸

➤ Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;

⁴⁸ . Educational Technology Use and Design for Improved Learning Opportunities, Mehdi Khosrow-Pour, USA, 2014, IGI Global,

➤ Talabalarga ularni qiziqtirgan muammoni tadqiq qilish va uni hal etishda yo`naltirish va yordam berishda o`qituvchi o`rni belgilovchi o`quv muhitini yaratadi;


➤ Fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi o`quv muhitini yaratadi;

➤ Talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo`naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta'minlovchi o`quv muhitini yaratadi;

➤ Haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o`rnatadi.

Ta'lim texnologiyasi nima? Ta'lim texnologiyasining xususiyatlari

Ta'lim texnologiyasi⁴⁹ – keng sohadir. Ta'lim texnologiyasi o`rganish, o`qitish va ijtimoiy tashkil qilishning asoslarini o`rganuvchi yoki loyihalash fani yoki turli tadqiqot qiziqishlari majmuasi sifatida olinishi mumkin. 20-rasmda keltirilgan.



20-rasm. Ta'lim texnologiyasi⁵⁰

Ammo, ko`plab tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan taklif etilgan xususiyatlari bor:

1. Texnologiyani qo`llash prinsip asosida: Texnologiya amaliy topshiriqlar uchun ilmiy bilimlarning tizimli qo`llanilishini bildiradi. Shuning uchun, ta'lim


⁴⁹ N.Saidaxmedov. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Fan. 2009. 58-bet.

⁵⁰ www.ziyounet.uz - таълим портали

texnologiyasi turli xil fanlardan olingan nazariy bilimlarga (kommunikatsiya, ta'lim, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, sun'iy intellekt, informatika va xk.) hamda ta'lim amaliyotidan olingan amaliy bilimlarga tayanadi.

2. Ta'lim texnologiyasi ta'limni yaxshilashga qaratilgan. Texnologiya ta'lim tizimining o'rganish jarayonlariga va uning ko'rsatgichlarini oshirishga ko'maqlashadi, chunki u samaradorlik va yoki samaraga tegishli bo'ladi. Bunday qisqa kirishda, biz sohaning boshlang'ich ta'rifini berishga harakat qilamiz.

Ta'lim texnologiyasi ta'limning injiniring fani sifatida. Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar doimo maqsadli kun tartibiga ega. Ba'zan, u faqatgina joriy amaliyotning oshirilgan samarasi yoki samaradorligiga yo'nalsa, ammo tez tez u yangi dizaynlar kashf etish orqali ta'limni yaxshilashga yo'naladi (21-rasm).



21-rasm. Ta'lim texnologiyasi fundamental tadqiqot uchun “joy” sifatida⁵¹

Ta'lim texnologiyasi loyihalash fani sifatida. Loyihalash fani sifatida, ta'lim texnologiyasi odamlar, jarayonlar, bilim, texnik vositalar va tashkiliy strukturalarni jalb qiluvchi majmuaviy ko'p hajmli jarayonlar bo'lib ko'rinadi. O'rganish va o'qitishdagi turli muammolarga yechim topish, dizayn jarayoni, tatbiq qilish va boshqaruv, hamda baholashga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar odatda turli boshqa sohalar, masalan – o'rganish nazariyasi, didaktika va instruksional loyihalash, o'zgartirilgan boshqaruv kabilarda fundamental tadqiqotlar olib boradilar. Ta'lim texnologiyasi, bu holda, tadqiqot olib borish uchun o'rtaliqda bo'ladi. Keling, yangi terminologiya masalalariga qaraylik.

⁵¹ Schneider D.K. Intraduction to Educational technology. 14-p.

“Texnologiya bizni turli loyihalarni ishlatib ko`rish uchun kuchli qurollar bilan ta`minlaydi, bunda ta`lim nazariyasi o`rniga, biz ta`lim fanini rivojlantirishni boshlashimiz mumkin. Ammo, bu fizika yoki psixologiya kabi tahliliy fan bo`lishi mumkin emas, va u aeronavtika yoki sun`iy intellekt kabi dizayn faniga ko`proq monand bo`lishi kerak. Misol uchun, aeronavtikada maqsad – qanday qilib turli ishlanmalar ko`tarish, manevrlikni oshirishga hissa qo`shishini izohlashdan iborat. Xuddi shunday, ta`limning dizayn fani o`rganish muhitlarining turli dizaynlarining o`rganish, hamkorlik, motivatsiya (tushunish) va xokolarga qanday yordam berishini aniqlashdan iborat”⁵² (Kollins, 1992-24).

**Ta`lim texnologiyasi** bu sohadir. Ta`lim texnologiyasi ta`lim uchun mos keluvchi biror-bir texnologiyani anglatadi. Bu ma`nodan tashqari va tadqiqot an`anasiga ko`ra, ta`lim texnologiyasi uchun boshqa nomlar ham bor, masalan:

- **Instruksional texnologiya**
- **Ta`lim kommunikatsiyalari va texnologiyasi**
- **O`rganish texnologiyasi**

Garchi, sof injiniring jihatidan oladigan bo`lsakda, Ta`lim texnologiyasi haqida, instruksional dizayn modellari yoki instruksional dizayn uslublari atamalari bilan gapirish uncha tushunarli bo`lmaydi. Biror bir instruksional dizayner (loyihachi) umumiy o`rganish nazariyasi yoki pedagogika nazariyasi kabi fundamental bilimlarga qiziqishi mumkin. Bu nazariyalar o`rganish tipi yoki o`rganish darajasi orasidagi va tegishli pedagogik strategiya, qanday ta`sir ko`rsatish va motivatsiyaning o`rganish jarayoniga ta`sir qilishi, multimedia loyihasi inson ma`lumotlarini qayta ishlash yoki kognitiv yuklama kabi nazariyalardan nimani o`rganishi mumkinligi, nimaga metakognitsiya va birgalikdagi o`rganish muhim ekanligi orasidagi masalalarga nazar tashlaydi.(81-rasm)ga qarang.

Tadqiqot yondashuvlari va metodologiyalari. Ta`lim texnologiyalari loyiha fani sifatida olinishi va “Loyihaga asoslangan tadqiqot” kabi ma`lum bir tadqiqot metodologiyasini taraqqiy etishi mumkin. Ammo, u shuningdek o`rganish, o`qitish va ijtimoiy tashkil qilishning fundamental masalalariga aloqador ekan, ta`lim texnologiyasi zamonaviy ijtimoiy fan va hayot fanlari metodologiyasini to`la hajmli qo`llaydi.

12.2.Loyihaviy ta`lim turlari.

Izlanuvchilik faoliyati xususiyatidagi o`quv loyihalarning turlari

1. Tadqiqotchilik loyihalari – ilmiy izlanish xususiyatiga ega bo`lib, quyidagi ishlarni bajarish va aniqlash nazarda tutiladi:

- muammoni dolzarbligi va ishlab chiqilganligini;
- Tadqiqot maqsadi;
- Faraz, vazifalar;
- Muammoni o`rganish usullari;
- Axborotni yig`ish va tahlil qilish;
- Tajriba o`tkazish;

⁵² Schneider D.K. Intraduction to Educational technology. 13-p.

➤ Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Ijodiy loyihalar

hamkoriy faoliyatda ishlab chiqilgan yangi mahsulotni ijodiy shakldagi (ijodiy hisobot, ko'rgazma, ishlab chiqarish xonalarini dizayni, videofilm, nashriy mahsulotlar – kitoblar, almanax, kompyuter sahifalaridagi jurnal, kompyuter dasturlari va b.) taqdimoti.

Ijodiy ish guruhi - bu (laboratoriyalar, ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalari, redaksiyalar va boshqalar)

3. Axborotli loyihalar – o'quv jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo'lgan axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan.

Loyihani ishlab chiqish turli manbalardan: monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, sotsiologik so'rovnomalar, elektron ma'lumotlarni izlash bilan bog'liq.

Loyiha natijasi – buklet, nashr, Internet sahifasi shaklidagi taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan axborotdir.

Qo'llash sohasiga bog'liq ravishda o'quv loyihalarni turlari

➤ **Ishlab chiqarishga oid (texnikaviy)** va ijtimoiy loyihalar. Bunda ishlab chiqarishning ijtimoiy tomonlarini (boshqaruv, uy-joy sharoitini yaxshilash va boshqa muammolarni) takomillashtirish uchun muhim bo'lgan muammolarni hal etish nazarda tutiladi.

Muammoni ishlab chiqish xususiyati bilan muvofiqlikdagi loyihalar

➤ Nazariy va amaliyga yo'naltirilgan loyihalar. Bunda kasb ta'limi yo'nalishidagi talabalar pedagogika tarixi fanida tarbiyaga bo'lgan yondashuvlarni o'rganish asosida ijodiy guruhlarda o'zlarining shaxsiy tarbiyaning konseptsiyalarini ishlab chiqadilar.

➤ Amaliy xususiyatdagi loyihada aniq amaliy, ya'ni maktab yoki aniq o'qituvchining buyurtmasi bo'yicha muammoni hal etishga yo'naltiriladi (uslubiy loyiha). Bu loyihalar bitta loyihada o'z aksini topishi ham mumkin.

Masalan: "Menejment" fani bo'yicha mashg'ulotda bajarilgan nazariy loyiha va ishlab chiqarishning tashkiliy madaniyatini tadqiq va tahlil qilishga yo'naltirilgan loyiha "Magazinni maxsuslashtirish va savdo korxonasining tashkiliy madaniyati" videofilmini tayyorlash bilan olib boriladi va bu o'quv materiali sifatida qo'llaniladi.

O'quv fanlariga bog'liqlikda ishlab chiqiladigan loyiha turlari

➤ **Bir fanli loyiha** – bunda loyiha bir fan doirasida amalga oshiriladi.

➤ **Fanlararo loyiha** – bunda boshqa fanlar materiali asosida aniq fan o'rganiladi.

➤ **Fan tashqarisidagi loyiha** – aniq fan doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan ishlar nazarda tutiladi.

Fanlararo va fan tashqarisidagi loyihalar talabalarda faol, mahsuldor faoliyatni ta'minlaydi.

Davomiyligi, bajarish vaqti bo'yicha loyihalar:

➤ Qisqa muddatli loyiha- bu bir necha mashg'ulotlarda yoki talabalarning mustaqil ish jarayonida ishlab chiqiladi.

➤ O'rta muddatli loyiha – bu bir haftadan bir oygacha ishlab chiqiladi.

- Uzoq muddatli loyiha – bir va bir necha oygacha ishlab chiqiladi.
Aniq fanni o`rganishda qisqa muddatli loyiha qo`llaniladi.
Uzoq muddatli loyihalarga diplom va kurs ishlari taaluqli bo`ladi.

O`quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari

- *Tayyorgarlik bosqichi:* loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish – *auditoriya* ishi.
- *Loyihani bajarish bosqichi* – *auditoriyadan* tashqari ish.
- *Yakunlovchi bosqich:* loyiha taqdimoti, talabalar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi – *auditoriya* ishi.

12.3.O`quv loyihaviy faoliyatni tashkillashtirish

1-bosqich - muammoni izlash yoki shakllantirish. Muammo manbasi bo`lib quyidagilar bo`lishim mumkin:

- Ishlab chiqarishga sayohat va uning faoliyatini tahlili, echilmagan muammolarni anqilash;
- O`qituvchi tomonidan aniq ijtimoiy va ishlab chiqarish vaziyatlari bayoni;
- O`quv jarayonini takomillashtirishga oid aniq vazifalar (uslubiy va didaktik vositalar, qo`llanmalar, tavsiyalar, talabalarni mustaqil ishlashlari uchun materiallar, alohida savol va mavzular bo`yicha videofilmlarni ishlab chiqish).

Bu bosqichda o`qituvchini asosiy vazifasi – talabalarni muammoni anglab etishga olib chiqish, uni yechishga bo`lgan motivatsiyani va o`quv loyihaning mahsulotini-anij natijani olishni yaratish hisoblanadi.

2-bosqich, ijodiy guruhlarini shakllantirish, juftlikda va guruhli sharoitda amalga oshiriladi.

Loyiha turiga qarab (ijodiy laboratoriyalar, ijodiy ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalar).

3-bosqich, o`quv loyiha ustida ishlashni rejalashtirish:

- Axborot manbalari aniqlanadi;
- Axborot yig`ish va tahlil qilish yo`llari aniqlanadi;
- Natijalarni taqdim etish yo`llari (hisobot, anij mahsulot) aniqlanadi;
- Mahsulotni baholash mezonlari aniqlanadi;
- Ijodiy guruh vazifalari aniqlanadi.

**4-bosqich, axborotni izlash va yig`ish**, bunda asosiy talab turli manbalardagi axborotlar (adabiyotlarni o`rganish, anketalar, intervyu, so`rovnomalar, kuzatish, ommaviy axborot vositalarini o`qish va tahlil qilish) hisoblanadi.

5-bosqich, axborot tahlili, loyihani ishlab chiqish uchun olingan materiallarning hamkorij muhokamasi amalga oshiriladi.

6-bosqich, loyihani rasmiylashtirish va taqdim etish. Natijalarni rasmiylashtirish turlicha bo`ladi: yozma hisobot, amaliy tavsiyanomalarn (kompyuter variantida), videofilm, texnik qurilmani maketini tayyorlash.

7-bosqich, ish natijalarini tahlil qilish va baholash. Bunda:

- Loyiha mualliflarining o`z faoliyatlari natijalarini o`zi tahlil qilishi;
- Loyiha sifatini o`qituvchi va boshqa talabalarni baholashi.

13 - bob. IQTISODIY TA'LIM TIZIMIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Reja

13.1. Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida zamonaviy darslarni tashkil etish uslubi.

13.2. Muammoli ta'lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi.

13.3. Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llashda muammoli vaziyatlar usulidan foydalanish.

13.1. Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida zamonaviy darslarni tashkil etish uslubi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarining eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabalarining hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq. Har bir dars mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalar yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini berishi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakko'rini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'lim metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta'limni qanday nomlashdan qat'i nazar, uning asosiy xususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilgandan bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi-talabalar *ongiga yetkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so'zlab berish, yozma ifodalash* kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida olgan bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi, to'ldirishi, boyitishi, o'zgartirishi, o'zining mustaqil nuqtai-nazariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv zarur. Muammoli ta'lim jarayonida pedagog boshchiligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarining faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarining o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi

bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi.

Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar: o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi; vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi: o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini; mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi; o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, o'quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi. Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta'lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta'lim jarayonini, muammoli o'qitish vazifasini faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o'qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy o'quv

yurtlari ish amaliyotida muammoli o`qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma'lumot texnologiyasi va dasturlashgan ta'lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o`qitish jarayonida o`quvchi-talabani mustaqillik roli reproduktiv o`quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo`ladi. Muammoli o`qitishning maqsadi o`quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo`llari bilan yangi bilimlarni o`zlashtirishni, o`quvchi-talabalar o`quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o`qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg`ota olishdan iborat.

Professor N.Azizxo`jayeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, ya'ni muammoli vaziyat o`quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo`lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o`zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo`lib xizmat qiladi.⁵³

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat: o`quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilik mavjudligi; muammolarni o`zlari hal etishlari; shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o`zlari o`rganishga harakat qilishlari; nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar. Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o`quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o`quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi. Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o`qituvchi o`zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi o`quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to`g`ri yo`nalish berishi lozim.

O`quvchi-talabalar mashg`ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o`zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo`lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o`quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o`zgarishlarga bo`ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko`rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi. O`qituvchi muammoli ta'lim tizimida o`quvchi-talabalar o`quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo`llay olishga qaratilgan bo`lishi lozim. Demak, buning natijasida o`quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo`llariga o`rganish hamda tafakko`rining rivojlanish qobiliyatining

⁵³ Йўлдошев Ж., Хасанов С. Педагогик технология. – Т.: ТМИ, 2014 йил.

shakllanishiga imkon beradi. O`quvchi-talabalar muammoli ta`lim jarayonida o`quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o`rganishlari, tegishli ma`lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o`quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo`llari bilan yechishlari, ta`lim jarayonini o`zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi. O`quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo`ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

- O`quv muammolarini hal etishda o`quvchi-talabalar tomonidan avval o`zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo`llab, yangi bilimlarni egallash ko`nikmalarini;
- Bilimlarni ijodiy o`zlashtirish va amalda qo`llash malakalarini;
- Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg`ulotda muammoli vaziyat bo`lishi nazarda tutiladi va an`anaviy darsning hamma bosqichlarini o`z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og`zaki mashqlar, o`quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo`yish, yangi o`quv materialini tayyorlash va uni o`rganish, yangi va ilgari o`rganilgan materialni bog`lab mustahkamlash, mashg`ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg`ulotlarda yangi o`rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to`plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o`rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta`limda muammoli o`qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta`limni tashkil etishda o`quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.
2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.
3. O`quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo`yishi va maqsadiga erishishi uchun o`z bilimini to`g`ri baholay olishi.

Ta`lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko`zda tutiladi, ya`ni;

- o`quvchi-talabalar diqqati o`quv materialiga tortiladi;
- o`quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg`otish;
- ularni o`zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo`yish;
- o`quvchi-talabalar o`rganishi mumkin bo`lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko`rsatish;
- o`quv materiallarini tahlil etishga o`rgatish;
- o`qitishdagi muammolarni hal etishning yo`llarini topishda ularga ko`mak berish.

Ta`lim jarayonida muammoli masalalarni yechimini topish bir necha turga bo`linadi:

- O`quvchi-talabalar o`z oldilarida to`rgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o`z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

➤ O`quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo`llay olmaydi.

➤ Ularning muammoni nazariy yo`l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o`rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

➤ O`quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o`zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o`rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.⁵⁴

Ta`lim jarayonida muammoli o`qitish samarali, maqsadga muvofiq bo`lishi uchun uni o`quv jarayoni, o`quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta`lim yordamida talabalarda o`quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondoshish, mustaqil tarzda o`rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi. Shunday qilib, muammoli ta`lim o`quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o`zlashtirishga yordam beradi, o`zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta`lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o`rgatish, ijodiy tajribaga ega bo`lish va uni rivojlantirish, ta`lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta`limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi. O`quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o`ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o`qituvchi va tahsil oluvchilar o`rtasida hech qanday psixologik to`siq bo`lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. So`ngra bugungi mashg`ulotni samarali o`tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon auditoriyadagi barcha tahsil oluvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi. O`qituvchi bugungi mashg`ulotning samaradorligini ta`minlash uchun o`quvchi-talabalar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini auditoriyadan so`raydi. Mashg`ulotning samaradorligini ta`minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi: gapni bo`lmaslik; bir-birini eshita bilish; bir-birini tinglay olish ko`nikmasi; navbat bilan gapirish ko`nikmasi: qo`l ko`tarish qoidasiga amal qilish; sabr-toqatli bo`lish, o`zaro hurmat. Darsni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda o`quvchi-talaba bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo`lishi lozim. Buning uchun qo`yiladigan muammolarga bog`liq bo`lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So`ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma`lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalanadi. Muammoni hal etish bosqichida o`quvchi-talabalarning faol ishtirokini ta`minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

➤ aniqlash bosqichi;

➤ anglash bosqichi;

➤ fikrlash bosqichi.

Birinchi, *aniqlash bosqichida* o`quvchi-talabalarda mavjud bo`lgan tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Aniqlash bosqichini tashkil etish uchun quyidagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

➤ Bu haqda qanday ma`lumotlarga egasiz?

➤ Bu xususda nimani bilishni xoxlaysiz?

⁵⁴ Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: 2012, 233-бет.

➤ Nima uchun bu muhim?

Ikkinchi, *anglash bosqichida* asosiy maqsad o`qish jarayonining dinamikasini ta'minlash, yangi o`quv ma'lumotlarini o`zlashtirishdan iborat. Bunda qo`yilgan muammoni mohiyatini anglab etish va hal etish nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda ta'limning turli faol usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, mikro guruhlar tuzish, munozara tashkil etish va quyidagi tartibda savollar qo`yish mumkin:

- Siz uchun yangi ma'lumotlar bormi?
- Ushbu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday?
- Sizda qaysi jihat eng katta taassurot qoldirdi?
- Buning ahamiyati nimada deb o`ylaysiz?
- Qanday natija beradi deb o`ylaysiz?

Uchinchi, *fikrlash bosqichida* muammoning yechimi chiqarilib, fikr-mulohazalar bildiriladi. O`quvchi-talabalarni fikrlashga jalb etish uchun ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilish samarali sanaladi:

- Bu hakda qanday o`ylaysiz?
- Qanday yangi fikrlar keldi?
- Fikringizni asoslay olasizmi?

Ushbu savollarga javob berish mobaynida o`quvchi-talabalar yangi tushunchalarni bayon etishga harakat qilishlari zarur. Hosil bo`layotgan fikrlarning moslashuvchan, rang-barang bo`lishiga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim jarayoniga o`ziga xos psixologik jihatdan yondashuv o`quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga, o`z fikrini erkin bayon etishga undaydi. Shu bilan birga qo`yiladigan muammoni ijodiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Bunda quyidagi faol usullardan foydalanish mumkin:

Mikroguruhlarda ishlash. O`quvchi-talabalar besh-oltitadan kichik guruhlariga ajratilib, muammoni erkin munozara-muhokama qiladilar. Masalan: shu guruhda tahlil qiladilar va har bir a'zo yoki o`zlari belgilagan biror o`quvchi-talaba fikrlarini bayon etadi. Bu guruhlar tasodifiy tashkil etilishi mumkin. Masalan, "oq, qizil, qora, yashil, sariq" ranglar beriladi. "Oq"lar birinchi mikroguruh, "Qizil"lar ikkinchi mikroguruh va h.k. Bu guruhlar doimiy faoliyat ko`rsatadilar.

"Muzyorar" va taqdimot – mashg`ulot mavzusidan kelib chiqib erkin munozara tashkil etish.

"Aqliy hujum" – iloji boricha qisqa, lo`nda va ko`proq fikrlar to`plash, vaqt chegaralangan bo`lib, tezkorlik talab qilinadi. Replika tarzida bildirilgan fikrlar ham qabul qilinadi, inobatga olinadi.

"Rolli o`yinlar" – drama, ma'lum holatlarni imitatsiya qilish, stsenariylar tuzish. Har bir ishtirokchi biror rolni erkin shu personajning fikrlarini aniq anglash va uning nomidan so`zlashi shart. Shu o`yin orqali o`quvchi-talabalar ma'lum ibrat va xulosalar olishi lozim.

"Ijodiy faoliyat" – rasm chizish, ijodiy insho yozish, rollar o`ynash.

"Muammoli vaziyatlar" – ma'lum holatlar, vaziyatlar hosil qilinib, mikro guruhlarda va individual tarzda muhokama qilish.

"Roven doirachalari" - bunda o`quvchi-talabalarga 2 ta fikr, yo`nalish, ma'lumot berilib, ularning o`ziga xos va umumiy jihatlari ajratiladi.

"T sxema" – bunda bir jihat berilib, uning ijobiy, salbiy, maqbul, nomaqbul tomonlari ajratiladi. Masalan, test asosidagi sinovlarni ijobiy tomoni va kamchiliklari nimada?

Mashg'ulotlarni bu usulda tashkil etishda o'qituvchi nimalarga erishadi, degan savol tug'iladi. Bunda birinchidan, o'qituvchi: o'quvchi-talaba o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish; faol munozarani vujudga keltirish; o'quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; o'quvchi-talabalarga turlicha fikrlarni tinglash imkonini beradi; tanqidiy fikrlash ko'nikmasini hosil qiladi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; turli ijtimoiy munozaralarga kirish malakasini hosil qiladi.

Mustaqil fikrning hosil bo'lishi uchun birinchi navbatda ma'lum shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir, vaholanki mustaqil fikrni hosil qilishning aniq formulasi yo'q.

Chunonchi:

➤ *mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish uchun vaqt va imkoniyat berish zarur. O'quvchi-talaba mulohaza qilish uchun sharoit yaratadi;*

➤ *o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;*

➤ *har bir shaxsning o'z fikr-mulohazasi mavjudligiga o'quvchi-talabalarni ishontrish;*

➤ *ijodiy mustaqil fikrni qadrlashga o'rgatish. Bunda o'quvchi-talabalar, albatta:*

➤ *o'z-o'ziga va o'qituvchiga ishanishi;*

➤ *faol o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etishi;*

➤ *turli fikr-mulohazayarp diqqat va hurmat bilan eshitishi;*

➤ *yangi fikr-mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor turishlari zarur.*

Bitiruv oldi malakaviy amaliyoti davomida "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida amaliyotchi sifatida tadqiqot ishlarini olib borib, bitiruv malakaviy ishiga amaliy qismi uchun materiallarni to'pladik va muammoli ma'ruzani tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqdik.

Muammoli ma'ruzada ta'lim berish texnologiyasining variantlari

(Talabalarga oldindan ma'ruza matnlari berilgan)

1-bosqich. Ma'ruza mavzusini e'lon qiladi, (talabalarga tarqatilgan matnda mavjud) asosiy savol, ahamiyatli tushuncha va so'zlarni eslatadi. Ma'ruza mashg'ulotining kutilayotgan o'quv natijalari va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi.

2 - bosqich.

1. Tanlagan variantga (oltitadan bittasi) muvofiq harakat qiladi. (Variantni tanlash maqsadni belgilash, vaqt, o'quv axborot mazmuni hajmiga bog'liq):

➤ *Muammoli savollar beradi:*

➤ *ularni yechishni mustaqil izlashlari maqsadi bilan talabalarni qarama-qarshilikka olib keluvchi bir qator savollar;*

➤ *muammoni turli tomondan ko'rib chiqiladigan, savollar;*

➤ *"Ochiq" savollar beradi (yozuv taxtasida testni yozish/ekranga chiqarish) va "O'ylab ko'rishni/juftliklarga bo'linishni/fikrlar bilan almashishni" taklif etadi.*

➤ Qisqa, bir ma'noga ega javoblar (“Ha” va “Yo`q”, “To`g`ri” va “Noto`g`ri”) berishni talab etuvchi, mavzuning muhim jihatlarini yorituvchi bir qator savollarni beradi.

➤ “Ko`rish yo`ldoshi” texnikasini qo`llaydi.

➤ “Aqliy hujum” usulini qo`llaydi.

➤ *Grafikli tashkilotchilar*: “B/BX/B” jadvali, Insert jadvali, klasterlar, toifali jadvalni qo`llaydi.

2. O`zining xohishiga ko`ra, uni olib borishning xohlagan shaklini tanlab ma`ruza o`qiydi. Bunda u quyidagilardan foydalanilishi mumkin:

➤ Quyidagi grafikli tashkilotchilarni: muammolar sababini aniqlovchi diagramma; xronologik jadval; klaster; toifali jadval; tuzilmaviy-mantiqiy chizma; T-chizma va boshqalar.

➤ ta`limni tashkillashtirishning shunday shakllarini, ya`ni ommaviy, jamoaviy yoki guruhlarda juftliklardagi ishlash.

3 - bosqich.

1. Xulosa qiladi, talabalar diqqatini asosiya qaratadi.

2. Agar 2 - bosqichda “Ko`rish yo`ldoshi” texnikasi qo`llanilgan bo`lsa, unda talabalarga asosiy tushuncha va atamalarni taklif etilgan ma`lumot va uni bayon etish tuzilmasining qo`llanish tartibi bilan ularning bashoratlarni taqqoslashni taklif etadi. Natijalarni sharhlaydi.

3. Kelgusidagi kasbiy ish faoliyatlari uchun bajarilgan ishlarning muhimligini ko`rsatib o`tadi.

4. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi va sharhlaydi.

Tadqiqot davomida o`rgangan pedagogik texnologiyalarni qo`llanilishi yuzasidan organayzerlarni chizma ko`rinishida ishlab chiqdik. Pedagogik texnologiyalarni qo`llanilishi, shaxsni shakllanishida, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini hisobga olgan holda qo`llanilish instruksiyasini tahlil qilib tayyorladik. Universitet o`qituvchilari tomonidan zamonaviy darslarni tashkil etishda doimiy ravishda qo`llanilib kelinadi.

13.2. Muammoli ta`lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi

Oliy o`quv yurtlarida o`quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o`qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma`ruza (kirish ma`ruzasi, mavzuli ma`ruza, umumlashtiruvchi ma`ruza) mashg`ulotlari.

2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo`ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6. Didaktik-o`yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o`yin mashqlar) darslar.

7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli ta'limni tashkil etishning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli masalalarni hal etishda o`qituvchi o`quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo`naltiradi.

Muammoli masalalardan o`quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli masalalar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o`tish tavsiya etiladi. O`qitish jarayoniga muammoli darslarni qo`llash uchun o`qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo`ladi:

➤ o`quv dasturi bo`yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o`tish mumkinligini;

➤ mavzu matnidagi masalalar bo`yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;

➤ o`quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta`minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o`z o`rnida va samarali foydalanish yo`llarini belgilashi zarur.

O`qituvchi o`rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta`lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg`ulot turini belgilaydi, o`quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi.

Oliy o`quv yurtlarida zamonaviy ta`lim texnologiyasi – bu muammoli o`qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta`lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta`lim jarayonini, muammoli o`qitish vazifasini faol o`rganish jarayonini rag`batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o`qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy o`quv yurtlari ish amaliyotida muammoli o`qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma`lumot texnologiyasi va dasturlashgan ta`lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o`qitish jarayonida o`quvchi-talabaning mustaqillik roli reproduktiv o`quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo`ladi. Muammoli o`qitishning maqsadi o`quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta`lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo`llari bilan yangi bilimlarni o`zlashtirishni, o`quvchi-talabalar o`quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo`yicha o`qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg`ota olishdan iborat.

Professor N.Azizxo`jayeva muammoli vaziyatning ma`nosini quyidagicha ta`riflagan, ya`ni muammoli vaziyat o`quvchi-talabalarga ma`lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo`lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o`zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo`lib xizmat qiladi.⁵⁵

⁵⁵ Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2006.

Ta'lim jarayonida muammoli ta'limni tashkil etish xususiyati quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilik mavjudligi;
- muammolarni o'zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o'zlari o'rganishga harakat qilishlari;
- nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o'quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o'quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib yetishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. O'quvchi-talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O'qituvchi muammoli ta'lim tizimida o'quvchi-talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakko'rining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan yechishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

➤ O`quv muammolarini hal etishda o`quvchi-talabalar tomonidan avval o`zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo`llab, yangi bilimlarni egallash ko`nikmalarini;

➤ Bilimlarni ijodiy o`zlashtirish va amalda qo`llash malakalarini;

➤ Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg`ulotda muammoli vaziyat bo`lishi nazarda tutiladi va an`anaviy darsning hamma bosqichlarini o`z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og`zaki mashqlar, o`quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo`yish, yangi o`quv materialini tayyorlash va uni o`rganish, yangi va ilgari o`rganilgan materialni bog`lab mustahkamlash, mashg`ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg`ulotlarda yangi o`rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to`plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o`rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta`limda muammoli o`qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta`limni tashkil etishda o`quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O`quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo`yishi va maqsadiga erishishi uchun o`z bilimini to`g`ri baholay olishi.

Ta`lim jarayonida muammoli holatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko`zda tutiladi, ya`ni;

➤ o`quvchi-talabalar diqqati o`quv materialiga tortiladi;

➤ o`quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg`otish;

➤ ularni o`zlashtirish faoliyatini jonlantirish;

➤ ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo`yish;

➤ o`quvchi-talabalar o`rganishi mumkin bo`lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko`rsatish;

➤ o`quv materiallarini tahlil etishga o`rgatish;

➤ o`qitishdagi muammolarni hal etishning yo`llarini topishda ularga ko`mak berish.

Ta`lim jarayonida qator yechimini topish mumkin bo`lgan muammoli masalalar mavjud bo`ladi:

➤ O`quvchi-talabalar o`z oldilarida to`rgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o`z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

➤ O`quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo`llay olmaydi.

➤ Ularning muammoni nazariy yo`l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o`rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

➤ O`quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o`zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o`rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta`lim jarayonida muammoli o`qitish samarali, maqsadga muvofiq bo`lishi uchun uni o`quv jarayoni, o`quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish

zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondoshish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

13.3. Muammoli ta'lim texnologiyasini ko'llashda muammoli vaziyatlar usulidan foydalanish

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki "fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq" bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar: o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi; vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

➤ o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini; mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi; o'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

Usulning etakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

- O`rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan;
- Rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko`ra bilishini shakllantirish;
- Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko`nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, nazariyani amaliyot bilan bog`lash, imkonini beradi, bu materialni ta`lim oluvchilar uchun yanada ko`p dolzarbli qiladi.

O`quv muammosining muhim belgilari quyidagilardan iborat bo`ladi:

- noma`lumning borligi, uni topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi;
- noma`lumni topish yo`nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun ta`lim oluvchilarda ma`lum darajada bilim manbalari borligi.

Muammo 3 tarkibiy qismdan tashkil topadi:

1. Ma`lum (ushbu berilgan vazifadan).
2. Noma`lum (topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi).
3. Noma`lumni topish yo`nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun kerak bo`lgan, avvalgi bilimlar (ta`lim oluvchilar tajribasi).

Shunday qilib, o`quv muammosini ta`lim oluvchilarga oldindan noma`lum bo`lgan natija yoki bajarish usuli vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Lekin ta`lim oluvchilar ushbu natija qidiruvini amalga oshirish yoki hal etish yo`li uchun dastlabkiga egadirlar. Shunday qilib, ta`lim oluvchilar hal etish yo`lini biladi, vazifasi o`quv muammosi bo`lmaydi. Boshqa tomondan, agarda ta`lim oluvchilar u yoki bu vazifani yechish yo`lini bilmay uni yechish qidiruvi uchun vositaga ega bo`lmasalar, unda u ham o`quv muammosi bo`lishi mumkin emas.

Muammoli vazifani murakkabligi (vaziyat «o`quv» muammo) bir qator dalillar bilan aniqlanadi, bu jumladan ta`lim oluvchilar darajasiga mos qilishi kerak. Agarda tanishtiruvchi material juda ham hajmi katta yoki murakkab bo`lsa, ular hamma akborotni qabul qila olmaydilar, yechimini topishni bilmaydilar va o`quv faoliyatida bo`lgan har qanday qiziqishlardan mahrum bo`ladilar.

Muammoli vazifani ishlab chiqish pedagogik mahoratni talab etadi. Qoidaga binoan, vazifani bir necha marotaba tajribadan o`tkazgandan so`ng o`quv guruhida omadli variantini tuzishga ega bo`linadi. Shunga qaramay, bunday vazifalar nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog`lash imkonini beradi. Bu ta`lim oluvchilar ongida o`qitishni faollashtirishga imkon beradi, kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun o`rganilayotgan materialning amaliy foydasini anglab etishga yordam bo`ladi.

FAN BO`YICHA TESTLAR

1. **Pedagogik munosabatning tizimini aniqlang.**

- A) Doimo o'zgarmaydigan ijobiy munosabat, sust holdagi ijobiy munosabat, barqaror salbiy munosabat
- B) Bir-birini tushunib olish, turli rollarda bo'lish, o'zini namoyon qilish
- S) Oldindan ogohlantirish, tezlik bilan ta'sir qilish.
- D) Bo'lajak munosabatni modellashtirish, oldinda munosabatda bo'ladigan guruhni bilish, bevosita munosabat o'rnatish, munosabatni boshqarish, munosabatni tahlil etish.**

2. **O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat usuli pedagogik muomalaga kirishish yo'llarini belgilaydi. Muomalaga kirishish yo'llarini aniqlang.**

- A) Darsni rang-barang shaklda tashkil etish, o'zida ishga xohish uyg'otish.**
- B) Shaxsga va jamoaga ta'sir eta bilish ko'nikmasi
- S) Doimiy o'zgarmaydigan ijobiy, sust holdagi ijobiy, barqaror bo'lmagan va barqaror salbiy
- D) O'z nutqini boshqara olish bilan bog'liq bulgan ko'nikma.

3. **Munosabat turli vazifalarini bajaradi. Ularni belgilang.**

- A) Isbotlash, hikoya qilish, shaxsiy namuna, ma'qullash
- B) O'zini, har bir shaxsni bilib olish, tushunib olish, axborot berish, fikr almashish
- S) Tadbir rejasini tuzish, guruhlariga bo'linish, topshiriqlar olish, tadbirni o'tkazish, tahlil qilish
- D) YAngi dars turlaridan foydalanish, dars turlarini takomillashtirish, darsni rang-barang usullarda tashkil etish

5. **O'qituvchining rahbar sifatidagi boshqarish yo'llarni aniqlang.**

- A) Avtoritar, demokratik, liberal.**
- B) YOqtirish, yoqtirmaslik, do'stlik, salbiy munosabat, o'zaro hurmat.
- S) Xabar berish muloqot olish, hikoya qilish, suhbat o'tkazish.
- D) O'zgalarni tushunish, yolg'on xushomad qilish.

6. **Yosh o'qituvchi o'zining ish faoliyatida qanday psixologik to'siqqa duch keladi?**

- A) Do'stlik, hamjihat bo'lib ishlash, xizmatdagi moslik.
- B) Yolg'on xushomad qilish, kasbga bulgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoktirmaslik.
- S) Ijtimoiy, sinfdan qo'rqish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida oraliqning hosil bo'lishi.**
- D) Mensimaslik, buyruq, ayblash.

7. Hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikatsiya turlari quyidagilar:

- A) O'qituvchining hikoyasi, shaxsiy namuna, munozara, suhbat.
- B) Bilish, anglash, ekspressiv, ishontirish ijtimoiy-an'anaviy, kishi holatini so'zsiz tushunish.
- S) Buyruq, ko'rsatma, kesatik, ayblash.
- D) Avtoritar, liberal, demokratik.

8. Kommunikatsiyada ishontirishning quyidagi ish shakllari mavjud:

- A) Ovozning o'zgarishi, talaffuz, nutq oxangi.
- B) **Nutq madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, o'z-o'zini boshqarish munosabati.**
- S) Mavzu bo'yicha topshiriq berish, uni mashq qilish, rag'batlantirish.
- D) Bahs, munozara, suhbat, o'qituvchi hikoyasi, o'qituvchining shaxsiy namunasi.

9. Kommunikatsiyada ta'sir etishning quyidagi shakllari mavjud:

- A) Oldindan ogohlashtirish, tezlik bilan ta'sir etish, ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiq etilgan iboralar, andozaga kiritilgan nutqlar.
- B) **O'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, nutq madaniyati.**
- S) O'z kasbiga bulgan salbiy munobat, chiqisha olmaslik, murosasizlik
- D) O'tkaziladigan tadbirni tanlash, rejasini tuzish, tahlil qilish, guruhlariga bo'linish.

10. Nutq texnikasi bo'yicha ishlab chikilgan mashqlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- A) Nafas olish, ovoz o'zgarish, ravon nutq.
- B) YOzma va og'zaki nutq, ichki nutq.
- S) Ichki nutq, tashki nutq, dialogik va monologik nutq
- D) Nutq organlari, nutq apparati.

11. Quyidagi pedagogik nazokatga oid fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

- A) Pedagogik nazokat – do'stlik, xizmatdagi moslik, chiqishib, hamjihat bo'lish, mayinlik.
- B) Pedagogik nazokat – tadbirni tanlash, uning rejasini tuzish, o'tkazish va tahlil qilish.
- S) Pedagogik nazokat - nafas olish, ovozni o'zgaruvchanligi, talaffuz ravon nutq.
- D) **Pedagogik nazokat – o'qituvchining kasbiy sifati va mahoratining bir yo'nalishi, uning odobi esa o'qituvchining obrusini tartibga solib turadi, uni saklashga yordam beradi, kollektivdagi o'rnini belgilaydi**

12. O'qituvchi faoliyatidagi muloqot odobiga qo'yiladigan talablar:

- A) Do'stlik, xizmatdagi moslik, hamjihat bo'lib ishlash, mayinlik, samimiylilik.
- B) Yo'qirish, yoqtirmaslik, chiqisha olmaslik, kasbga bo'lgan salbiy munosabat.
- S) Bahs-munozara, o'qituvchi hikoyasi, suhbat uyushtirish
- D) Bilish, anglash, ta'kiklash, andoza olish

13. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari kuyidagilar:

- A) Turli rollarda bo'lish faoliyati, fikr almashishi, birga kaygurish, xayol surish.
- B) Doimo o'zgarmaydigan ijobiy munosabat, barqaror bo'lmagan, barqaror salbiy munosabat.
- S) Hamfirklik, kelishuvchanlik, tashabbusni ma'qullash.
- D) **O'qituvchining uz nutqini boshqara olish qobiliyati Bilan bog'liq ko'nikma, shaxsga va jamoaga ta'sir eta bilish ko'nikmasi.**

14. O'qituvchining o'quvchilar bilan kollektiv ijodiy ishni tayyorlashdagi tashkilotchiligi.

- A) O'zida kizikish paydo qilish, erkin holda dars utish, faoliyat ko'rsatish.
- B) o'tkaziladigan tadbirni o'quvchilar bilan birgalikda tanlab rejasini tuzish, reja asosida guruhlariga bo'linish va topshiriqlar olish, tadbirni tayyorlash, tadbirni o'tkazish, o'tkazilgan tadbirni tahlil qilish
- S) Darsni rang-barang, yangi uslublarda tashkil etish
- D) Isbotlash, xabar berish, tushuntirish, hikoya qilish.

15. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning prinsip va metodlari qaysilar?

- A) Dolzarblik, joriy qilishga tayyorlik, natijaviy, Amaliy samaradorlik, real istikbol, bir butunlik.
- B) Maksadga yo'naltirilgan ta'lim, metodlarni tanlash, maqsadga muvofiqli tanlov va texnikani samarali ishlatish, rejalashtirish.
- S) Umuminsoniy qadriyatlarga sodiklik, xalqning ma'naviy boyligini mustahkamlash, insonning o'z imkoniyatlarini erkin holda ishlata bilish, vatanparvarlik.
- D) o'quv dasturini egallashda yuksak, professional saviyada ta'lim berishni ta'minlash, o'quvchini hurmat qilish

16. Bo'lajak o'qituvchi o'z ustida ishlashi uchun qanday vazifalarni bajarishi lozim?

- A) **O'quv dasturlarini egallashda yuksak professional saviyada ta'lim berishni ta'minlash, pedagogik nazokatga rioya qilish, o'z ko'nikmasi va professional mahoratini takomillashtirish.**
- B) Axborot berish, rivojlantirish, ta'sir etish, bilimga munosabatni shakllantirish, harakatga intilishni uyg'otish.

S) O‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish, o‘z-o‘zini ishontirish, o‘z-o‘zini majbur etish, o‘z-o‘ziga buyruq berish.

D) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik xamkorlikdagi ijodkorlik.

17. Shaxsga ta’sir etishning metod va usullariga tarbiyalash kuyidagilar kiradi.

A) O‘z-o‘zini boshqarish, o‘quvchi shaxsini tushunish, muomalada o‘zini ko‘rsata olish.

B) O‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

S) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikdagi ijodkorlik.

D) O‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga hisobot berish, o‘z-o‘zini ishontirish, o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘z-o‘zini majbur etish.

18. Ilgor pedagogik tajribani o‘rganishning asosiy boskichlarini aniklang.

A) Tajriba o‘rganishning maksadi va vazifasini tuzish, dolzarb mavzuni aniqlash, maktab amaliyoti va pedagogik fanning dolzarb masalalarini hal etishda usta-o‘qituvchining erishgan yutuqlarini aniqlash, materiallarni to‘plash, tahlil, muomala, xulosa.

B) Shaxsni bilish, axborot almashish, faoliyatni tashkil etish, rollardagi almashuvlik, o‘z-o‘ziga ishonch, hamdardlik.

S) Modelni tuzish, muomalani boshqarish, muomalani tahlil etish, bulajak faoliyatni modelni tuzish.

D) Mustao‘kam, nazariy va amaliy.

19. «O‘qituvchi» atamasiga berilgan ta’rifning kaysi biri mukammal.

A) o‘qituvchi – yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi kishi.

B) O‘qituvchi – inson kalbining muxandisi

S) O‘qituvchi – ziyo nurini taratuvchi

D) O‘qituvchi – murabbiy, ustoz.

20. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?

A) Pedagogik jarayon – inson shaxsini shakllantirishga karatilgan jarayon.

B) O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan shaxs.

S) Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyati.

D) Bolalar va o‘smirlar orasida ta’lim-tarbiya ishiga mas’ul kishilarning faoliyati.

22. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?

A) Sog‘lom bo‘lishi, suzlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, vazmin

bo'lishi.

B) Bolalarni yoqtirishi, xushmuomalali, kuzatuvchi, keng fikr yurituvchi, suzlarni to'g'ri talaffuz qiladigan, jismonan baquvvat va sog'lom, asablari mustahkam.

S) Bolalarni yoktirishi, o'z fanini mustaxkam egallashi, nutqi ravon.

D) To'g'ri javob yo'q.

23. Antik davr mutafakkirlaridan kimlar pedagogning kasb mahorati va ularning notiqlik san'ati haqida fikr bildirgan?

A) Sukrot, Platon

B) Demosfen, Aristotel

S) Sitseron

D) Kantiliyak

24. Metodologiya deganda nimani tushunamiz?

A) o'qituvchining pedagogik mohirligini shakllantirish

B) dars utish uslublarining majmui

S) **Faoliyatning** tarkibi, mantiy tuzilishi va uni o'rganishning metod va vositalari haqidagi ta'limot.

D) dars o'tish jarayonini tashkil etish.

25. Metodika deganda nimani tushunamiz?

A) Metodika bu – fanni o'rganish

B) Metodika bu – fanni tushuntirish usullari

S) Metodika bu – o'quv jarayonini tashkil qilish, shakllari, usullari, qonun-qoidalari va ularni o'rganadigan fan.

D) **a va s javoblar to'g'ri.**

26. Metod deganda nimani tushunamiz?

A) Tabiat va jamiyat xodisalarini bilish,

B) biror ishni bajarish, ado etish, amalga oshirish usuli.

S) fanni o'rganish uslubi yoki uslublari tizimi

D) **a, b, s javoblar to'g'ri.**

27. Dars berish metodikasining predmeti bu-

A) **Dars berish o'qitish jarayonining uzidir.**

B) Talabalar bilan o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

S) Talabalarni bilim olishga intilishini o'rganish

29. O'qituvchining kommunikativ kaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) O'quvchiga bevosita emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

B) **O'quvchiga to'g'ri muomala kila olish, qobiliyatli bolalarga yaqin bo'lish, ular bilan pedagogiksamsrli munosabat urnata bilish qobiliyati.**

S) O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish.

D) Muomala madaniyatiga ega bo'lish.

30. Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subyekti nima hisoblanadi?

A) O'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyatlari.

B) Talaba va uning talabchanligi.

S) O'quv jarayonidagi aktivlik.

D) Talabalar bilim salohiyatlarinig oshishi.

31. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining nechta asosiy qonuniyatlari farqlanadi?

A) 3 ta.

B) 4 ta.

S) 5 ta.

D) 2 ta.

33. O'qituvchining innovatsion faoliyati nimalarga karatilgan?

A) Voqeilikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishga qaratilgan.

B) Pedagogik jaraen va shaxs bilimlarini rivojlantirishga.

S) O'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasiga qaratilgan.

D) Shaxsni mukammal inson darajasiga etkazishga.

35. O'qituvchining nutq qobiliyatiga berilgan ta'rif qkaysi fanda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) To'g'ri muomala kila olish qobiliyati.

B) Nutq yordamida, shuningdek imo ishora vositasida uz fikr-tuygularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.

S) O'qituvchining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olish qobiliyati.

D) To'g'ri talaffuz qila olishi.

37. Munozaraga izoh qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs.

B) Muayyan muammo bo'yicha fikr almashinishiga asoslangan ta'lim metodi.

S) Muloqotning etakchi turi.

D) A va B javoblar to'g'ri.

39. Munosabatlarning usullariga qaysilar kiradi?

A) Pedagogik munosabatlarning do'stona iltifotlarga asoslangan usuli

B) YAngi kommunikativ sharoitda munosabatlar usuli.

S) Munosabatlar kurkitish usuli, munosabat-hazillashish usuli.

D) To'g'ri javob A va S.

40. Shaxsning har tomonlama rivojlanishida ta'limning 3 asosiy pedagogik maqsadini ko'rsating.

- A) Dunekarash, rivojlanish, tarbiyalash.**
- B) Estetik bilim berish.
- S) Amaliy, ilmiy.
- D) Rivojlantiruvchi, amaliy.

42. Bilimning asosiy tomonlarini ko'rsating.

- A) Nazariy, amaliy.**
- B) Mantiqiy, shakllantiruvchi.
- S) Tarbiyalovchi.
- D) Dunyoqarashni ilmiy shakllantiruvchi.

43. Ta'lim jarayonining asosiy tuzilish qismlari (elementlari)...

- A) O'qitish, o'qish, ta'lim mazmuni.**
- B) O'qish, nazorat, bilimni egallash.
- S) Tahlil, boshqaruv.
- D) O'zlashtirish.

44. Ilmiy bilimlar tuzimiga ega bo'lish ma'lum ko'nikma va shaxsning axloqiy jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi, bular...

- A) Bir qator ilmiy bilimlarga ega bo'lishi.**
- B) Ma'lum ko'nikma va malakalarning xosligi.
- S) Insonda intellektning rivojlanishi.
- D) Insonning faolligi.

45. Pedagog va o'qituvchining muloqoti, o'zaro muloqotning orasida bilim, ko'nikma va malaka shakllanish jarayoni shunday ataladi:

- A) Ta'lim.**
- B) Tarbiya
- S) Bilim.
- D) muloqot.

46. Ta'lim to'g'risidagi islohotning O'zbekiston Respublikasida asosiy maqsadi bu:

- A) Insonning har tomonlama rivojlanishi va kamol topishi.**
- B) Hayot ekologiyasini yaxshilash.
- S) Ilm-fan va madaniyatni yanada rivojlantirish.
- D) Ta'limni boshqarishni mukammallashtirish.

48. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim boskichlari

- A) Bakalavr, magistratura.**
- B) Bakalavr, umumiy amaliy.
- S) stajyor, magistratura.

D) Magistratura, bakalavr.

49. O'qitish jaraenining asosiy vasifalari kaysilar?

A) O'qitish, tekshirish, uyushtirish.

B) O'qitish, tarbiyalash, moslashtirish.

S) O'rgatish, tekshirish, uyushtirish.

D) Ta'lim, tekshiruvchi, o'rgatish.

50. O'qitish jaraenining asosiy elementlarini belgilang.

A) Ilmiy ma'nosi, ilm berish, o'qitish.

B) Ilmni egallash va uni o'zlashtirish.

S) O'qitish va o'qitishni tashkil etish.

D) Eslash, fikrlash, xulosa qilish.

51. O'qitish jarayoni bosqichlarining ketma-ketligi qayerda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) To'g'ri yondashish, fikrlash, topshirish.

B) Dasturni amalga oshirish, surash, tekshirish.

S) **Qabul qilish, fikrlash, tushunish, xulosa qilish, mustahkamlash, qo'llash.**

D) To'g'ri yondashish, surash, tekshirish.

52. Didaktika bu -

A) O'qitish nazariyasi va ilm berish.

B) Pedagogik ishlar tajribasi.

S) Bilim saviyasini tekshirish.

D) O'qitish ishlarini uyushtirish.

53. Insonning shakllanishida asosiy omillarga kiradi:

A) Irsiyat, muhit, tarbiya.

B) Ehtiyoj, bilim.

S) Shaxs, motivatsiya, faollik.

D) Xususiyat, muloqot.

54. Ma'ruzaning asosiy didaktik maksadi nima?

A) Mavzu bo'yicha ma'lumotlar berish.

B) **O'zlashtirish uchun asosiy muljalning shakllanishi.**

S) Malaka va ko'nikmaning shakllanishi.

D) Mustaqil fikrlashni shakllantirish.

55. O'qitishning kurgazmali usuli uning qaysi turiga kiradi?

A) Mashq qilish turiga.

B) Illyustratsiya mashqlari turiga.

S) Ko'rgazmalilik tamoyili.

D) Namoyish qilish, rasmlar turiga.

56. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy didaktik maqsadi nima?

A) O'z-o'zini o'qitish malakasi.

B) Iqtisodiy tajribani o'zlashtirish.

S) Mustaqil ta'limni rivojlantirish.

D) Bilimni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish.

57. O'quv jaraenida nazorat vazifasi nima?

A) Tarbiyalash, nazorat qilish, o'qitish.

B) Nazorat qilish, o'qitish.

S) Nazorat qilish, tarbiyaviy motivatsiya vazifasi.

D) Nazorat qilish, baholash.

58. Yoshlarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashning amalga oshirilish asosi quyidagicha:

A) Umuminsoniy va milliy kadriyatlar.

B) Huquqiy ongning shakllanishi.

S) Etika va estetika asoslarini bilish.

D) Nutq madaniyatini shakllantirish.

59. Reyting tizimi nazoratini kiritishdan maqsad... .

A) Haqiqiylikni oshirish, tizimlilik nazorati.

B) Nazoratni amalga oshirish shariatini yaxshilash.

S) O'quv ishlarida yangi texnologiyani ishlatish.

D) Subyektiv yondashuvdan kochish.

60. Ta'limning mazmuni qanday manbalarda aks ettiriladi?

A) O'quv rejasida aks ettiriladi.

B) Ta'limning mazmuni darsliklarda aks ettiriladi.

S) Ta'limning mazmuni: o'quv rejalarida, dasturlari va darsliklarda aks ettiriladi.

D) Ta'limning mazmuni dars jarayonida aks ettiriladi.

61. Oliy ta'lim necha bosqichdan iborat?

A) 2.

B) 3.

S) 4.

D) 7.

62. O'quv fan dasturi deganda nimani tushunasiz?

A) Ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'eri hujjat.

B) Bakalavr yoki magistr o'zlashtirishi lozim.

- S) Faqat nazariy bilimlar mavzulari ro'yxati.
- D) Faqat ilmiy bilimlar ro'yxati.

63. Uzlaksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari nimalardan iborat?

- A) Ta'lim ustuvorligi, demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy yo'naltirilganligi, uning tarbiya bilin uzviy bog'liqligi.
- B) Uzlaksiz ta'limning ijtimoiylashuvi, uning tarbiya bilin uzviy bog'liqligi.
- S) Ta'limning tarbiya bilin uzviy bog'liqligi, milliy yo'naltirilganligi.
- D) 2007-yil va undan keyingi yillar.

FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR, VIDEO ROLIKLAR

- 1.[http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/COM\(2006\)_208.pdf](http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/COM(2006)_208.pdf). Commission of the European Communities
- 2.<http://www.polifonia-tn.org/>
- 3.http://ec.europa.eu/education/policies/2010/doc/comuniv2005_en.pdf
- 4.Germany's Vocational Education at a glance.. E-Mail: books@bmbf.bund.de Internet: <http://www.bmbf.de>
- 5.<http://www.mext.go.jp/> Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology
- 6.cvarin19@gmail.com Education in a federal system: A case-study of Belgium. Caroline Varin University of Pennsylvania
- 7.http://ec.europa.eu/education/policies/2010/doc/comuniv2005_en.pdf. Communication from the Commission, COM (2005) 152 final, 12. Brussels: European Union, 2005.
- 8.ERASMUS Network for Music 'Polifonia'. <http://www.polifonia-tn.org/>
- 9.<http://www.tuningjournal.org/article/view/26/152> Warsaw: European League of Institutes of the Arts (ELIA), 2008.
- 10.http://ec.europa.eu/education/higher-education/doc/report09_en.pdf.
- 11.<http://www.elia-artschools.org/images/activiteiten/20/files/Tuning%20document%20film%20EN.pdf>
- 12.http://www.unideusto.org/tuningeu/images/stories/sectoral_framework/2007_10347_FR_Tuning_SQF_PUBLIC_PART.pdf. González, Julia. "Tuning Sectoral Framework for Social Sciences. Final Report, Public Part." Education, Audiovisual & Culture Executive Agency of the European Commission, 2008.
- 13.<http://www.oecd.org/education/highereducationandadultlearning/testingstudentanduniversityperformance> "Higher Education and Adult Learning. Testing Student and University Performance Globally: OECD's AHELO." OECD,
- 14.http://www.unideusto.org/tuningeu/images/stories/sectoral_framework/2007_10347_FR_Tuning_SQF_PUBLIC_PART.pdf Julia González, "Tuning Sectoral Framework for Social Sciences. Final Report, Public Part.
- 15.<http://www.oecd.org/education/highereducationandadultlearning/testingstudentanduniversityperformancegloballyoecdahelo.htm>. "Higher Education and Adult Learning. Testing Student and University Performance Globally: OECD's AHELO," OECD
- 16.<http://www.unideusto.org/tuningeu/subject-areas.html> For an almost exhaustive list of Tuning Europe subject areas, see
- 17.<http://study.com/academy/lesson/what-is-psychology.html>
- 18.<http://study.com/academy/flashcards/social-psychology-introductory-flashcards.html>

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishni ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni (PF-4848. 05.10.2016-y.) da tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash masalalari.

3. Rivojlangan mamalakatlar: Angliya, Yaponiya, Amerika, Germaniya, Koreya, Xitoy ta'limi tizimining o'ziga xosliklari.

4. Modulli ta'lim texnologiyalari.

5. Modulli – kredit ta'limi tizimi.

6. O'quv jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash

7.O'quv loyihaliri tayyorlash va o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari.

8.O'quv loyihaliri tayyorlash ta'lim jarayoniga keng tatbiq qilishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari

9. Ta'limning keys-texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari.

10. Ta'lim jarayonida keys-stadini amalga oshirishning nazariy asoslari.

11. Keys-stadini ta'lim jarayoniga keng tatbiq qilishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari

12. Keys-stadining mohiyatli belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlari.

13. O'quv loyihalarining ta'lim jarayonidagi funksiyalari.

14. Pedagog mahoratini shakllantirish yo'nalishlari

15. Keysni ishlab chiqish texnologiyasi. Keyslar tipologiyasi.

16. Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonlarida qo'llash mahorati

17. Pedagogik vaziyatli topshiriqlarni tahlil qilish

18. Talabalarning pedagogik - amaliy vaziyatni tahlil etishi va hal qilishi texnologiyasi

19. Bo'lajak pedagoglarni zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashga o'rgatish

20. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasini o'rganish

21. Xorijiy mamlakatlar metodikalari. tajribasini o'rganish

GLOSSARIYLAR

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
ERASMUS	ТЕМПУС	TEMPUS	(European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
knowledge	Образование	Bilim	haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va u ularning yutug'i bo'ladi.
Bologna Declaration	Декларация Болония	Bolonya deklaratsiyasi	2001-yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi. Yevropa ta'lim hududini yaratilishi. Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra diplomlarning o'zaro tan olinishi, ya'ni o'qitish natijalarini yakuniy ko'rsatkichlarning o'zaro tan olinish muddati – 2010-yil deb belgilangan edi.
situation	Ситуация	Vaziyat	(situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi.
Situational analysis	Ситуационный анализ	Vaziyatli tahlil	muvozza'fiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olgan holdagi oldingi faoliyatini o'rganish: ishlab chiqarish va bozordagi vaziyat o'zgarish sabablarini aniqlash; xodimlar ishi samaradorligini baholash, ish ko'rsatkichlariga tashqi muhit ta'sirini hisobga olish; Hozirgi kundagi vaziyat ta'sirini aniqlash va kelajak prognozi (bashorati).
Webinars method	Вебинарный метод	Vebinar usuli	dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan talabalar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilishi.
Programmed learning	Программные обеспечение	Dasturlashtirilgan ta'lim berish	Dasturlashtirilgan ta'lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o'rgatuvchi dastur tashkil etadi. U butun o'qitish jarayonini boshqaradi.

profession	Профессия	Kasb	mehnat faoliyatining barqaror turi bo'lib, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni bo'lishini talab qilmay, balki bir xil bo'lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo'lishini talab qiladi
Case study	Кейс-стадия	Keys-stadi	(inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.
concept	Концепция	Konseptsiya	umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.
Sredits	Кредит	Kredit	Host universitetida (qabul qiladigan universitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post – universitetda (talabani boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.
moderator	Модератор	Moderator	Qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarini, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.
modular training	Модульное обучение	Modulli o'qitish	o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.
problematic situation	Проблемные ситуации	Muammoli vaziyat	Mazkur holda vaziyat subyektning hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.
education	Образование	Ta'lim olish	bilim, ko'nikma va malakalar tizimini egallash jarayonidir, ya'ni bunda shaxsning ijodiy faoliyatining jihatlari, dunyoqarashi va o'zini to'tish sifatleri tashkil topadi, hamda bilish qobiliyatlari rivojlanadi.
-learnig education	Обучения	Ta'lim berish	hamkoriy faoliyatni namoyon qilib bunda kasb ta'lim o'qituvchisi talabalar faoliyatini tashkillashtiradi, rag'batlantiradi, o'zgartiradi va nazorat qiladi.

Tyutin	Тьютор	Tyutor	(Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.
training	Обучение	O'qitish	ta'lim oluvchilarga yangi o'quv axborotini taqdim etish, uni o'zlashtirishni tashkillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir.
facilitators	Фасилитатор	Fasilitator	(ingliz tilida .facilitator, latinchafacilis-yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.
heuristic teaching	Евристический обученик	Evristik o'qitish	o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab olishi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi.
advisor	Едвайзер	Edvayzer	frantsuzcha "avisen" "o'ylamoq") talabalarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar

1. Ansoffmatrix. www.free-management-ebooks.com
2. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz
3. Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz
4. Distantionnoe visshee obrazovanie v Evrope: vuzi, tseni, protsess obucheniya. <http://studymooc.org/dh-education/open-university/distancionnoe-vysshee-obrazovanie-v-evrope/>
5. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
6. <http://www.bank.uz/uz/publisVdoc/>
7. <http://hse.ru/articles-> HSE Economic Journal.
8. <http://www.uvm.edu/~pdodds/files/papers/others-> Journal Management Science.
9. <https://www.rjm.ru/> - Российский журнал менеджмента.
10. <http://www.zhuk.net/> - Журнал "Управление компанией".
11. www.top-manager.ru – Журнал "Top management".
12. <http://www.mba-journal.ru/> - Журнал "Менеджмент и бизнес-администрирование".
13. <http://www.cemi.ru> - Jurnal «Ekonomika i matematicheskie metodi».
14. <http://www.iqtisodiyot.uz> - Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.
15. <http://www.cer.uz> - Ekonomicheskoe obozrenie.

Internet saytlar

1. www.krotov.info
2. www.gumer.info
3. www.gumannaja-pedagogika.ru
4. www.koob.ru/pedagogics/
5. old.ziyonet.uz
6. pedagogika-rao.ru
7. pedagogy.ru
8. paidagogos.com
9. www.pedagogika-cultura.narod.ru
10. www.newhorizons.org. Ta'limning yangi ufqlari
11. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumati portali
12. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.
13. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
14. www.kpms.ru – Biznes-jarayonlarini modellashtirish bo'yicha Rossiya Federatsiyasi sayti.

- 15..www.intalev.ru – Biznes-jarayonlarini modellashtirish bo`yicha Intalev kompaniyasi sayti.
- 16..www.nber.com – AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
- 17.. www.ziyonet.uz
- 18..www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
- 19..www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
- 20..www.ehbrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalar indeksi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari

1. Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 19.02.2018-y. PF-5349
2. Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 27.04.2018-y. PQ-3682
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq. 2001. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari.
4. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 25.01.2018 y. PF-5313
5. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyati qo'llab-quvvatlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 05.07.2017 y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Sharq, 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazini tashkil etish to'g'risida. O'zR Vazirlar Mahkamasining qarori. 2012-yil 25-iyul.
8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 14.03.2017- y. PQ-2829
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-sonli Farmoni. //Xalq so'zi. 2017-yil 8-fevral.
10. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida 22.01.2018-y. PF-5308.
11. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. –Toshkent 2018-yil 5-iyun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
15. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.
16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. -48 b.
17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. -488 b.

Asosiy adabiyotlar

18. Azizxujayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T., TDPU. 2003.
19. Бордовская В. Педагогика: Учебное пособие. СПб.: - Питер,2008.
20. Fayzullayeva N. Ijtimoiy pedagogika. -T.: TDIU, 2012.
21. Hakimova M. Kasb pedagogikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008.
22. Hakimova M. va boshq. Pedagogik texnologiyalar -T.: Fan va texnologiya, 2008.
23. Hakimova M. Yulchieva G. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi -T.: Fan va texnologiya, 2014.
24. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan, 2011.
25. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T. Iste'dod, 2008.
26. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: “O'zbekiston”. 2015.
27. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008.
28. Кузнецов В.И. Управления персоналом. -М: МГЭ, статистика и информатика, 2005.
29. Karimova V., Xayitov O., Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: 2008.
30. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
31. Mavlonova R. Pedagogika. - T.: O'qituvchi. 2010.
32. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma.- T.: 2006.
33. Musaxanova G.M. Umumiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni). -T.: TDIU, 2012.
34. Петровский В.А. и др. Личностно-развивающее взаимодействие.- Ростов на Дону, 2002.
35. Подласый И.П. Педагогика. - М.: Владос, 2007.
36. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. - Т.: Молия, 2007.
37. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика.- М.: Школьная пресса, 2004.

38. Saidov M.X. Ta'lim krediti: mexanizmi, xususiyati va amaliyoti. Ta'lim muammolari. №2. 2006 yil.
39. Sultonova G. Pedagogik mahorat.-T.: TDPU, 2005.
40. Xodiyev B.YU., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010.
41. Xasanboyev J. Pedagogika. - T.: TDPU. 2011.
42. Xoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. - T.: O'qituvchi, 2003.
43. Xoshimov K. va boshqalar. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.:O'qituvchi, 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

44. Avliyoqulov N. Pedagogik texnologiya.- T.: 2012.
45. Fayzullaeva N. Ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. (Ma'ruzalar matni). - T.: TDIU, 2012.
46. Holiqov A. Pedagogik mahorat.- T.: Iqtisod Moliya, 2012.
47. Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi.-T.,TDIU. 2009.
48. Muftaydinov Q. Sharq iqtisodiy ta'limotlar tarixi. - T.: A.Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti , 2002.
49. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007.

Davriy nashrlar. Statistik to'plam va hisobotlar

50. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019-yy.
51. Pedagogika. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019-yy.
52. Ta'lim va tarbiya. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019-yy.

Internet saytlari

53. old.ziynet.uz
54. pedagogika-rao.ru
55. pedagogy.ru
56. paidagogos.com
57. uchebnikionline.ru
58. ebagermania.narod.ru
59. www.pedagogika-cultura.narod.ru
60. www.myshared.ru
61. www.batu.edu.by
62. www.gumer.info
63. www.gumannaja-pedagogika.ru

Gulnoz Odilovna Ochilova

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

O`quv qo`llanma

“IQTISODIYOT” - 2019

Муҳаррир

Мирҳидоятова Д.М.

Мусахҳиҳ

Matxo`jayev A.

Litsenziya raqami AI №M 163. 09.11.2008. Bosishga 2019-yil 12 sentyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset qog`ozi. Tays garniturası. Shartli bosma tabog`i 13,26. Nashr tabog`i 16,65. Adadi 10 nusxa. Shartnoma № 88-2017. Buvurtma №756. Bahosi kelishilgan narxda.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo`limida chop etildi

100003.Toshkent, Islom Karimov shoh ko`chasi,49-uy.

0000

Ta'lim texnologiyalari: O'quv
qo'llanma . /Ochilova G.O. .
. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 174
b.

1. Ochilova G.O.

ISBN 978-9943-5185-1-3

УЎК:0000

КБК:0000